O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

MIRZAYEV ISLOMJON XUSHNAZAR O‘G‘LI

ADLIYA ORGANLARINING ADVOKATURANING SAMARALI FAOLIYAT KO‘RSATISHINI TA’MINLASHDAGI ROLI

O‘quv-uslubiy qo‘llanma

ILM-FAN NASHRIYOTI
Toshkent – 2026

UOʻK: 347.965(575.1)
KBK: 67.75(5Ўз) M

Mirzayev I.X. Adliya organlarining advokaturaning samarali faoliyat koʻrsatishini taʼminlashdagi roli. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. / I.X.Mirzayev. – Toshkent.:Ilm-fan nashriyoti, 2026. – 84 b.

Taqrizchilar:
R. Altiyev *– Toshkent shahridagi "Business Lawyers Group" advokatlik firmasi boshqaruvchi sherigi;*
M. Nasullayev *– Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti, yu.f.f.d., PhD.*

Ushbu uslubiy qoʻllanmada adliya organlarining advokatura instituti samarali faoliyat koʻrsatishini taʼminlashdagi oʻrni va roli qonunchilik hujjatlari asosida tizimli tahlil etiladi. Qoʻllanma adliya organlarining advokaturani huquqiy va institutsional taʼminlash, davlat hisobidan yuridik yordamni tashkil etish, raqamli infratuzilmani yaratish, kadrlar malakasini oshirish va ilmiy-uslubiy taʼminlash yoʻnalishlaridagi faoliyatini qamrab oladi, huquqni qoʻllash amaliyotini tahlil qiladi, ilgʻor xorijiy tajribani oʻrganadi va sohani takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan takliflarni ilgari suradi.

Mazkur oʻquv-uslubiy qoʻllanma adliya organlari xodimlari, advokatlar, advokatlik tuzilmalari xodimlari, oliy oʻquv yurtlari talabalari, yuridik taʼlim muassasalarining professor-oʻqituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuv-chilar, ilmiy xodimlar hamda boshqa qiziquvchilar uchun moʻljallangan.

Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Oʻquv-uslubiy Kengashining ***2026-yil 28-avgustdagi 9-son qaroriga*** asosan oʻquv-uslubiy qoʻllanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-0000-00-0

© I.X. Mirzayev – 2026
© Ilm-fan nashriyoti – 2026

MUNDARIJA

KIRISH 5
I BOB. ADVOKATURANI TA'MINLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ADLIYA ORGANLARI ROLINING EVOLYUTSIYASI..... 9
1.1-§. Malakali yuridik yordam – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati..... 9
1.2-§. Advokatura mustaqilligi va davlat ta'minoti: munosabatlarning nazariy modellari 10
1.3-§. Adliya organlari tizimi, vakolatlarining huquqiy tabiati va ta'minlash roli tushunchasi..... 12
1.4-§. Sohaning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilikni rivojlantirish istiqboli..... 15
1.5-§. Adliya organlari rolining evolyutsiyasi: nazoratdan ta'minlashga 18
II BOB. ADLIYA ORGANLARINING HUQUQIY, INSTITUTSIONAL VA RESURS TA'MINOTI..... 25
2.1-§. Norma ijodkorligi va huquqiy ekspertiza orqali ta'minlash 25
2.2-§. Advokatlik kasbiga kirish va tuzilmalarni rasmiylashtirish: tartib va amaliyot 26
2.3-§. Advokatlik faoliyati kafolatlari, advokat so'rovi va intizomiy taqdimnoma 34
2.4-§. Sohaning raqamli ekotizimi va elektron xizmatlar 54
2.5-§. Kadrlar malakasini oshirish, ilmiy-uslubiy ta'minot va huquqiy targ'ibot 56
III BOB. DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM TIZIMI..... 64
3.1-§. Advokatura sohasidagi qonunchilikni ishlab chiqish va takomillashtirishda adliya organlarining ishtiroki 64
3.2-§. Advokatlar reyestri va murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi 66
3.3-§. Advokatni tanlash, almashtirish va yordamni tugatish 69
3.4-§. Ko'rsatilgan yordamni tasdiqlash, sifat monitoringi va moliyalashtirish..... 71

3.5-§. Tizimning amaliyoti, kuchli tomonlari va hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar 81
IV BOB. XORIJIY TAJRIBA VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 86
4.1-§. Xalqaro standartlar va xorijiy modellar: qiyosiy tahlil 86
4.2-§. Amaliyotdagi muammolar kartasi 90
4.3-§. Normativ-huquqiy takomillashtirish takliflari 92
4.4-§. Institutsional va raqamli hamkorlikni rivojlantirish 97
4.5-§. Davlat hisobidan yuridik yordamni rivojlantirish va “yo‘l xaritasi” 99
XULOSA 102
GLOSSARIY 105
AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN KAZUSLAR 108
TEST TOPSHIRIQLARI 115
MUSTAQIL TA’LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR VA REFERAT MAVZULARI 118
FOYDALANILGAN MANBALAR 119

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatning huquqiy tizimini boshqarish, huquqiy islohotlarini amalga oshirish va huquq ustuvorligini ta’minlashda butun dunyoda adliya organlari muhim rol oʻynaydi. Ularning vazifalari mamlakatlarga qarab biroz farq qilishi mumkin, lekin umumiy jihatdan quyidagi asosiy vazifalarni bajaradilar:

- huquqiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- sud tizimini qoʻllab-quvvatlash va boshqarish;
- advokatura va boshqa yuridik xizmatlarni tartibga solish;
- huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish hamda huquqiy axborot tarqatish;
- sud qarorlarini ijro etish tizimini boshqarish;
- xalqaro huquqiy hamkorlikni rivojlantirish va boshqalar.

Advokatura va boshqa yuridik xizmatlarni tartibga solish adliya organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasida ham Adliya vazirligi hamda uning tizimi yuqoridagi kabi asosiy vazifalarni bajaradi.

Soʻngi yillarda vazirlik va uning tizimini takomillashtirish yuzasidan keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-sonli qaroriga asosan, notariat, **advokatura** hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat koʻrsatuvchi boshqa tuzilmalarning samarali faoliyat koʻrsatishini taʼminlash vazirlikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu yoʻnalishda ham tadrijiy islohatlar amalga oshirib kelinmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi **Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti** faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan, adliya organlari va muassasalari faoliyatini, huquqiy xizmatlar koʻrsatish, sud ekspertiza, arxiv ishi va ish yuritish sohalarini ilmiy-metodik va konsultativ jihatdan ta’minlash, shuningdek, ularning faoliyat yoʻnalishlarini tahlil qilgan holda yanada takomillashtirish boʻyicha ilmiy asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish Institutning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu maqsadda institut tomonidan adliya organlari va muassasalari, xususan, hududiy boshqarmalari va boʻlimlari faoliyatining samaradorligini oshirish boʻyicha takliflar, tegishli ilmiy-metodik qoʻllanmalar ishlab chiqish boʻyicha ishlar amalga oshirilishi belgilangan.

2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsning malakali yuridik yordam olish huquqi ikki darajada mustahkamlandi. Birinchidan, 29-moddada har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi, qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan koʻrsatilishi, shuningdek, har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran oʻz tanloviga koʻra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega ekani belgilandi. Ikkinchidan, 141-moddada jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam koʻrsatish uchun advokatura faoliyat koʻrsatishi mustahkamlanib, **advokatura alohida konstitutsiyaviy institut maqomini oldi**.

Ushbu konstitutsiyaviy kafolatlarning hayotda amal qilishi ikki shartga bogʻliq: advokaturaning mustaqil va professional faoliyat yuritishi hamda davlatning bunday faoliyat uchun zarur shart-sharoitni yaratib berishi. Ikkinchi shartning ijrosi esa aniq bir institutsional subyektga – adliya organlariga yuklatilgan. Adliya organlari advokatura sohasidagi qonunchilikni ishlab chiqadi va takomillashtiradi, advokatlik guvohnomalarini rasmiylashtiradi, advokatlik tuzilmalarini davlat roʻyxatidan oʻtkazadi, davlat hisobidan koʻrsatiladigan yuridik yordam tizimini muvofiqlashtiradi, sohaning raqamli infratuzilmasini yaratadi va yuritadi, advokatlar malakasini oshirishni tashkil etadi.

Ushbu qoʻllanmani ishlab chiqishga turtki boʻlgan holatlardan biri 2023–2025-yillarda sohada qator oʻzgarishlar yuz bergani, "Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida"gi Qonun qabul qilingani va Adliya vazirligi ushbu sohada maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangani; Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti yangi asosda tashkil etilganidir. Ushbu oʻzgarishlar adliya organlari rolini yangi sifat darajasiga olib chiqdi, ammo ular hali ilmiy va uslubiy jihatdan yaxlit umumlashtirilmagan.

Bundan tashqari, soha xodimlari va advokatlar oʻrtasida adliya organlarining hozirgi vakolatlari doirasi toʻgʻrisida aniq tasavvur toʻla shakllanmagan. Davlat hisobidan yuridik yordamning amaldagi tizimi nisbatan yangi boʻlib, uning muammolari ham advokatlar, ham adliya organlari xodimlari tomonidan tizimli oʻrganilishiga ehtiyoj mavjud.

Qoʻllanmaning maqsadi – adliya organlari xodimlari, advokatlar va boshqa manfaatdor shaxslarda adliya organlarining advokatura samarali faoliyat koʻrsatishini ta'minlashdagi roli toʻgʻrisida yaxlit, amaldagi qonunchilikka asoslangan bilim va amaliy koʻnikmalar shakllantirish, shuningdek, ushbu faoliyatni takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdir.

Oʻzbekiston yuridik fanida advokatura instituti 12.00.07 – "Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura" ixtisosligi doirasida oʻrganiladi. Bu yoʻnalishdagi tadqiqotlar ahamiyati ortib bormoqda: advokatlar soni 2020-yil 1-yanvardagi 3919 nafardan 2026-yil I chorak yakuniga koʻra 7390 nafargacha oshdi. Advokatlar palatasi Boshqaruvining 2024-yil 27-iyuldagi 3-sonli qarori bilan advokatura ixtisosligi boʻyicha PhD va DSc himoya qilganlarga bir martalik mukofot (mos ravishda bazaviy hisoblash miqdorining 100 va 150 baravari) belgilangan.

Mavzuga bevosita aloqador dissertatsiya tadqiqotlaridan biri – V.X.Davlyatovning "Advokatura institutini takomillashtirishda advokatlik tuzilmalari va oʻzini oʻzi boshqarish organining huquqiy maqomi masalalari" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertat-siyasidir (Toshkent davlat yuridik universiteti; mavzu roʻyxat raqami B2020.1.PhD/Yu353). Unda advokatura toʻgʻrisidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish orqali yagona qonunni qabul qilish zarurligi, advokatlik tuzilmalarini davlat roʻyxatidan oʻtkazganlik uchun davlat boji stavkalari qonun darajasida belgilanishi lozimligi asoslab berilgan va ushbu takliflardan amaldagi qonunlarga oʻzgartishlar kiritishda foydalanilgan. Mazkur dissertatsiya boʻyicha yetakchi tashkilot sifatida Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi – hozirgi Institut belgilangan edi.

Ikkinchi tadqiqot – M.N.Mamayevaning "Qozogʻiston Respublikasi va Oʻzbekiston Respublikasida advokatura institutining mustaqilligini taʼminlash mexanizmi: qonunchilik va amaliyotning qiyosiy tahlili" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi (Toshkent davlat yuridik universiteti; mavzu roʻyxat raqami V2021.4.PhD/Yu 639). Unda talabgor advokatlik guvohnomasi berilgan kundan eʼtiboran advokat maqomini olishi va bu hududiy adliya organi rahbarining buyrugʻi bilan rasmiylashtirilishi lozimligi asoslangan, ushbu taklifdan advokatlik guvohnomasini berish tartibi toʻgʻrisidagi nizom normalarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Advokatlar palatasi nashrida qayd etilishicha, 2025-yil oxirida shu ixtisoslik boʻyicha toʻrtinchi va beshinchi PhD dissertatsiyalari himoya qilindi: J.J.Turdaliyevning "Advokatura va advokatlik faoliyatining mustaqilligini taʼminlash kafolatlari" hamda Sh.A.Ismailovning "Huquqiy davlatni barpo etishda advokatura instituti maqomini oshirish muammolari" mavzusidagi ishlari. Ularda mustaqillikning tashkiliy-institutsional kafolatlari, davlat hisobidan advokat tayinlash va tergovda advokat vakolatlari boʻyicha takliflar bildirilib, litsenziyani toʻxtatish va bekor qilish vakolatlarining

ma’muriy sudlar hamda ijro etuvchi organlarga oʻtishi oʻzini oʻzi boshqarish rolini susaytirgani ta’kidlangan.

Ushbu ishlar, shuningdek, sohaga oid umumiy oʻquv adabiyotlari advokatura institutining huquqiy maqomini yetarlicha chuqur yoritadi. Biroq ularning barchasi masalaga advokatura nuqtai nazaridan, ya’ni advokatura mustaqilligini ta’minlash va himoya qilish rakursida yondashadi. Adliya organlarining advokaturani ta’minlashdagi pozitiv, yaratuvchi roli alohida, kompleks tadqiqot predmeti sifatida oʻrganilmagan. Qolaversa, mavjud ishlar 2020–2025-yillarda himoya qilingan boʻlib, ular “Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida”gi Qonun va keyingi islohot natijalarini toʻliq qamrab ololmagan. Mazkur qoʻllanma ana shu boʻshliqni ham toʻldirishga qaratilgan.

Qoʻllanmada har bir bobdan keyin nazorat savollari, qoʻllanma oxirida esa glossariy, test topshiriqlari va amaliy mashgʻulotlar uchun kazuslar keltirilgan. Kazuslar uch qismli tuzilishga ega: muammoli holat, savollar, toʻgʻri javob – bu ularni malaka oshirish kurslarida bevosita amaliy mashgʻulot materiali sifatida qoʻllash imkonini beradi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli-tarkibiy, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik va funksional tahlil usullari tashkil etadi. Tizimli-tarkibiy usul adliya organlari faoliyatini yaxlit tizim sifatida, uning elementlari oʻzaro bogʻliqligida oʻrganishga; tarixiy-huquqiy usul rolning evolyusiyasini kuzatishga; qiyosiy-huquqiy usul xorijiy modellar bilan solishtirishga; formal-yuridik usul normativ hujjatlar matnini tahlil qilishga; funksional usul esa har bir vakolatning amaliy vazifasini aniqlashga xizmat qildi.

Shuningdek, qoʻllanmani tayyorlashda adliya xodimlari va advokat oʻrtasida soʻrovnomalar oʻtkazilgan boʻlib, natijalaridan foydalanilgan.

Qoʻllanma toʻrt bobdan iborat boʻlib, har bir bob beshta paragrafni qamrab oladi. Birinchi bobda ta’minlash faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari va adliya organlari rolining evolyutsiyasi, ikkinchi bobda huquqiy, institutsional, raqamli va kadrlar ta’minoti, uchinchi bobda davlat hisobidan yuridik yordam tizimi, toʻrtinchi bobda esa xorijiy tajriba va takomillashtirish istiqbollari yoritilgan.

I BOB. ADVOKATURANI TA'MINLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ADLIYA ORGANLARI ROLINING EVOLYUTSIYASI

1.1-§. Malakali yuridik yordam – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati

Huquq nazariyasida konstitutsiyaviy huquqlar ikki turga ajratiladi: davlatdan faqat aralashmaslikni talab qiladigan huquqlar (negativ huquqlar) va davlatdan faol harakatni, resurs va infratuzilma ajratishni talab qiladigan huquqlar (pozitiv huquqlar). Malakali yuridik yordam olish huquqi ushbu tasnifda alohida o'rin tutadi: u bir vaqtning o'zida har ikki xususiyatni birlashtiradi.

Ushbu huquqning negativ jihati shundaki, davlat shaxsning advokat bilan aloqasiga, advokatning kasbiy faoliyatiga aralashmasligi, advokatlik siriga daxl qilmasligi shart. Pozitiv jihati esa davlatdan aniq harakatlarni talab qiladi: advokatura institutining mavjud bo'lishi va ishlashi uchun huquqiy asos yaratish; kasbga kirish va kasbiy standartlar tizimini belgilash; moddiy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yuridik yordamni moliyalashtirish; yuridik yordamning hududiy va ijtimoiy jihatdan hamma uchun yetib borishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida aynan shu ikki jihat mujassam. Moddaning birinchi qismida har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi belgilangan – "kafolatlanadi" fe'li davlatning pozitiv majburiyatini anglatadi. Ikkinchi qismda qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatilishi mustahkamlangan – bu majburiyatning moliyaviy o'lchovi. Uchinchi qismda esa har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, ushlanganida esa harakatlanish erkinligi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega ekani belgilangan – bu huquqning vaqt bo'yicha eng erta nuqtasini belgilaydigan, himoya huquqining realligini ta'minlovchi norma.

Konstitutsiyaning 141-moddasida jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatishi belgilangan. Ushbu normaning ahamiyati shundaki, u advokaturani oddiy kasbiy birlashma emas, balki konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilgan institut maqomiga ko'taradi. Konstitutsiyaviy institutga nisbatan davlatning munosabati erkin ixtiyor emas: davlat

uni tugatishi, uning oʻrniga boshqa mexanizm joriy etishi yoki uning faoliyatini ma’lum darajada cheklashi mumkin emas. Aksincha, davlat zimmasida ushbu institutning ishlashi uchun shart-sharoit yaratish konstitutsiyaviy majburiyati vujudga keladi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining hujjatlarida ham ushbu normalar – 29-moddaning birinchi qismi va 141-moddaning birinchi qismi – birga, yaxlit kontekstda keltirilishi bejiz emas.

Shunday qilib, nazariy jihatdan adliya organlarining advokatura faoliyatini taʼminlash boʻyicha vakolatlari ixtiyoriy yoki qoʻshimcha funksiya emas, balki davlatning konstitutsiyaviy majburiyatini bajarishning institutsional shaklidir. Ushbu xulosa qoʻllanmaning barcha keyingi boblarining metodologik asosini tashkil etadi: adliya organlarining har bir vakolati shu nuqtai nazardan – u konstitutsiyaviy kafolatning amalga oshishiga qanday xizmat qiladi, degan savol orqali baholanadi.

Malakali yuridik yordam olish huquqining xalqaro-huquqiy asosi ham mavjud. Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning (1966 yil, Oʻzbekiston Respublikasi 1995 yilda qoʻshilgan) 14-moddasida jinoiy ayblov qoʻyilgan har bir shaxsning oʻzi tanlagan himoyachi orqali himoyalanish, himoyachi bilan aloqa qilish, shuningdek, unda yetarli mablagʻ boʻlmagan hollarda adolat manfaatlari taqozo etganda haq toʻlamasdan himoyachi tayinlanishi huquqlari belgilangan. Ushbu xalqaro majburiyat Konstitutsiyaning 29-moddasi bilan hamohang boʻlib, davlatning pozitiv vazifalarini xalqaro darajada ham mustahkamlaydi.[1]

1.2-§. Advokatura mustaqilligi va davlat taʼminoti: munosabatlarning nazariy modellari

Advokatura va davlat munosabatlarini muhokama qilishda koʻpincha soxta dilemma uchraydi: goʻyo davlatning sohadagi har qanday ishtiroki advokatura mustaqilligiga tahdid, mustaqillik esa davlatning toʻliq chetlashishini talab qiladi. Ushbu yondashuv ham nazariy, ham amaliy jihatdan asossizdir.

Avvalo, mustaqillik tushunchasining mazmunini aniqlashtirish zarur. “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunda advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va oʻzini oʻzi boshqarish prinsiplariga asoslanishi belgilangan. “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida”gi Qonunda esa ushbu

[1] International Covenant on Civil and Political Rights. Adopted by the UN General Assembly resolution 2200A (XXI) of 16 December 1966, art. 14. URL: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights (murojaat sanasi: 2026-yil 15-avgust).

prinsiplar aniq huquqiy kafolatlarda moddiylashgan: advokatning mustaqilligini taʼminlash (5-modda), advokatning daxlsizligi (6-modda), advokatlik faoliyatiga aralashishga yoʻl qoʻyilmasligi (7-modda), advokatlik faoliyati himoyalanishini taʼminlash (8-modda). Ushbu normalar mazmunidan koʻrinadiki, mustaqillik – bu advokatning kasbiy faoliyatiga, uning huquqiy pozitsiyasiga, mijoz bilan munosabatlariga aralashmaslik demakdir. U davlatning sohaga oid qonunchilikni belgilashi, davlat hisobidan yuridik yordamni moliyalashtirishi, raqamlashtirish yoki kadrlar tayyorlashni tashkil etishda ishtirok etishni istisno qilmaydi.

Ikkinchidan, amaliyot koʻrsatadiki, davlat taʼminoti yoʻq joyda mustaqillik ham zaiflashadi. Moliyaviy asosi mustahkam boʻlmagan, hududiy jihatdan kam qamrovli, kadrlar salohiyati past advokatura hech qanday mustaqillik kafolati bilan ham samarali himoya koʻrsata olmaydi. Aksincha, davlat hisobidan yuridik yordam tizimi orqali barqaror moliyaviy oqim yaratilishi, raqamli infratuzilma taʼminlanishi, malaka oshirish imkoniyati berilishi advokaturaning real salohiyatini oshiradi va shu orqali uning mustaqilligini mazmuniy jihatdan mustahkamlaydi.

Uchinchidan, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida"gi Qonunning 12-moddasi bevosita "Davlat bilan advokatura oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar" deb nomlangan. Qonun chiqaruvchining ushbu munosabatlarni alohida modda predmeti sifatida ajratishi ularning mavjudligini va zarurligini qonun darajasida eʼtirof etishni anglatadi. Xuddi shunday, "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunning 17-moddasi "Advokatura va Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi" deb nomlanib, ushbu munosabatlarning institutsional doirasini belgilaydi.

Shu bois mazkur qoʻllanmada qabul qilingan nazariy pozitsiya quyidagicha: advokaturaning mustaqilligi va davlatning taʼminlovchi faoliyati bir-birini istisno qilmaydi, balki oʻzaro taqozo etadi. Hal qiluvchi savol – davlat ishtirok etadimi yoki yoʻqmi, degan savol emas, balki davlat qaysi funksiyalarni bajarishi va qaysi funksiyalardan chetlashishi lozim, degan savoldir. Ushbu chegara xalqaro standartlarda yetarlicha aniq belgilangan: kasbga qabul qilish va intizomiy nazorat kasbiy hamjamiyatga, huquqiy tartibga solish, infratuzilma va moliyalashtirish esa davlatga tegishlidir.

Ushbu pozitsiyaning amaliy ifodasini davlat va advokatura muno-sabatlarining nazariy modellari tasnifi orqali aniqlashtirish mumkin.

Qiyosiy-huquqiy adabiyotda davlat va advokatura munosabatlarining uchta asosiy modelini ajratish mumkin. Ushbu tasniflash shartli boʻlib, amaliyotda sof holda uchramaydi, ammo u

tarixiy jarayonni tushunish va O‘zbekistonning hozirgi holatini aniqlash uchun foydali tahliliy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Nazorat modeli

Ushbu modelda davlat advokatura faoliyatining barcha muhim jihatlari ustidan bevosita nazorat o‘rnatadi: kasbga kirishni litsenziyalash orqali boshqaradi, malaka imtihonlarini davlat organi huzuridagi komissiyalar qabul qiladi, intizomiy choralar davlat organi ishtirokida qo‘llaniladi, advokatlik tuzilmalari faoliyati ma’muriy nazorat ostida bo‘ladi. Ushbu model himoya huquqining sifati uchun davlatning javobgarligi g‘oyasiga asoslanadi, ammo uning jiddiy kamchiligi bor: advokat ko‘p hollarda aynan davlat organlariga qarshi mijoz manfaatini himoya qiladi, shu bois uning kasbiy taqdiri shu organlarga bog‘liq bo‘lishi manfaatlar to‘qnashuvini vujudga keltiradi.

Ta’minlash modeli

Bu modelda davlat nazorat funksiyalaridan voz kechib, ta’minlovchi funksiyalarga o‘tadi: u qonunchilikni ishlab chiqadi, yuridik yordam tizimini moliyalashtiradi, infratuzilma yaratadi, kadrlar tayyorlaydi, ammo kasbga qabul qilish va kasbiy intizom masalalariga aralashmaydi. Ushbu model advokaturaning o‘zini o‘zi boshqarishini tan oladi va davlatning ishtirokini xizmat ko‘rsatuvchi mazmun bilan to‘ldiradi.

Sheriklik modeli

Uchinchi model ta’minlash modelini rivojlantirib, unga hamkorlik elementini qo‘shadi: davlat va advokatura qonunchilikni birgalikda ishlab chiqadi, doimiy faoliyat yurituvchi muloqot platformalari orqali muammolarni kelishib hal etadi, yuridik yordam standartlarini birgalikda belgilaydi, kadrlar tayyorlashda hamkorlik qiladi. Ushbu model eng yuqori samaradorlikni ta’minlaydi, ammo u o‘zaro ishonch va har ikki tomonning institutsional yetukligini talab qiladi.

O‘zbekistonda shakllangan munosabatlar uchinchi model elementlarini o‘zida mujassam etadi deb hisoblaymiz.

1.3-§. Adliya organlari tizimi, vakolatlarining huquqiy tabiati va ta’minlash roli tushunchasi

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat huquqiy siyosatini amalga oshiruvchi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va ularni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, yuridik xizmat, advokatura, notariat, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish, mediatsiya, intellektual mulk, sud ekspertizasi, arxiv ishi va ish yuritish sohalarini muvofiqlashtiruvchi davlat boshqaruvi organidir.

"Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonun mazmunidan advokatura faoliyatiga bevosita aloqador adliya organlari sifatida Adliya vazirligi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarini tushunish mumkin. Tizimga, shuningdek, tuman (shahar) adliya boʻlimlari va vazirlik tizimidagi muassasalar, jumladan, Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kiradi.

Vakolatlarning huquqiy tabiatiga koʻra ularni toʻrt guruhga ajratish mumkin.

- Norma ijodkorligi vakolatlari – advokatura sohasidagi qonun loyihalari va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish, idoraviy normativ hujjatlarni qabul qilish va davlat roʻyxatidan oʻtkazish.

- Rasmiylashtiruvchi vakolatlar – litsenziya, advokatlik guvohnomasini berish, advokatlik tuzilmalarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish, reyestrlarni yuritish. Ushbu vakolatlar tabiatan diskretsion emas, balki qayd etuvchi xususiyatga ega: adliya organi qonunda belgilangan shartlarga muvofiqligini tekshiradi va muvofiq boʻlsa, rasmiylashtirishni rad eta olmaydi.

- Taʼminlovchi vakolatlar – davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish tizimini tashkil etish, axborot tizimlarini yaratish va yuritish, kadrlar malakasini oshirishni tashkil etish, ilmiy-uslubiy taʼminot. Ushbu guruh hozirgi bosqichda hajm va ahamiyat jihatidan birinchi oʻringa chiqmoqda.

- Himoyalovchi vakolatlar – advokatlik faoliyati kafolatlarining buzilishi holatlarida chora koʻrish, advokat soʻrovlari ijrosini taʼminlashga koʻmaklashish, sohada qonuniylik monitoringini yuritish.

Ushbu tasniflash amaliy ahamiyatga ega: har bir guruh vakolatlari oʻziga xos huquqiy rejimga, amalga oshirish tartibiga va samaradorlik mezonlariga ega boʻlib, ularni aralashtirish amaliyotda xatoliklarga olib keladi. Xususan, rasmiylashtiruvchi vakolatlarni diskretsion deb talqin qilish (yaʼni adliya organi guvohnoma berishni oʻz xohishiga koʻra hal qiladi deb tushunish) advokatlik kasbiga kirishda asossiz toʻsiqlar yaratilishiga olib kelishi mumkin.

Yuridik adabiyotda mazkur tushuncha yaxlit taʼriflanmagan. Yuqorida bayon etilgan nazariy asoslarga tayangan holda, uni quyidagicha taʼriflash mumkin.

Adliya organlarining advokatura faoliyatini taʼminlashdagi roli – bu davlatning har kimga malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlash boʻyicha konstitutsiyaviy majburiyatidan kelib chiquvchi, advokaturaning mustaqilligi va oʻzini oʻzi boshqarish prinsiplariga daxl qilmagan holda, advokatura instituti samarali faoliyat yuritishi

uchun zarur huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, axborot-texnologik va kadrlar shart-sharoitini yaratish hamda saqlab turishga qaratilgan davlat faoliyatining tizimli yo‘nalishidir.

Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, adliya organlari faoliyatining olti funksiyasini ajratib ko‘satish mumkin:

1. Norma ijodkorligi funksiyasi – sohaning huquqiy bazasini yaratish va takomillashtirish.

2. Legitimatsiyalash funksiyasi – advokat maqomi va advokatlik tuzilmalarining huquqiy mavjudligini rasmiylashtirish.

3. Moliyalashtirish va ma’muriy funksiyasi – davlat hisobidan yuridik yordam tizimini tashkil etish va moliyaviy ta’minlash.

4. Infratuzilma funksiyasi – axborot tizimlari va elektron xizmatlarni yaratish va yuritish.

5. Kadrlar va ilmiy-uslubiy funksiya – malaka oshirish, uslubiy ta’minot.

6. Himoya va monitoring funksiyasi – kafolatlarning amalda ishlashini ta’minlash va sohadagi holatni kuzatish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida nizomning 10-bandi 10) kichik bandida vazirlikning advokatura sohasidagi funksiyalari ko‘rsatilgan:

advokatlik tuzilmalari va O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyati kafolatlarini ta’minlashda ko‘maklashadi;

O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan birgalikda malaka komissiyalari vakolatlari va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi tarkibini tasdiqlaydi;

advokatlarga litsenziyalar va advokatlik guvohnomalarini beradi, shuningdek ularning reyestrini yuritadi hamda malakasini oshirishda ko‘maklashadi;

advokatlik tuzilmalarining statistik ma’lumotlarini taqdim qilish tartibini belgilaydi va statistik ma’lumotlarni tahlil qiladi;

advokat tomonidan ishni olib borishda order shaklini tasdiqlaydi;

advokatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, advokatlik tuzilmalari tomonidan ta’sis hujjatlari, ustavida belgilangan faoliyatiga, shuningdek qayta ro‘yxatdan o‘tish va tugatish tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ushbu faoliyatning samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlar taklif etiladi. Birinchi mezon – qamrov: aholining qanday ulushi malakali yuridik yordamga real erishish imkoniyatiga ega;

davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokatlar barcha hududlarda yetarlimi. Ikkinchi mezon – tezkorlik: kasbga kirish, guvohnoma olish, tuzilmani roʻyxatdan oʻtkazish kabi tartib-taomillar qancha vaqt talab qiladi va ular qanchalik soddalashtirilgan. Uchinchi mezon – mustaqillikka daxlsizlik: taʼminlash choralari advokatning kasbiy erkinligini cheklamaydimi. Toʻrtinchi mezon – sifat: koʻrsatilayotgan yuridik yordamning, shu jumladan davlat hisobidan koʻrsatilayotgan yordamning darajasi. Beshinchi mezon – barqarorlik: tizimning moliyaviy va institutsional jihatdan uzoq muddatli ishlash qobiliyati.

1.4-§. Sohaning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilikni rivojlantirish istiqboli

Mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlar besh darajali iyerarxiyani tashkil etadi.

Birinchi daraja – Konstitutsiya

Konstitutsiyaning 29-moddasi (malakali yuridik yordam huquqi, davlat hisobidan yuridik yordam, ushlangan paytdan advokat yordamidan foydalanish huquqi) va 141-moddasi (advokaturaning konstitutsiyaviy institut sifatidagi maqomi) butun tizimning poydevoridir.

Ikkinchi daraja – qonunlar

Ushbu darajada uchta asosiy qonun mavjud. Birinchisi, 1996-yil 27-dekabrdagi 349-I-son "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonun boʻlib, u advokaturaning tushunchasi va vazifalari, advokatlik faoliyatini tashkil etish shakllari, advokat maqomiga ega boʻlish tartibi, Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari, malaka komissiyalari, intizomiy javobgarlik masalalarini tartibga soladi hamda 17-moddasida "Advokatura va Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi" munosabatlarini alohida belgilaydi. Qonunga qabul qilinganidan buyon koʻp bor oʻzgartishlar kiritilgan, jumladan, 2008-yil 31-dekabrdagi OʻRQ-198-son, 2018-yil 11-oktyabrdagi OʻRQ-497-son, 2019 yil 23 maydagi OʻRQ-542-son, 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-son, 2022-yil 2-fevraldagi OʻRQ-749-son, 2024-yil 21-fevraldagi OʻRQ-911-son qonunlari bilan; amaldagi tahrir 2025-yil 8-maydan kuchga kirgan.

Ikkinchisi, 1998-yil 25-dekabrdagi 721-I-son "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida"gi Qonun. Ushbu qonun mazkur qoʻllanma mavzusi uchun alohida ahamiyatga ega, chunki uning 12-moddasi bevosita "Davlat bilan advokatura oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar" deb nomlangan.

Qonunda, shuningdek, advokatning vakolatlari (4-modda), mustaqilligini taʼminlash (5-modda), daxlsizligi (6-modda), faoliyatiga aralashishga yoʻl qoʻyilmasligi (7-modda), faoliyati himoyalanishini taʼminlash (8-modda), yuridik yordamni taʼminlash kafolatlari (9-modda), advokatning ijtimoiy himoyasi choralari (10-modda) belgilangan. Qonunning amaldagi tahriri 2024-yil 21-sentyabrdan kuchga kirgan.

Uchinchisi – 2023-yil 16-iyundagi OʻRQ-848-son "Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida"gi Qonun. U Konstitutsiyaning 29-moddasi ikkinchi qismidagi normani amalga oshiruvchi maxsus qonun boʻlib, besh bobdan iborat va Adliya vazirligini ushbu sohada maxsus vakolatli davlat organi etib belgilaydi. Ushbu qonun qabul qilinishi munosabati bilan 2024-yil 27-fevraldagi OʻRQ-915-son Qonun bilan bir qator kodekslar va qonunlarga protsessual oʻzgartishlar kiritildi.

Uchinchi daraja – Prezident hujjatlari

Sohadagi strategik yoʻnalishlarni belgilovchi hujjatlar: 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Farmon; 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Farmon; 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qaror; 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi Farmon; 2024-yil 24-maydagi PF-80-son "Maʼmuriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining masʼuliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish toʻgʻrisida"gi Farmon.

Toʻrtinchi daraja – Vazirlar Mahkamasi qarorlari

Mazkur darajada, xususan, 2023-yil 1-iyundagi 226-son "Advokatlik guvohnomasini berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror hamda 2025-yil 19-martdagi 171-son "Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qaror muhim oʻrin tutadi. Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish tartibi ham Vazirlar Mahkamasining Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi 774-son "Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq toʻlash tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash

haqida”gi qarori va ushbu qaror bilan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

Beshinchi daraja – idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar

Adliya vazirining buyruqlari bilan tasdiqlanadigan nizom va tartiblar. Masalan, mazkur darajadagi eng muhim yangi hujjatlardan biri adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizom” (Adliya vazirligida 2025-yil 7-iyulda 3637-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).

Ushbu iyerarxiyani tahlil qilish ko‘rsatadiki, advokatura sohasidagi huquqiy tartibga solish ko‘p sonli, turli darajadagi va turli davrlarda qabul qilingan hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda. Ikki alohida qonunning (349-I va 721-I) mavjudligi, ularga o‘ttiz yil davomida o‘nlab o‘zgartishlar kiritilishi huquqni qo‘llashda murakkabliklar tug‘diradi.

Qonunchilikni rivojlantirishning navbatdagi bosqichi

Yuqorida ko‘rsatilgan iyerarxiya statik emas. Hozirgi vaqtda Adliya vazirligi tomonidan “Advokatura institutining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan, u regulation.adliya.uz portalida umumxalq muhokamasidan o‘tkazilgan va ko‘rib chiqish uchun yuqori tashkilotlarga kiritilgan.

Loyihaning konseptual asosi uning kirish qismida ochiq bayon etilgan: yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 141 va 142-moddalarida advokatura institutining konstitutsiyaviy maqomi mustahkamlanib, advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanishi, advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi, advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanishi, advokat, uning sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘lishi belgilandi. Shunga ko‘ra soha qonunchiligini yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish zarurati tug‘ilgan.

Loyiha sakkizta qonun hujjatiga – Jinoyat-protsessual kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Notariat to‘g‘risida”, “Advokatura to‘g‘risida”, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”, “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida” va “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutadi. Ushbu qamrov

loyihaning tizimli xarakterini koʻrsatadi: advokat maqomi va vakolatlari faqat sohaviy qonunda emas, balki protsessual va tarmoq qonunchiligida ham mustahkamlanmoqda. Loyihaning mazmuni mazkur qoʻllanmaning tegishli paragraflarida, uning adliya organlari faoliyatiga taʼsiri nuqtai nazaridan koʻrib chiqiladi.

Ayni paytda loyiha matnini tahlil qilish unda nazarda tutilmagan, ammo adliya organlari va advokatura munosabatlarining samaradorligi nuqtai nazaridan hal etilishi zarur boʻlgan bir qator masalalar mavjudligini koʻrsatadi. Ushbu masalalar asosan ikki yoʻnalishga tegishli: birinchisi, advokatning protsessual vakolatlarini ish yuritishning aniq bosqichlarida ishlaydigan shaklda mustahkamlash; ikkinchisi, advokatning axborot olish imkoniyatlarini va daxlsizlik kafolatlarini kuchaytirish. Mazkur qoʻllanmada ushbu masalalar boʻyicha mualliflik takliflari tegishli paragraflarda, ularning adliya organlari faoliyatiga taʼsiri nuqtai nazaridan ilgari suriladi va IV bobda umumlashtiriladi.

1.5-§. Adliya organlari rolining evolyutsiyasi: nazoratdan taʼminlashga

Adliya organlarining advokatura sohasidagi vakolatlari soʻnggi oʻttiz yilda bir necha bor takomillashtirildi. Ushbu evolyutsiyani kuzatish amaliy ahamiyatga ega: hozirgi vakolatlar doirasini toʻgʻri tushunish uchun ular qaysi holatdan kelib chiqqanini bilish zarur.

1994–2008 yillar: litsenziyalash tizimining shakllanishi

Mustaqillikning dastlabki yillarida advokatura sobiq tizimdan meros qolgan kollegiya shaklidan bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashgan modelga oʻtdi. 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonun ushbu oʻtishni huquqiy jihatdan rasmiylashtirdi. Qonunda advokatura huquqiy institut boʻlib, u advokatlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shugʻullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, koʻngilli, kasbiy birlashmalarini oʻz ichiga olishi belgilandi.

1998-yil 25-dekabrda “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilinib, u advokatning mustaqilligi, daxlsizligi, faoliyatiga aralashishga yoʻl qoʻyilmasligi kabi kafolatlarni belgiladi. Ushbu ikkita qonun birga advokaturaning huquqiy asosini tashkil etdi va bugungi kungacha ushbu asos sifatida saqlanib qolmoqda.

Ushbu davrda adliya organlarining vakolatlari eng keng doirada boʻlgan. Advokatlik faoliyati bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziya Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va

Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida berilardi. Malaka komissiyalari esa aynan adliya organlari huzurida tashkil etilar, ularning tarkibi adliya organlarining qarorlari bilan shakllantirilar edi. Shu tariqa, kasbga kirish ustidan nazorat nisbatan to‘liq davlat qo‘lida edi. Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish va tugatish vakolatlari ham adliya organlarida bo‘lgan.

Ushbu model o‘z davri uchun tushunarli edi: yangi shakllanayotgan advokatura hamjamiyati o‘zini o‘zi boshqarish institutlariga ega emas edi, shu bois davlat nazorati o‘tish davrining zaruriyati sifatida qaraldi. Ayni paytda ushbu model advokatning kasbiy taqdirini u ko‘pincha qarshi turadigan davlat organiga bog‘lab qo‘yishi bilan tizimli muammo yaratar edi.

2008–2018 yillar: Advokatlar palatasining ta’sis etilishi

Islohotning birinchi tub qadami 2008-yil 31-dekabrdagi O‘RQ-198-son “Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan qo‘yildi. Ushbu qonun orqali O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi – advokatlarning majburiy a’zolikka asoslangan yagona professional o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti ta’sis etildi.

Palataning tashkil etilishi ikki jihatdan ahamiyatli bo‘ldi. Birinchidan, advokatura hamjamiyati yagona institutsional vakilga ega bo‘ldi – endi davlat bilan muloqot tarqoq advokatlik tuzilmalari emas, balki bir subyekt orqali olib boriladigan bo‘ldi. Ikkinchidan, kelgusida davlat vakolatlarini o‘tkazish uchun institutsional “qabul qiluvchi” paydo bo‘ldi: har qanday vakolatni o‘tkazish uchun uni oluvchi yetarlicha salohiyatli tashkilot bo‘lishi shart.

Ushbu davrda malaka komissiyalari Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzurida faoliyat yuritishga o‘tdi. Advokatlik faoliyatini tashkil etish shakllari ham aniqlashtirildi: advokatlik byurosi (yakka tartibdagi faoliyat uchun), advokatlik firmasi, advokatlar hay’ati, yuridik maslahatxona. Qonunda advokatlik firmasi va advokatlar hay’ati O‘zbekiston hududida hamda chet davlatlarda alohida bo‘linmalar (vakolatxona va filiallar) tashkil etishga haqli ekani, bunda alohida bo‘linma ochish to‘g‘risidagi qaror haqida adliya organi oldindan xabardor qilinishi belgilandi.

Shunday qilib, 2008–2018-yillar vakolatlarning qayta taqsimlanishi uchun institutsional asos yaratilgan.

2018–2022-yillar: PF-5441 va yangi vazifalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va

advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni sohadagi tub burilish nuqtasi bo‘ldi. Ushbu hujjat nomidayoq ikkita kalit so‘z mujassam: samaradorlik va mustaqillik.

Farmon, jumladan, huquqiy maslahat xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar doirasini kengaytirishni nazarda tutdi: 2018-yil 1-avgust-dan boshlab tijorat tashkilotlari yuridik maslahat xizmatlarini litsenziya olmasdan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin bo‘ldi. Ushbu qaror yuridik xizmatlar bozorini liberallashtirdi va ayni paytda advokatura oldiga raqobat sharoitida sifat bilan ustunlik qilish vazifasini qo‘ydi.

Farmondan kelib chiqqan holda, 2018-yil 11-oktyabrdagi O‘RQ-497-son Qonun bilan “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunga va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartish va qo‘shim-chalar kiritildi. Ushbu o‘zgarishlar bilan advokat so‘rovini ko‘rib chiqish tartibi va muddatlari qonun darajasida belgilandi – bungacha bunday tartibning mavjud emasligi va ayrim hollarda so‘rovlarga e’tibor berilmasligi advokatlar faoliyatiga jiddiy xalal berar edi. Adliya organlari uchun bu yangi vazifa tug‘dirdi: davlat organlari xodimlarini ushbu majburiyat yuzasidan o‘qitish va huquqiy targ‘ibot olib borish.

2022-yil 30-maydagi PQ-263-son “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror esa sohada raqamli transformatsiyaga start berdi va adliya organlari zimmasiga mutlaqo yangi – axborot tizimlarini yaratish va yuritish vazifasini yukladi. Ushbu vazifa keyinchalik adliya organlari faoliyatining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishiga aylandi.

2023–2026-yillar: yangi konstitutsiyaviy asos

Ushbu davr adliya organlari roli evolyutsiyasining hal qiluvchi bosqichi bo‘ldi. Uchta yirik o‘zgarish bir-birini to‘ldirgan holda sodir bo‘ldi.

Konstitutsiyaviy asosning yangilanishi

2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahririda advokatura alohida modda (141-modda) orqali konstitutsiyaviy institut maqomini oldi, malakali yuridik yordam kafolati esa 29-moddada kengaytirilgan shaklda mustahkamlandi. Bu davlat majburiyatlarining konstitutsiyaviy darajada aniqlashtirilishi edi.

Davlat hisobidan yuridik yordam tizimining yaratilishi

2023-yil 16-iyundagi O‘RQ-848-son Qonun bilan davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishning yaxlit tizimi yaratildi va Adliya vazirligi ushbu sohada maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi. Bu

adliya organlari tarixidagi yangi keng hajmli vazifa boʻldi: ular nafaqat tartibga soluvchi, balki davlat nomidan yuridik yordamni buyurtma qiluvchi, moliyalashtiruvchi va sifat monitoringini yurituvchi subyektga aylandi. 2024-yil 27-fevraldagi OʻRQ-915-son Qonun bilan tizimning protsessual taʼminoti yaratildi.

Malaka komissiyalari islohoti – 2025-yilgi islohot amalda nimani oʻzgartirdi?

Malaka komissiyalarining Advokatlar palatasi tizimiga oʻtkazilishi institutsional oʻzgarish bilangina cheklanmadi. Adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan Nizom (roʻyxat raqami 3637) 2009-yildan amal qilib kelgan Nizomning tahriri emas, balki toʻliq yangi hujjatdir: tartib-taomillarning "Yuridik yordam" axborot tizimiga koʻchirilishi tartibni qayta qurishni talab qildi. Asosiy farqlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Masala	2009-yilgi Nizom	2025-yilgi Nizom
Hujjat topshirish	Hududiy boshqarmaga sakkiz turdagi hujjat, shu jumladan advokatlik tuzilmasining tavsifnomasi	"Yuridik yordam" tizimi orqali soʻrovnoma; faqat stajirovka maʼlumotnomasi va shaxsiy varaqa; qolgan maʼlumotlar avtomatik olinadi; tavsifnoma bekor qilingan
Imtihon shakli	Ogʻzaki va yozma; imtihon varaqasi; Internetda translyatsiya	Faqat ogʻzaki suhbat; audio-videoyozuvda qayd etiladi; rasmiy veb-saytda translyatsiya
Savollar	Palata tasdiqlagan roʻyxat asosidagi imtihon biletlari	Har ixtisoslik boʻyicha 150–200 ta savol rasmiy saytda eʼlon qilinadi; 5 tasi tizim orqali tasodifiy tanlanadi
Vaqt	Tayyorlanish – 1 soat; javob vaqti belgilanmagan	Tayyorlanish – 30 daqiqa; har savol uchun 3 daqiqa, qoʻshimcha savollar bilan 10 daqiqagacha
Baholash	Qogʻoz byulleten; uch kishilik hisoblash guruhi qoʻlda hisoblaydi	Ball tizimga kiritiladi va avtomatik hisoblanadi; qoʻyilgan ballarni oʻzgartirish imkoniyati yoʻq
Rad etish	Asoslar roʻyxati; taqiqlovchi norma yoʻq	"Maqsadga muvofiq emas" kabi vajlar bilan rad etish ochiq taqiqlangan
Komissiya tarkibi	7–9 kishi; advokat aʼzo uchun kamida 5 yil staj	7 kishi; staj 3 yil, ammo soʻnggi uch yilda intizomiy javobgarlikka tortilmagan boʻlishi shart
Intizomiy javobgarlik	"Muntazam" va "qoʻpol" buzish taʼriflanmagan	Ikkala tushuncha aniq taʼriflangan; qoʻpol buzishning uch holati sanab oʻtilgan
Litsenziya berish	Alohida ariza talab etilardi	Soʻrovnomadagi belgiga koʻra, davlat boji toʻlangach "Litsenziya" tizimi orqali avtomatik beriladi
Guvohnoma	Maqom toʻxtatilganda adliya organi guvohnomani jisman olib qoʻyar edi	Ushbu norma bekor qilingan

Jadvaldan koʻrinadiki, islohot uch yoʻnalishda natija berdi: talabgor huquqlari kuchaydi (asossiz rad etish taqiqlandi, ballarni oʻzgartirib boʻlmaydigan holga keltirildi), intizomiy sohada huquqiy aniqlik oshdi ("muntazam" va "qoʻpol" buzish taʼriflandi) hamda maʼmuriy yuk kamaydi. Adliya organlarining roli esa shu tariqa hujjat qabul qilish va tekshirishdan axborot tizimini yuritish va litsenziyani avtomatik rasmiylashtirishga koʻchdi – bu mazkur qoʻllanmaning I bobida bayon etilgan xulosaning amaldagi tasdigʻidir.

Institutsional baza: PF-80 va 171-son qaror

2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmon ijrosi doirasida adliya tizimidagi malaka oshirish muassasalari birlashtirilib, Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etildi. Institut Vazirlik qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar boʻyicha professional oʻqitish markazi, X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Sud ekspertlarining malakasini oshirish oʻquv markazi hamda Arxiv ishi va ish yuritish boʻyicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi negizida tashkil etilib, ularning huquqiy vorisi hisoblanadi. Institut faoliyati Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son qarori bilan batafsil tartibga solindi.

Amalga oshirilgan ijobiy oʻzgarishlar: tizimli umumlashtirish

Yuqorida bayon etilgan evolyutsiyani umumlashtirib, soʻnggi oʻn yilda adliya organlari ishtirokida erishilgan ijobiy natijalarni olti yoʻnalishda guruhlash mumkin.

1. Huquqiy bazaning zamonaviylashtirilishi. Advokatura sohasidagi qonunchilikka izchil oʻzgartishlar kiritildi, yangi qonun (OʻRQ-848) qabul qilindi, uning ijrosi uchun protsessual taʼminot yaratildi (OʻRQ-915), oʻnlab qonunosti hujjatlari yangilandi.

2. Kasbga kirishning soddalashtirilishi va demokratlashtirilishi. Guvohnoma berish tartibi elektron shaklga oʻtkazildi va muddatlari qisqartirildi.

3. Davlat hisobidan yuridik yordam tizimining yaratilishi. Moddiy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bepul malakali yuridik yordamning yaxlit, moliyaviy taʼminlangan, avtomatlashtirilgan tizimi shakllantirildi.

4. Sohaning raqamlashtirilishi. "Yuridik yordam" axborot tizimi yaratildi; advokatlarga koʻrsatiladigan xizmatlar elektron shaklga oʻtkazildi; maʼmuriy yuk kamaytirildi.

5. Advokat kafolatlarining kuchaytirilishi. Advokat soʻrovini koʻrib chiqish tartibi va muddatlari belgilandi, uning bajarilmasligi uchun javobgarlik mexanizmi yaratildi.

6. Kadrlar tayyorlash tizimining qayta qurilishi. Tarqoq malaka oshirish muassasalari yagona Institutga birlashtirildi; advokatura sohasi boʻyicha uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi joriy etildi.

Ushbu natijalarning umumiy mantiqi quyidagicha: adliya organlari faoliyatining ogʻirlik markazi maʼmuriy-nazorat funksiyalaridan taʼminlovchi va xizmat koʻrsatuvchi funksiyalarga koʻchdi. Bu oddiy vakolatlarning qisqarishi emas, aksincha, adliya organlari zimmasidagi vazifalar hajmi va murakkabligi oshdi, ammo ularning mazmuni oʻzgardi.

Advokatlar soni

T/r	Hudud nomi	2024-yil	2025-yil	2026-yil
1.	**Qoraqalpogʻiston R.**	229	242	290
2.	**Andijon vil.**	401	453	542
3.	**Buxoro vil.**	188	254	285
4.	**Jizzax vil.**	146	163	188
5.	**Qashqadaryo vil.**	333	355	412
6.	**Namangan vil.**	201	262	283
7.	**Navoiy vil.**	117	136	152
8.	**Samarqand vil.**	513	564	637
9.	**Sirdaryo vil.**	131	149	169
10.	**Surxondaryo vil.**	159	199	224
11.	**Xorazm vil.**	221	251	288
12.	**Fargʻona vil.**	433	456	511
13.	**Toshkent vil.**	399	454	496
14.	**Toshkent shahri**	2697	3 267	3359
Jami:		**6 168**	**7 205**	**7 836**

Maʼlumot uchun: 2017-yil 3946, 2018-yil 3944, 2019-yil 3919, 2020-yil 4125, 2021-yil 4211, 2022-yil 4577, 2023-yil 5219, 2024-yil 6017 nafarni tashkil etgan.

Advokatlik tuzilmalari

T/r	Advokatlik tuzilmasi turi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil
1.	Byuro	1 559	1 828	2 283	2 876	3 538	4 503
2.	Firma	418	435	455	478	525	583
3.	Hayʼat	74	73	74	75	75	80
Jami:		**2 051**	**2 336**	**2 812**	**3 429**	**4 138**	**5 166**

I bob boʻyicha nazorat savollari

1. Malakali yuridik yordam olish huquqining negativ va pozitiv jihatlari nimalardan iborat?
2. Konstitutsiyaning 141-moddasi advokatura maqomiga qanday oʻzgarish kiritdi?
3. Advokatura mustaqilligi "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida"gi Qonunning qaysi moddalarida ifoda topgan?
4. Davlat va advokatura munosabatlarining uchta modelini taʼriflang va Oʻzbekistonning hozirgi holatiga taʼrif bering.
5. Adliya organlarining advokatura sohasidagi vakolatlari qanday toʻrt guruhga ajratiladi? Har biriga misol keltiring.
6. Rasmiylashtiruvchi vakolatlarning diskretsion emasligi nimani anglatadi va buning amaliy ahamiyati nimada?
7. Adliya organlarining advokaturani taʼminlash faoliyati samaradorligini baholashning besh mezonini sanab oʻting.
8. Mazkur sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasining besh darajasini aytib bering.
9. 1994–2008-yillardagi modelda adliya organlari qanday vakolatlarga ega boʻlgan?
10. Advokatlar palatasining taʼsis etilishi vakolatlarni qayta taqsimlashda nima uchun zarur shart boʻldi?
11. PF-5441-son Farmon yuridik xizmatlar bozoriga qanday oʻzgarish kiritdi?
12. OʻRQ-497-son Qonun advokat soʻrovi institutiga nima berdi va bu adliya organlari oldiga qanday vazifa qoʻydi?
13. 2025-yilgi malaka komissiyalari islohotining mazmuni va ahamiyati nimada?
14. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti qaysi muassasalar negizida va qaysi hujjat asosida tashkil etilgan?
15. Soʻnggi oʻn yilda erishilgan ijobiy oʻzgarishlarning olti yoʻnalishini sanab oʻting.

II BOB. ADLIYA ORGANLARINING HUQUQIY, INSTITUTSIONAL VA RESURS TA'MINOTI

2.1-§. Norma ijodkorligi va huquqiy ekspertiza orqali ta'minlash

Adliya vazirligi davlat huquqiy siyosatini amalga oshiruvchi organ sifatida qonun loyihalarini tayyorlash va huquqiy ekspertizadan o'tkazish vazifasini bajaradi. Advokatura sohasida ushbu vazifa alohida mas'uliyat talab qiladi, chunki bu yerda norma ijodkorligining sifati bevosita fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi amalga oshishiga ta'sir ko'rsatadi.

Norma ijodkorligi faoliyatining sohaga oid natijalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonun loyihasining tayyorlanishi; ushbu qonun qabul qilinishi munosabati bilan bir qator kodekslar va qonunlarga o'zgartishlar kiritish haqidagi qonun loyihasining ishlab chiqilishi; advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risidagi nizom (Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-iyundagi 226-son qarori); davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizom (Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi 774-son qarori); Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizom (adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug'i) va b.

Ushbu ro'yxatning tahlili muhim kuzatuvni beradi: sohadagi qonunosti normalarining asosiy qismi so'nggi uch yil ichida qabul qilingan. Bu, bir tomondan, sohaning jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi; ikkinchi tomondan, huquqni qo'llovchi uchun jiddiy yuk yaratadi, normalar tez yangilanganda ularni o'zlashtirib borish alohida sa'y-harakat talab qiladi.

Norma ijodkorligida ikki metodologik talabga rioya etish zarur. Birinchisi, advokatura hamjamiyati bilan maslahatlashish. Advokatura faoliyatiga daxldor normalarni ushbu faoliyatni ichkaridan bilmagan holda ishlab chiqish amaliyotda ishlamaydigan normalar yaratilishiga olib keladi. Ikkinchisi, regulyatsiyaga oid ta'sirni baholash: har bir yangi norma advokat zimmasiga qanday yuk yuklaydi va bu yuk ko'zlangan maqsadga mutanosibmi, degan savol oldindan hal etilishi lozim.

Ushbu yo'nalishda istiqbolli shakllardan biri Adliya vazirligi va Advokatlar palatasi o'rtasidagi doimiy faoliyat yurituvchi qo'shma

ishchi guruh yoki konsultativ kengash tuzish boʻlib, u qonun loyihalarini dastlabki bosqichdayoq birgalikda muhokama qilish imkonini beradi. Ushbu taklif IV bobda batafsil asoslab berilgan.

Adliya organlarining idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazish vakolati advokatura nuqtai nazaridan koʻpincha eʼtibordan chetda qoladi, holbuki uning ahamiyati katta. Davlat roʻyxatidan oʻtkazish jarayonida hujjat qonunga muvofiqligi, shu jumladan u fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini asossiz cheklamasligi nuqtai nazaridan tekshiriladi.

Amaliyotda idoraviy hujjatlar orqali advokat faoliyatiga bilvosita toʻsiqlar yaratilishi mumkin: masalan, muayyan organga kirish tartibi, hujjatlar bilan tanishish tartibi, axborot berish tartibi toʻgʻrisidagi hujjatlarda advokat maqomi hisobga olinmasligi mumkin. Adliya organlari huquqiy ekspertiza bosqichida bunday normalarni aniqlash va bartaraf etish imkoniyatiga ega.

Ushbu funksiyaning samarali amalga oshirilishi uchun adliya organlari xodimlari advokatlik faoliyatining oʻziga xos jihatlarini, advokat vakolatlari va kafolatlari tizimini yaxshi bilishlari talab etiladi. Bu – qoʻllanmaning mazkur toifadagi oʻquvchilar uchun amaliy ahamiyatining yana bir dalili.

2.2-§. Advokatlik kasbiga kirish va tuzilmalarni rasmiylashtirish: tartib va amaliyot

Kasbga kirish – adliya organlari va advokatura munosabatlarining tarixan eng sezgir nuqtasi. Aynan shu masalada 2025-yilda hal qiluvchi islohot amalga oshirildi. Quyida amaldagi tartib, islohotning mazmuni va adliya organlarida saqlanib qolgan vakolatlar ketma-ket koʻrib chiqiladi.

Advokat maqomiga ega boʻlish shartlari va guvohnomani berish tartibi

“Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasida oliy yuridik maʼlumotga ega boʻlgan va belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shugʻullanish huquqini olgan Oʻzbekiston Respublikasining fuqarosi advokat boʻlishi mumkin. Talabgor advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosida, advokatlik firmasida, advokatlar hayʼatida, yuridik maslahatxonada) kamida uch oy muddat stajirovka oʻtashi hamda malaka imtihonini topshirishi shart.

Advokatlik guvohnomasini berish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-iyundagi 226-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi. Nizomga koʻra, talabgor advokatlik guvohnomasini

olish uchun “Yuridik yordam” elektron axborot tizimi orqali Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar yoki Toshkent shahar adliya boshqarmasiga murojaat qiladi; adliya organi arizani ikki ish kuni ichida koʻrib chiqib, talabgorga advokatlik guvohnomasini beradi; guvohnoma berilganligi toʻgʻrisida axborot tizimi orqali Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasiga xabarnoma yuboriladi.

Nizomda, shuningdek, advokatlik guvohnomasini berishni rad etish asoslari va tartibi hamda guvohnomani qayta rasmiylashtirish asoslari va tartibi belgilangan. Hujjatlar aylanishi ham elektron shaklga oʻtkazilgan: advokat bir advokatlik tuzilmasidan boshqasiga qabul qilingan boʻlsa, bir ish kuni ichida bu haqda guvohnoma bergan adliya organiga axborot tizimi orqali xabarnoma yuboradi, adliya organi esa xabarnomani olgandan keyin bir ish kuni ichida axborot tizimiga advokatning ish joyi oʻzgarganligi haqidagi maʼlumotni kiritadi.

Ushbu tartibning ikki xususiyatiga eʼtibor qaratish lozim. Birinchidan, muddatlar juda qisqa – ikki ish kuni. Bu adliya organining rolini minimal maʼmuriy toʻsiq bilan rasmiylashtirishga qaratilganini koʻrsatadi. Ikkinchidan, barcha muomala axborot tizimi orqali amalga oshiriladi, yaʼni jarayon raqamlashtirilgan va kuzatilishi mumkin.

Guvohnomaning huquqiy ahamiyati shundaki, “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiq advokat maqomi toʻxtatib turilganda yoki tugatilganda advokatlik guvohnomasidan foydalanish taqiqlanadi. Demak, guvohnoma advokat maqomining amaldagi holatini tasdiqlovchi hujjat.

2025-yilgi islohot: malaka komissiyalari

Adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrugʻi bilan Oʻzbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari toʻgʻrisidagi nizom tasdiqlandi (roʻyxat raqami 3637, 2025-yil 7-iyul). Adliya organlari huzuridagi malaka komissiyalari toʻgʻrisidagi avvalgi nizom 2025-yil 10-oktyabrdan oʻz kuchini yoʻqotdi.

Yangi Nizomga koʻra, malaka komissiyalari Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzurida tashkil etiladi va oʻz faoliyatida Oʻzbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga, advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplariga va Advokatning kasb etikasi qoidalariga qatʼiy rioya etadi. Komissiyalar zimmasiga, jumladan, advokatlik faoliyatining kafolatlari va himoyasini, advokatning daxlsizligini, advokat faoliyatiga aralashmaslikni taʼminlash hamda Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka

komissiyasining qarorlarini ijro etish vazifalari yuklatilgan. Nizomda malaka imtihonida ishtirok etish tartibiga oid alohida bob mavjud; komissiyaning ishini yuritish uchun hududiy boshqarma rahbari tomonidan yuridik maʼlumotga ega boʻlgan masʼul kotib tayinlanadi.

Nizom xalqaro standartlarga, ya’ni kasbga qabul qilish va kasbiy intizom kasbiy hamjamiyatga tegishli boʻlishi lozimligi haqidagi yondashuvga toʻliq muvofiq keladi. U advokatura hamjamiyatining institutsional masʼuliyatini oshiradi: kasbga kimni qabul qilish va kasbiy standartlarni qanday belgilash hamjamiyatning oʻz ishidir.

Ayni paytda islohot advokatura hamjamiyati oldiga jiddiy vazifalar qoʻyadi: malaka imtihonlarining xolisligi va yuqori standartini taʼminlash, komissiyalar faoliyatining shaffofligini yoʻlga qoʻyish, korrupsion xatarlarning oldini olish. Ushbu vazifalarning qanday hal etilishi islohotning uzoq muddatli muvaffaqiyatini belgilaydi.

Bu borada adliya organlarida saqlanib qolgan vakolatlar

Islohot adliya organlarini kasbga kirish jarayonidan butunlay chetlashtirgani yoʻq. Ularda quyidagi vakolatlar saqlanib qoldi:

– Advokatlik guvohnomasini rasmiylashtirish – Vazirlar Mahkamasining 226-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda belgilangan tartibda.

– Yagona axborot tizimini yuritish – advokatlar va advokatlik tuzilmalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni kiritish, yangilash va saqlash.

– Malaka komissiyalari faoliyatiga oid nizomni tasdiqlash va uni davlat roʻyxatidan oʻtkazish – eʼtibor bering, yangi Nizom ham aynan adliya vazirining buyrugʻi bilan tasdiqlangan. Demak, kasbga kirish sohasidagi huquqiy tartibga solish vakolati davlatda qoldi, amalga oshirish vakolati esa kasbiy hamjamiyatda.

– Intizomiy sohada taqdimnoma kiritish.

Ushbu taqsimot nazariy jihatdan mukammal shaklga ega: davlat “oʻyin qoidalarini” belgilaydi va ularning qonunga muvofiqligini taʼminlaydi, kasbiy hamjamiyat esa ushbu qoidalar doirasida oʻz aʼzolarini tanlaydi. Ushbu model Germaniya, Fransiya va Rossiya kabi davlatlarda qoʻllaniladigan yondashuvlarga yaqin.

Advokatlik guvohnomalari

T/r	Yillar kesimi	Chop etilgan	Ariza rad etilgan
1.	2023-yil	4 180 ta	62 ta
2.	2024-yil	2 089 ta	48 ta
3.	2025-yil	1 579 ta	55 ta
4.	2026-yil	1 072 ta	43 ta

Guvohnoma berish va berishni rad etish amaliyoti

Guvohnoma berish tartibi formal jihatdan oddiy: talabgor axborot tizimi orqali murojaat qiladi, adliya organi ikki ish kuni ichida koʻrib chiqadi va guvohnoma beradi. Amaliyotda esa bir qator masalalar yuzaga kelishi mumkin.

Amaliyotda advokatlik guvohnomasi olish uchun berilgan arizalarni rad etish holatlari muayyan darajada uchrab turadi. Ushbu holatlarning eng asosiy sabablaridan biri advokat maqomini olishga da’vogar shaxslarning biror-bir advokatlik tuzilmasiga a’zo boʻlmasdan yoki mustaqil ravishda advokatlik tuzilmasini tashkil etmasdan turib, guvohnoma olish uchun ariza berishlaridir.

Advokatlik guvohnomasini rasmiylashtirishning asosiy talablaridan biri shundan iboratki, advokat maqomini birinchi marta olayotgan shaxs (yoki allaqachon ushbu maqomga ega boʻlgan advokat) muayyan advokatlik tuzilmasi tarkibida faoliyat yuritishi lozim. Bunday talabning huquqiy asosi shundaki, guvohnomaning maxsus QR kodida advokatning kasbiy faoliyatiga oid barcha zarur ma’lumotlar aks ettirilishi shart boʻlib, bu ma’lumotlarni faqat tegishli advokatlik tuzilmasi bilan bogʻliqlik asosida shakllantirish mumkin.

Shuningdek, amaliyotda yana bir muhim holat kuzatiladi: advokatlik guvohnomasini olish uchun ariza bergan shaxsning ariza taqdim etilgan vaqtda mehnat shartnomasi asosida, shtat birligida turgan holda haq toʻlanadigan boshqa faoliyat turi bilan shugʻullanayotganligi aniqlansa, bunday holatda ham unga advokatlik guvohnomasini berish rad etiladi. Ushbu qoidaning mohiyati advokatlik faoliyatining mustaqil va boshqa mehnat munosabatlaridan xoli boʻlishi lozimligi tamoyiliga asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, advokatlik guvohnomasini rad etishning yuqorida koʻrsatilgan asosiy sabablari qonun hujjatlarida belgilangan quyidagi ikki muhim talab bilan bevosita bogʻliq:

Tuzilmaviy a’zolik talabi — arizachining biror-bir advokatlik tuzilmasiga a’zo boʻlishi yoki mustaqil tuzilma tashkil etishi;

Faoliyat mustaqilligi talabi — arizachining boshqa haq toʻlanadigan, shtatdagi mehnat faoliyati bilan shugʻullanmasligi.

Statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan boʻlsak, hududiy adliya organlari tomonidan 2023-yilda 62 ta holatda, 2024-yilda 48 ta holatda hamda 2025-yilda esa 55 ta holatda advokatlik guvohnomasi uchun berilgan arizalar rad etilgan.

Rad etish asoslarining qat’iyligi

Guvohnoma berishni rad etish asoslari Vazirlar Mahkamasining 226-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda belgilangan. Ushbu roʻyxat qat’iy (tugallangan) hisoblanadi: unda nazarda tutilmagan

asoslarga koʻra rad etish gʻayriqonuniy. Amaliyotda "maqsadga muvofiq emas", "shubha tugʻdiradi" kabi asoslar bilan rad etish holatlari uchrasa, ular qonunga zid hisoblanadi va ustidan shikoyat qilinishi mumkin.

Guvohnomani qayta rasmiylashtirish

Ish joyining oʻzgarishi, shaxsiy maʼlumotlarning oʻzgarishi, guvohnomaning yoʻqolishi kabi hollarda qayta rasmiylashtirish talab etiladi. Amaliyotda ushbu jarayonning soddaligi va tezkorligi muhim: advokatning bir tuzilmadan boshqasiga oʻtishi kasbiy faoliyatning tabiiy holati boʻlib, u maʼmuriy toʻsiq bilan qiyinlashtirilmasligi kerak. Amaldagi tartibda bu bir ish kunida hal etiladi, bu yaxshi koʻrsatkich hisoblanadi. Umuman olganda adliya organlari hatto ushbu qisqa muddatni yanada qisqartirib, tezkorlik bilan guvohnomalarni yetkazib bermoqda.

Advokatlik tuzilmalarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish va tashkiliy koʻmak

"Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunda advokatlik faoliyatini tashkil etishning 4 ta shakli nazarda tutilgan. Advokatlik byurosi – advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshirish uchun advokat tomonidan taʼsis etilgan, notijorat tashkiloti boʻlgan advokatlik tuzilmasidir. Advokatlik firmasi va advokatlar hayʼati esa jamoaviy shakllar boʻlib, advokatlar hayʼati tarkibidagi aʼzolar soni oʻntadan kam boʻlmasligi kerak. Advokatlar hayʼatining taʼsis shartnomasida muassislar hayʼatga mol-mulkini oʻtkazish shartlari, uning faoliyatida ishtirok etish tartibi, yangi aʼzolarni qabul qilish va tarkibdan chiqish tartibi, muassislar (aʼzolar)ning huquq va majburiyatlari belgilanadi. Yuridik maslahatxona – advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tashkil etiladigan va yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan advokatlik tuzilmasi.

Advokatlik firmasi va advokatlar hayʼati Oʻzbekiston Respublikasi hududida hamda chet davlatlarda ushbu davlatlarning qonunchiligiga muvofiq oʻzining alohida boʻlinmalarini (vakolatxonalari va filiallarini) tashkil etishga haqli. Bunda advokatlik firmasi va advokatlar hayʼati alohida boʻlinmani ochish toʻgʻrisidagi qarori haqida adliya organini oldindan xabardor qiladi.

Ushbu normadan adliya organlarining ikki vazifasi kelib chiqadi: advokatlik tuzilmalarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish hamda ularning tizimli hisobini yuritish. Hisobning toʻliqligi va dolzarbligi amaliy ahamiyatga ega: u aholiga qaysi hududda qanday yuridik yordam infratuzilmasi mavjudligi haqida maʼlumot beradi, davlat hisobidan yuridik yordam tizimini rejalashtirishda foydalaniladi, sohadagi holat tahlilining asosini tashkil etadi.

Ushbu yoʻnalishdagi faoliyatning sifat mezoni roʻyxatdan oʻtkazish tartibining soddaligi va tezkorligi. Har bir qoʻshimcha hujjat, har bir qoʻshimcha kun advokatlik tuzilmasini tashkil etishni qiyinlashtiradi va pirovardida aholining yuridik yordamga erishish imkoniyatini kamaytiradi. Yuqorida qayd etilgan V.X.Davlyatov dissertatsiyasida advokatlik tuzilmalarini davlat roʻyxatidan oʻtkazganlik uchun toʻlanadigan davlat boji stavkalari qonunosti hujjatlari bilan emas, toʻgʻridan-toʻgʻri qonun darajasida belgilanishi zarurligi asoslab berilgan edi – bu ham aynan ushbu mantiqdan kelib chiqadi: tuzilma tashkil etish shartlari barqaror va oldindan koʻriladigan boʻlishi kerak.

Tashkiliy koʻmak yoʻnalishida adliya organlari, shuningdek, advokatlik tuzilmalarini qonunchilikdagi oʻzgarishlar haqida xabardor qilish, ularga uslubiy tavsiyalar berish, hududlarda yuridik yordam infratuzilmasini kengaytirishga koʻmaklashish imkoniyatiga ega.

Ushbu yoʻnalishda amaliyotda uchraydigan asosiy masalalar quyidagilar.

Taʼsis hujjatlarining mazmuniga qoʻyiladigan talablar

Advokatlar hayʼatining taʼsis shartnomasida qonunda belgilangan barcha masalalar: mol-mulkni oʻtkazish shartlari, faoliyatda ishtirok etish tartibi, yangi aʼzolarni qabul qilish va tarkibdan chiqish tartibi va shartlari, muassislar (aʼzolar)ning huquq va majburiyatlari yoritilishi shart. Amaliyotda ushbu masalalardan ayrimlarining tushirib qoldirilishi uchraydi, bu esa keyinchalik ichki nizolarga sabab boʻladi. Adliya organining hujjatlarni tekshirishi shu bois nafaqat formal, balki profilaktik ahamiyatga ham ega.

Umuman, bugungi kunda adliya organlari advokatlik tuzilmalarining tashkiliy-huquqiy faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ijobiy yangiliklar qilishlari mumkin. Ularni tugatish, oʻzgartirish, vorislik, boshqaruv, soliqqa tortish masalalarida hali qilinishi kerak boʻlgan ishlar mavjud.

Aʼzolar soniga qoʻyilgan talab

Advokatlar hayʼati tarkibidagi aʼzolar soni oʻntadan kam boʻlmasligi kerak. Amaliyotda hayʼat faoliyat yuritish jarayonida aʼzolar soni belgilangan miqdordan kamayib ketishi holatlari uchrashi mumkin, bu tabiiy holat. Bunday vaziyatda tuzilmani darhol tugatish emas, balki kamchilikni bartaraf etish uchun oqilona muddat berish maqsadga muvofiqdir.

Alohida boʻlinmalar ochish

Advokatlik firmasi va advokatlar hayʼati alohida boʻlinma (vakolatxona, filial) ochish toʻgʻrisidagi qarori haqida adliya organini oldindan xabardor qiladi. Eʼtibor bering: qonunda “ruxsat oladi” emas, “xabardor qiladi” deb belgilangan. Demak, bu ruxsat berish

emas, xabardor qilish tartibi adliya organi alohida bo‘linma ochishni taqiqlash vakolatiga ega emas.

Advokatlik byurosi va turar joy masalasi

Amaliyotda uzoq vaqt munozarali bo‘lgan masala, advokatlik byurosini ta’sis etgan advokat o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli turar joyda faoliyat yuritishi mumkinmi, buni noturar joy toifasiga o‘tkazish talab etiladimi. Yuqorida qayd etilgan V.X.Davlyatov dissertatsiyasida bunday o‘tkazish talab etilmasligi asoslab berilgan va ushbu taklifdan “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishda foydalanilgan. Ushbu misol ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga bevosita tatbiq etilishiga yaxshi namunadir.

Qonun loyihasi kasbga kirish tartibiga qanday o‘zgarish kiritmoqda

2025-yil sentyabr oyida muhokamadan o‘tgan qonun loyihasi advokatlik kasbiga kirish shartlarini bir qator jihatdan o‘zgartirishni nazarda tutadi. Birinchidan, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasi birinchi qismidagi “Oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan” degan so‘zlar “Tayanch oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan” degan so‘zlar bilan almashtirilishi taklif etilmoqda. Bu ta’lim tizimidagi yangi bosqichlarga muvofiqlashtirishni anglatadi. Ikkinchidan, 3^1-modda yangi tahrirda bayon etilib, kamida uch yil yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajiga ega bo‘lgan shaxs stajirovkadan o‘tmasdan malaka imtihonida ishtirok etishga haqli bo‘lishi belgilanmoqda. Uchinchidan, 8-modda yangi tahririda oliy ta’lim tashkilotlari bakalavr bosqichida yurisprudensiya yo‘nalishida tahsil olayotgan bitiruvchi kurs talabasi o‘qishdan bo‘sh vaqtda advokat yordamchisi bo‘lishi mumkinligi nazarda tutilmoqda.

Ushbu o‘zgarishlar adliya organlari faoliyati uchun bevosita amaliy oqibatlarga ega. Stajirovkadan ozod qilish instituti joriy etilsa, guvohnoma berish bosqichida talabgorning ish stajini tasdiqlovchi ma’lumotlarni tekshirish zarurati tug‘iladi; talaba-yordamchilar instituti esa advokatlik tuzilmalari hisobini yuritishda yangi toifani hisobga olishni talab qiladi. Loyihada, shuningdek, litsenziya bilan bog‘liq vakolatlar aniqlashtirilmoqda: 13^1-moddada “malaka komissiyalarining” degan so‘zlar “advokatga advokatlik guvohnomasini bergan adliya organining” degan so‘zlar bilan almashtirilishi, 15-moddada esa litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish vakolati malaka komissiyasi yoki Oliy malaka komissiyasiga o‘tkazilishi va bunday qaror ustidan Oliy malaka komissiyasiga yoxud sudga shikoyat qilish imkoniyati mustahkamlanishi taklif etilmoqda. 16-modda tahririda litsenziyaning amal qilishini tugatish ma’muriy sud tomonidan malaka komissiyasining xulosasi asosida, guvohnoma

bergan adliya organining yoki Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasining murojaatiga koʻra amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Ushbu normalarning umumiy mantigʻi mazkur qoʻllanmaning I bobida bayon etilgan xulosani tasdiqlaydi: kasbiy baholash va intizomiy hal qiluv kasbiy hamjamiyatga, rasmiylashtirish va hisob yuritish esa adliya organlariga tegishli boʻlib bormoqda, sud nazorati esa har ikki tomon qarorlari ustidan saqlanib qolmoqda.

Malaka darajasi berish institutini joriy etish toʻgʻrisidagi taklif

Kasbga kirish va kasbiy oʻsish masalasida, fikrimizcha, bugungi tartibga solishda yana bir boʻshliq mavjud. Adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari toʻgʻrisidagi nizomning (roʻyxat raqami 3637) 2, 6 va 21-bandlarida malaka komissiyalari tomonidan advokatga malaka darajasi berish va uni bekor qilish haqidagi normalar nazarda tutilgan; shunga oʻxshash normalar avvalgi nizomda ham mavjud edi. Biroq amalda advokatga malaka darajasi berish amaliyoti shakllanmagan.

Ushbu holat huquqni qoʻllashdagi xos muammoni koʻrsatadi: qonunosti hujjatida nazarda tutilgan institut qonun darajasida mustahkamlanmagani sababli ishlamay qolmoqda. Malaka komissiyalarining vakolatlari "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunning 13-moddasida sanab oʻtilar ekan, unda malaka darajasi berish tilga olinmagan; natijada idoraviy norma ijro mexanizmidan mahrum.


Masalaning amaliy tomoni ham eʼtiborga molik. Boshqa yuridik kasblar vakillariga va davlat xizmatchilariga turli shakldagi malaka darajasi berish amaliyoti mavjud. Advokat esa avval prokuror, sudya yoki tergovchi boʻlib ishlagan boʻlishi yoxud keyinchalik shunday faoliyatga oʻtishi mumkin, biroq uning advokatlik davrida erishgan kasbiy darajasi, masalan, sudyalikka yoki adliya organiga ishga oʻtishda obyektiv koʻrsatkich sifatida hisobga olinmaydi. Bu yuridik kasblar oʻrtasidagi kadrlar harakatchanligini sunʼiy ravishda cheklaydi va advokatlik faoliyatining nufuziga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi taklifni ilgari suramiz:

"Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunning 13-moddasi birinchi qismidagi "advokat qasamyodini qabul qilish" degan soʻzlardan keyin ", advokatga malaka darajasi berish" degan soʻzlar bilan toʻldirilsin.

Ushbu taklif qabul qilingan taqdirda, advokatga malaka darajasi berish, uni bekor qilish va boshqa yuridik kasblarga oʻtishda hisobga olish qoidalarini ishlab chiqish hamda ularni malaka komissiyalari toʻgʻrisidagi nizomda batafsil aks ettirish vazifasi adliya organlarining

idoraviy norma ijodkorligi doirasida hal etiladi. Bu qo‘llanmaning 2.1-paragrafida bayon etilgan norma ijodkorligi funksiyasining amaldagi ifodalaridan biri bo‘ladi.



2.3-§. Advokatlik faoliyati kafolatlari, advokat so‘rovi va intizomiy taqdimnoma

“Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonun advokat maqomining himoya qobig‘ini tashkil etuvchi normalar tizimini belgilaydi. Mazkur kafolatlarning har biri adliya organlari faoliyati bilan u yoki bu darajada bog‘liqdir.

Advokatning mustaqilligi va faoliyatga aralashmaslik

Qonunning 5-moddasi advokatning mustaqilligini ta’minlashga, 7-moddasi esa advokatlik faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligiga bag‘ishlangan. “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunda, shuningdek, advokatning ish yuzasidan huquqiy nuqtai nazari xususida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emasligi mustahkamlangan. Ushbu norma advokatning kasbiy pozitsiyasi uchun ta’qib qilinmasligi kafolatining aniq ifodasidir.

Advokatning daxlsizligi

Qonunning 6-moddasiga ko‘ra, advokatning shaxsi daxlsiz bo‘lib, daxlsizlik uning uy-joyiga, xizmat xonasiga, foydalanishidagi transporti va aloqa vositalariga, xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga ham taalluqlidir. Advokatga nisbatan jinoyat ishi O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. Advokatni yuridik va jismoniy shaxslarga qonunga muvofiq yuridik yordam ko‘rsatganligi munosabati bilan jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki bunday javobgarlikka tortish bilan tahdid qilish mumkin emas.

Advokatlik siri

"Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunga muvofiq advokat advokatlik sirini saqlashi shart. Advokatlik siri jumlasiga ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) advokatdan yordam soʻrab murojaat etganligining oʻzi, murojaat etilgan masalalar va yuridik yordam koʻrsatish jarayonida maʼlum boʻlgan boshqa maʼlumotlar kiradi. Kafolatlar toʻgʻrisidagi Qonunda esa advokatdan, uning yordamchisidan va stajyoridan advokatlik siri predmeti hisoblangan holatlar toʻgʻrisida biron-bir tushuntirish yoki koʻrsatuvlar berishni talab qilish, shuningdek ular haqida tezkor-qidiruv faoliyatida, jinoyat ishlari, maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ishlar va boshqa ishlarni yuritishda foydalanish uchun biron-bir material taqdim etishni talab qilish man etilishi belgilangan.

Davlat bilan advokatura oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar

Qonunning 12-moddasi mazkur qoʻllanma mavzusining bevosita normativ ifodasidir. Ushbu moddaning mavjudligi davlat va advokatura munosabatlarining qonun chiqaruvchi tomonidan alohida tartibga solish predmeti sifatida eʼtirof etilganini koʻrsatadi.

Ushbu kafolatlarni taʼminlashda adliya organlarining roli uch shaklda namoyon boʻladi. Birinchisi, huquqiy targʻibot va oʻqitish: davlat organlari xodimlarini advokat kafolatlari va ulardan kelib chiquvchi majburiyatlar yuzasidan xabardor qilish. Ikkinchisi, norma ijodkorligi: kafolatlarni buzishga yoʻl ochadigan yoki ularni hisobga olmaydigan idoraviy normalarning oldini olish. Uchinchisi, monitoring va chora koʻrish: kafolatlar buzilishi holatlari yuzasidan tegishli organlarga murojaat qilish va masalani kun tartibiga qoʻyish.

Advokat soʻrovi – advokatning yuridik yordam koʻrsatish uchun zarur maʼlumot va hujjatlarni davlat organlari, yuridik shaxslar va boshqa tashkilotlardan talab qilib olish huquqini ifodalovchi rasmiy murojaatidir. Ushbu institut advokat vakolatlarining amaliy samaradorligini belgilovchi asosiy vositalardan biridir: dalil toʻplay olmaydigan advokat himoyani sifatli amalga oshira olmaydi.

2018-yil 11-oktyabrdagi OʻRQ-497-son Qonungacha advokat soʻrovini koʻrib chiqish tartibi va muddatlari belgilanmagan edi, bu esa amaliyotda soʻrovlarga eʼtibor berilmasligi holatlariga yoʻl ochar edi. Mazkur Qonun bilan "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunga va Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritilib, soʻrovni koʻrib chiqish tartibi va muddatlari belgilandi hamda uni bajarmaslik uchun javobgarlik mexanizmi yaratildi.

Adliya organlarining ushbu sohadagi roli bilvosita, ammo ahamiyatli. Ular, birinchidan, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarini advokat soʻroviga javob berish majburiyati yuzasidan oʻqitadi va xabardor qiladi – bu ayniqsa Institut orqali malaka oshirish dasturlari doirasida samarali amalga oshirilishi mumkin. Ikkinchidan, ular norma ijodkorligi va huquqiy ekspertiza orqali soʻrovga javob berish tartibini aniqlashtiradi. Uchinchidan, tizimli buzilish holatlari aniqlanganda masalani idoralararo darajada koʻtarish imkoniyatiga ega.

Istiqbolli yoʻnalish advokat soʻrovlarini elektron tarzda yuborish va ularning ijrosini raqamli monitoring qilish tizimini joriy etishdir. Bunday tizim soʻrovning yuborilgan vaqti, olingan vaqti, javob berilgan yoki berilmagan vaqtini obyektiv qayd etadi va statistik tahlil uchun asos yaratadi. Ushbu taklif IV bobda batafsil yoritilgan.

Advokat soʻroviga javob berilmasligi holatlarida koʻriladigan choralar amaliyoti

Advokat soʻroviga javob berilmasligi amaliyotda eng koʻp uchraydigan va advokatlar tomonidan eng koʻp qayd etiladigan muammolardan biridir. Ushbu muammoning tipologiyasini quyidagicha tuzish mumkin:

– Umuman javob berilmasligi – soʻrov eʼtiborsiz qoldiriladi.

– Muddat oʻtkazib javob berilishi – javob keladi, ammo u protsessual jihatdan foydasiz boʻlib qoladi.


– Mazmunan javob berilmasligi – rasmiy javob keladi, ammo unda soʻralgan maʼlumot yoʻq.

– Asossiz rad etish – maʼlumot “ichki foydalanish uchun”, “sir” yoki shunga oʻxshash umumiy asoslar bilan berilmaydi.

Har bir holatda huquqiy baho va chora turlicha boʻladi. Umuman javob berilmasligi va muddat oʻtkazib yuborish qonunda belgilangan majburiyatning bajarilmasligi boʻlib, OʻRQ-497-son Qonun bilan joriy etilgan javobgarlik mexanizmi qoʻllanilishi mumkin. Mazmunan javob berilmasligi – koʻpincha soʻrovning noaniq taʼriflanishi bilan ham bogʻliq boʻlishi mumkin, shu bois bu yerda ikki tomonlama tahlil zarur. Asossiz rad etish esa huquqiy baho talab qiladi: maʼlumotning cheklangan toifaga kiritilishi qonunda belgilanganmi, yoki bu mansabdor shaxsning oʻz talqinidir.

Advokat soʻrovlari xuddi fuqarolar murojaatlari kabi har doim ham yaxshi oʻrganilmaydi va eʼtibor qaratilmaydi. Adliya organlarining mazkur borada ham advokatlarga yordamlashishi ehtiyoji paydo boʻlmoqda. Amaliy muammo shundan iboratki, MJtKning 197^1-moddasi boʻyicha advokat sudga ariza berganda sud maʼmuriy javobgarlikka tortiladigan shaxsning shaxsiga oid maʼlumotlarni soʻraydi. Mazkur maʼmuriy tartibni soddalashtirish

kerak deb hisoblaymiz, sababi har doim ham advokatda bunday shaxsga doir ma’lumotlar mavjud bo‘lmaydi.



Advokat so‘rovlarini ijro etishda amaliyotda duch kelingan muammolar
(Bir nechta javob belgilash mumkin)

So‘rovda qatnashgan 47 ta advokatning 22 tasi (46,8%) rasmiy javob kelgani, ammo so‘ralgan ma’lumot berilmaganini, 20 tasi (42,6%) javob muddati o‘tkazib yuborilganini, 17 tasi (36,2%) ma’lumot uchun haq to‘lash talab qilinganini bildirgan. Yana 13 tasi (27,7%) umuman javob olmagan, 12 tasi (25,5%) so‘rovi “ichki foydalanish uchun” degan asos bilan rad etilgan. Jiddiy muammoga duch kelmaganini 12 ta (25,5%) advokat ko‘rsatgan.

Hozirgi bosqichda adliya organlari advokatlarga shaxsga doir ma’lumotlarni olish va sudga taqdim qilishda ko‘mak berishi mumkin, faqat buning uchun ham huquqiy asosi yaratilishi kerak.

Adliya organlari uchun muammo esa ushbu sohada obyektiv ma’lumotning yo‘qligi asosiy to‘siqdir: so‘rovlar qog‘oz shaklida yuborilganda, ularning ijrosi statistik kuzatilmaydi. Aynan shu bois advokat so‘rovlarini elektron yuborish va monitoring qilish tizimini

joriy etish nafaqat qulaylik, balki boshqaruv vositasidir. Albatta, bu elektron advokat soʻrovi ixtiyoriydir va ixtiyoriy boʻlishi ham kerak. Istagan advokat soʻrovni qogʻoz shaklida berish imkoni albatta saqlanishi kerak. Bu advokatlik sirini saqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Qonun loyihasida advokat vakolatlari va kafolatlarining kengaytirilishi

Muhokamadan oʻtgan qonun loyihasi advokat vakolatlari va kafolatlarini sezilarli darajada kengaytirishni nazarda tutadi. Ushbu oʻzgarishlar adliya organlari faoliyatiga bevosita aloqador.

Advokat soʻrovi instituti boʻyicha loyihada bir nechta yangilik mavjud. "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunning 6-moddasi birinchi qismi toʻrtinchi xatboshisidagi "olish" degan soʻz "bepul olish" degan soʻzlar bilan almashtirilishi taklif etilmoqda, yaʼni soʻrov boʻyicha maʼlumot olish bepul ekani qonun darajasida mustahkamlanmoqda. Oltinchi xatboshi yangi tahrirda ishga taalluqli axborotdan xabardor boʻlgan shaxslarni soʻrovdan oʻtkazish va ushbu jarayonda ularning roziligi bilan audio- va videoyozuvdan foydalanish, shuningdek yozma tushuntirish olish huquqini nazarda tutmoqda. 7^1-modda tahririda advokat soʻroviga qogʻoz shakldagi orderning koʻchirma nusxasi yoki elektron order ilova qilinishi belgilanmoqda.

Soʻrov orqali maʼlumot olish doirasi ham kengaymoqda. "Notariat toʻgʻrisida"gi Qonunga kiritilishi taklif etilayotgan qoʻshimchalarga koʻra, amalga oshirilgan notarial harakatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotnomalar advokatlarning soʻroviga koʻra – himoya ostidagi (ishonch bildiruvchi) shaxsning nomidan yoki uning topshirigʻiga koʻra amalga oshirilgan boʻlsa, ularga malakali yuridik yordam koʻrsatish zarurati yuzaga kelganda beriladi; bu notariusning majburiyatlari roʻyxatiga ham alohida xatboshi sifatida kiritilmoqda. "Davlat kadastrlari toʻgʻrisida"gi Qonunning 17-moddasi esa "davlat hokimiyati organlariga" degan soʻzlardan keyin "va advokatlarga" degan soʻzlar bilan toʻldirilishi taklif etilmoqda.

Ayniqsa, muhim yangilik "Sud ekspertizasi toʻgʻrisida"gi Qonunga kiritilayotgan oʻzgarishlar. Unga koʻra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi bilan bir qatorda advokatning soʻrovi ham sud ekspertizasini oʻtkazish asoslaridan biri deb eʼtirof etilmoqda; iqtisodiy, fuqarolik, maʼmuriy, jinoiy va maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ish yuritish jarayonlarida, shuningdek jinoyat ishi boʻyicha ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan advokatning soʻroviga asosan shartnomaga muvofiq sud ekspertizasi tadqiqotlari oʻtkazilishi mumkin boʻladi.

Ushbu norma himoya tomonining dalil to‘plash imkoniyatini sifat jihatidan o‘zgartiradi va tortishuv prinsipini mustahkamlaydi.

Kafolatlarni himoya qilish mexanizmi ham kuchaytirilmoqda. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 16-moddasi birinchi qismi “advokatning professional faoliyatiga to‘sqinlik qilganligi” degan so‘zlar bilan to‘ldirilishi, 197^1-moddaning matni esa yangi tahrirda bayon etilishi taklif etilmoqda. Yangi tahrirga ko‘ra, advokat so‘roviga axborotni (hujjatlarni) taqdim etmaslik, o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoxud bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etishda ifodalangan tarzda advokatning professional faoliyatiga to‘sqinlik qilish, shuningdek advokatning ishda ishtirok etishiga, uning ishonch bildiruvchi shaxs bilan ushlangan vaqtdan boshlab xoli uchrashishiga to‘sqinlik qilish yoki uning ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlariga zid bo‘lgan vaziyatni majburan egallashiga erishish maqsadida advokatga qanday shaklda bo‘lmasin ta’sir o‘tkazish bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu normalar qabul qilingan taqdirda, adliya organlari oldida ikkita amaliy vazifa turadi: birinchisi – davlat organlari, notariuslar va sud-ekspertiza muassasalari xodimlarini yangi majburiyatlar yuzasidan o‘qitish va uslubiy jihatdan ta’minlash; ikkinchisi – ushbu majburiyatlarning bajarilishi bo‘yicha monitoringni yo‘lga qo‘yish, zero javobgarlik normasi buzilish faktining qayd etilishiga bog‘liq.

Himoyachining protsessual vakolatlarini kuchaytirish to‘g‘risidagi takliflar

Advokatlik amaliyoti tahlili ko‘rsatadiki, advokat kafolatlarining qonunda mustahkamlanishi o‘z-o‘zidan yetarli emas: ular ish yuritishning aniq bosqichlarida ishlaydigan protsessual mexanizmlar bilan ta’minlanmasa, deklarativ bo‘lib qoladi. Quyida shu nuqtai nazardan bir qator takliflar ilgari suriladi:

Birinchi taklif – sud majlisini qayd etish huquqi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari sudlar faoliyatiga keng joriy qilinmoqda va ko‘pgina ishlarda sud majlisining audioyozuvi yuritilmoqda. Biroq ayrim ishlarda advokatning audioyozuv yuritish haqidagi iltimosnomasi, sud majlisi kotibining tajribaliligiga ishora qilingan holda, rad etilmoqda. Maqsad sud majlisida yuz bergan har bir holatni aniq qayd etish ekan, advokatga bunday huquqni berishda hech qanday to‘siq ko‘rinmaydi; aksincha, bu himoya huquqining realligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois Jinoyat-protsessual kodeksining 19-moddasini quyidagi mazmundagi qism bilan to‘ldirishni taklif etamiz:

"Advokat oshkora (ochiq) koʻrilayotgan jinoyat ishlari boʻyicha raislik qiluvchini ogohlantirgan holda oʻz hisobidan sud majlisining audio- va videoyozuvini yozib olish, sudga yozma va (yoki) elektron tarzda taqdim qilish huquqiga ega. Bunda sud majlisining audio- va videoyozuvi advokat tomonidan yozib olinayotganligi sud majlisi bayonnomasiga kiritib qoʻyiladi".

Ikkinchi taklif – protsessual qarorlar bilan tanishish. Jinoyat ishi yuritish davomida tergovchi tomonidan koʻplab qarorlar qabul qilinadi, biroq himoyachi ular bilan oʻz vaqtida tanishtirilmaydi. Masalan, tergov asossiz ravishda toʻxtatib qoʻyilishi va bu haqda himoyachi umuman xabardor qilinmasligi yoxud tarkibiga rad qilinishi lozim boʻlgan tergovchi kiritilgan tergov guruhi tuzilishi mumkin. Himoyachi oʻz vaqtida xabardor qilinmagani sababli bunday qarorga munosabat bildira olmaydi; holat keyinroq maʼlum boʻlganda esa ish sunʼiy ravishda choʻziladi. Shu bois Jinoyat-protsessual kodeksining 53-moddasida himoyachiga surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning jinoyat ishi yuritish davomida qabul qiladigan protsessual qarorlari hamda ajrimlari bilan ishning har qanday bosqichida tanishish, ulardan koʻchirma nusxalar olish va ushbu qarorlar ustidan shikoyatlar keltirish huquqini mustahkamlashni taklif etamiz. Shu moddada himoyachining jabrlanuvchilarga, fuqaroviy daʼvogarlarga va fuqaroviy javobgarlarga savol berish huquqi ham aniq belgilanishi lozim, zero ular ham protsess ishtirokchilari hisoblanadi.

Uchinchi taklif – himoya ostidagi shaxs bilan aloqaning til jihatidan taʼminlanishi. Himoya ostidagi shaxs davlat tilini bilmagan hollarda xoli uchrashuvning mazmuni tarjimonsiz taʼminlanmaydi. Shu bois himoyachiga oʻz hisobidan tarjimon jalb qilish va tarjimon ishtirokida xoli uchrashish huquqini berish taklif etiladi. Biroq ushbu huquq ikkinchi, unga mantiqan bogʻliq kafolatsiz xatarli boʻladi: amaliyotda tergov va tezkor-qidiruv organlari xodimlari tomonidan tarjimondan advokat va uning himoyasi ostidagi shaxs oʻrtasidagi suhbat mazmuni yuzasidan maʼlumot olishga urinish holatlari uchramoqda. Vaholanki, bunday suhbat ham advokatlik sirini tashkil etadi. Shu bois Jinoyat-protsessual kodeksining 115-moddasini quyidagi mazmundagi band bilan toʻldirishni taklif etamiz:

"advokat va uning himoyasi ostidagi shaxs yoki unga ishonch bildirgan shaxs oʻrtasidagi xoli uchrashuvda qatnashib, tarjima xizmatini koʻrsatgan tarjimonni – advokat va uning himoyasi ostidagi shaxs oʻrtasida boʻlib oʻtgan suhbat toʻgʻrisida".

Toʻrtinchi taklif – himoyachi murojaatlarini koʻrib chiqish muddatlari. Jinoyat-protsessual kodeksida himoyachining iltimos-

noma berish, rad etish va shikoyat qilish huquqlari mustahkamlangan boʻlsa-da, ularni vakolatli shaxs yoki organ tomonidan koʻrib chiqish muddati belgilanmagan. Natijada amaliyotda iltimosnomaga umuman javob berilmasligi yoki juda kech javob berilishi holatlari uchrab turibdi. Mazkur qoʻllanmaning oldingi paragraflarida qayd etilgan ushbu muammoga protsessual yechim sifatida Kodeksni quyidagi mazmundagi qoida bilan toʻldirishni taklif etamiz:

"Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, himoyachi tomonidan kiritilgan iltimosnoma, shikoyat, ariza (arz) va boshqa murojaatlar vakolatli shaxs yoki organ tomonidan besh kun ichida koʻrib chiqilishi va natijasi haqida himoyachiga bir kun ichida xabar berilishi kerak".

Beshinchi taklif – sirtdan qamoqqa olish ajrimi ustidan shikoyat. Amaldagi qonunchilik va tergov-sud amaliyotida sirtdan qoʻllanilgan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi ustidan faqat shaxs ushlab keltirilgandan keyin shikoyat qilish mumkin. Natijada, ayblovdan xabar topgan va ish holatlariga aniqlik kiritib, zararni qoplashga tayyor shaxs tergov organiga murojaat qilishi bilanoq qamoqqa olinadi. Shu bois Kodeksning 241-moddasini sirtdan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qoʻllanilgan shaxsning advokatiga ushbu ajrimdan nusxa olgan paytdan eʼtiboran yetmish ikki soat ichida sud tartibida shikoyat qilish huquqini beruvchi qism bilan toʻldirishni taklif etamiz.

Oltinchi taklif – sud majlisi bayonnomasi yuzasidan mulohazalar berish muddati. Kodeksning 427-moddasida ushbu muddat bayonnoma imzolangan kundan hisoblanadi. Amalda esa bayonnomani tayyorlash va imzolash murakkab ishlarda uzoqroq vaqt talab etadi, sudning esa bayonnoma imzolangani va undan nusxa olish mumkinligi haqida taraflarga xabarnoma berish majburiyati yoʻq. Natijada muddat taraf xabar topgunga qadar oʻtib ketmoqda.

Shu bois "bayonnoma imzolanganidan keyin besh sutka ichida" degan qoida oʻrniga "bayonnomaning va sud majlisi audioyozuvining koʻchirma nusxalarini olgan paytdan boshlab oʻn sutka ichida" degan qoidani kiritishni taklif etamiz. Ushbu yechim ham sudlar uchun noqulayliklarning oldini oladi, ham advokat uchun kafolatni taʼminlaydi.

Yettinchi taklif – jinoyat ishi sudga kelib tushganligi haqida xabardor qilish. Amaliyotda bu haqda himoyachi oʻz vaqtida xabardor qilinmayapti: sud ishni koʻrishga tayinlab boʻlganidan keyin xabar berilmoqda. Holbuki, dastlabki eshituv oʻtkazish toʻgʻrisidagi iltimosnoma ish kelib tushganidan yetti sutka ichida berilishi mumkin. Shu bois xabarnoma yuborilmaganligi aniqlanganda sud

darhol ayblanuvchi, uning himoyachisi, jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogarni xabardor qilishi hamda ish materiallari bilan tanishish va dastlabki eshituv o'tkazish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqini tushuntirishi to'g'risidagi qoidani mustahkamlashni taklif etamiz.

Advokatlik sirining subyektlar doirasini kengaytirish to'g'risidagi taklif

Amaliyotda yana bir ziddiyat kuzatilmoqda. Jinoyat-protsessual kodeksining 115-moddasida advokatni guvoh sifatida so'roq qilish taqiqi "jinoyat ishi yuzasidan" degan ibora bilan cheklangan bo'lsa, "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi va 10-moddasi ikkinchi qismi advokatlik sirini bunday cheklov bilan bog'lamaydi. Ushbu ikki xillikdan foydalanib, tergov organlari advokatlarni, shuningdek ularning yordamchilari va stajyorlarini o'zlari ishtirok etgan iqtisodiy, fuqarolik va boshqa ishlar bo'yicha guvoh sifatida so'roq qilishga harakat qilmoqdalar.

Holbuki, adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi 10-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomning 4, 23 va 32-bandlariga muvofiq stajyor va yordamchiga nisbatan Advokatning kasb etikasi qoidalari hamda advokatlik sirini saqlashga doir talablar tatbiq etiladi – demak, ular ham ish bo'yicha o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan holatlarni oshkor qila olmaydi.

Shu bois Jinoyat-protsessual kodeksining 115-moddasi va "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi ikkinchi qismini o'zaro uyg'unlashtirishni hamda advokat bilan bir qatorda advokat stajyori va advokat yordamchisi ham advokatlik tuzilmasida olib borgan faoliyati davomida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan tafsilotlar yuzasidan guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emasligini belgilashni taklif etamiz. Ushbu himoya jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning va fuqaroviy javobgarning vakillariga ham tatbiq etilishi lozim.

Mazkur misol adliya organlarining norma ijodkorligidagi rolini yaqqol ko'rsatadi: idoraviy darajada belgilangan talab qonun darajasidagi norma bilan uyg'unlashtirilmasa, u amalda himoya vositasi sifatida ishlamay qolishi mumkin.

Advokat daxlsizligini ta'minlashda sud nazoratiga o'tish to'g'risidagi taklif

Yuqorida ko'rib chiqilganidek, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq advokatning uy-joyi yoki xizmat xonasiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazish yoki olib qo'yish,

soʻzlashuvlarini eshitib turish, shaxsiy tintuv, pochta-telegraf joʻnatmalarini koʻzdan kechirish, majburiy keltirish va ushlab turish kabi harakatlar prokuror sanksiyasi bilan amalga oshiriladi.

Ushbu tartib, fikrimizcha, zamonaviy protsessual mantiqqa toʻliq mos kelmaydi. Jinoyat-protsessual kodeksiga ilgari kiritilgan oʻzgartirishlarga asosan tintuv, telefon va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, pochta-telegraf joʻnatmalarini xatlash kabi harakatlar barcha shaxslar uchun allaqachon sud vakolatiga oʻtkazilgan. Advokat daxlsizligi instituti esa, aksincha, kuchaytirilgan himoya rejimini nazarda tutishi kerak boʻlsa-da, hamon prokuror sanksiyasiga tayanmoqda.

Bundan tashqari, nazariy jihatdan prokuror jinoyat protsessida ayblov tarafi hisoblanar ekan, himoya tarafining daxlsizligiga oid masalani uning oʻzi hal etishi tortishuv prinsipiga toʻliq mos kelmaydi. Betaraf sudya esa bunday muvozanatni taʼminlashga qodir.

Shu bois quyidagi taklifni ilgari suramiz:

"Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida"gi Qonunning 6-moddasi uchinchi qismidagi "tenglashtirilgan prokurorlarning sanksiyasi bilan" degan soʻzlar "tenglashtirilgan prokurorlarning iltimosnomasiga koʻra jinoyat ishlari boʻyicha tuman (shahar) sudining ajrimi bilan" degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

Ushbu taklif Konstitutsiyaning 141 va 142-moddalarida nazarda tutilgan kafolatlarni roʻyobga chiqarishga xizmat qiladi va mazkur qoʻllanmada bayon etilgan nazariy pozitsiyani, davlat va advokatura munosabatlarida muvozanatni taʼminlashning universal vositasi sud nazorati ekanini, amalda mustahkamlaydi.

Axborot olish imkoniyatlarini kengaytirish toʻgʻrisidagi takliflar

Advokatning dalil toʻplash imkoniyati himoya sifatini belgilaydigan hal qiluvchi omildir. Ushbu yoʻnalishda uchta taklifni ilgari suramiz.

Birinchisi, bank siri maʼlumotlari. Amaliyotda advokat himoya ostidagi shaxsning mol-mulkiy holatiga oid maʼlumotlarsiz samarali himoyani taʼminlay olmaydigan holatlar koʻp uchraydi, ayniqsa ijro ishi yuritish jarayonida. Shu bois "Bank siri toʻgʻrisida"gi Qonunning 9-moddasini advokatga ham taalluqli qilib quyidagi mazmundagi qism bilan toʻldirishni taklif etamiz: advokatga himoya ostidagi (ishonch bildiruvchi) shaxslarga malakali yuridik yordam koʻrsatish zarurati yuzaga kelganda, uning soʻroviga asosan himoyasi ostidagi shaxsga oid bank siri maʼlumotlari, shuningdek, ijro ishi yuritish

jarayonida qarzdorga oid bank siri maʼlumotlari taqdim etiladi; bunda soʻrovga muayyan ish boʻyicha advokatlik orderi bilan birga qonuniy kuchga kirgan sud qarori hamda ijro varaqasi ilova qilinadi. Ushbu shartlar vakolatning suiisteʼmol qilinishiga yoʻl qoʻymaydi.

Ikkinchisi, sud ekspertizasi natijalari. "Sud ekspertizasi toʻgʻrisida"gi Qonunning 16-moddasi uchinchi qismiga koʻra ekspert ekspertiza natijalarini uni tayinlagan organdan (shaxsdan) tashqari biron-bir shaxsga xabar qilishga haqli emas. Ushbu cheklov natijasida ekspertiza natijalari huquq va manfaatlariga daxl qiladigan shaxslar xulosa bilan tanishish va undan nusxa olish imkoniyatidan mahrum boʻlmoqda. Masalan, jinoyat ishi doirasida davlat sud-ekspertiza muassasasi tomonidan xulosa berilib, u ekspertizani tayinlagan organga yuborilgan boʻlsa, keyinchalik sudda qayta ekspertiza tayinlanganda ham muassasa avvalgi xulosadan nusxa berishni ushbu norma asosida rad etmoqda. Ekspertiza xulosalarining dalil sifatidagi ahamiyatini hisobga olib, ushbu xatboshini "sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan) hamda sud ekspertizasi natijalari huquq va manfaatlariga daxl qiladigan shaxs manfaatida murojaat qilgan advokatdan tashqari" degan mazmunda bayon etishni taklif etamiz.

Uchinchisi, xorijiy davlatlarga soʻrov yuborish instituti. "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunda advokatning xorijiy davlatlarga soʻrov yuborish huquqi mustahkamlanmagan, holbuki amaliyotda bunday ehtiyoj tugʻilmoqda. Masalan, er-xotin oʻrtasidagi umumiy mulkni boʻlish toʻgʻrisidagi ishlarda mulklar tarkibini aniqlash, taraflardan birining nikoh davomida xorijiy davlatda mulkka ega boʻlganligi faktiga aniqlik kiritish zarurati paydo boʻladi. Shu bois Qonunning 6-moddasini quyidagi mazmundagi qism bilan toʻldirishni taklif etamiz:

"Advokat Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki Advokatlar palatasi orqali Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq xorijiy davlatlarga soʻrov yuborish va javob olish huquqiga ega. Advokat tomonidan xorijiy davlatlarga soʻrov yuborish va javob olish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda belgilanadi".

Ushbu vakolatning amalga oshirilishi Oʻzbekistonning xorijiy davlatlar bilan xalqaro shartnomalari shartlariga bogʻliq boʻladi: biz xorijiy davlatlardan maʼlumot berishni soʻraganimizda, ular ham bizdan shunday imkoniyatni kutishi tabiiy. Shu sababli qanday soʻrovlarni yuborish va qanday soʻrovlarga javob berish masalasi xalqaro huquqiy hamkorlik sohasidagi vakolatli organ, Adliya vazirligi

tomonidan hal etilishi mantiqan asoslidir. Ushbu taklif qabul qilingan taqdirda adliya organlari uchun mutlaqo yangi funksiya – advokatning xalqaro huquqiy yordam kanaliga kirishini taʼminlash vazifasi vujudga keladi.

Himoya ostidagi shaxs bilan uchrashuv sharoitlari toʻgʻrisidagi taklif

Nihoyat, himoya huquqining realligi himoyachi bilan uchrashuvning amaldagi sharoitlariga ham bogʻliq. "Jinoyat ishini yuritish chogʻida qamoqda saqlash toʻgʻrisida"gi Qonunning 22-moddasida himoyachi bilan moneliksiz va xoli uchrashuvlar ularning soni hamda davom etish muddati cheklanmagan holda berilishi aniq mustahkamlanishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, ushbu moddani advokat oʻz professional faoliyati bilan shugʻullanishi uchun qamoqda saqlash joylari, tergov hibsxonalari, axloq tuzatish va jazoni ijro etish muassasalariga shaxsiy telefon apparati, planshet yoki noutbukini erkin olib kirishi hamda himoya ostidagi shaxs bilan uchrashuv jarayonida elektron vositalardan foydalanishi mumkinligini belgilovchi qism bilan toʻldirishni taklif etamiz; bunda elektron vositalardan maʼlumotlarni qayd etish bilan bogʻliq boʻlmagan maqsadlarda foydalanish taqiqlanishi lozim. Ushbu taklifda "telefon apparati"ning alohida koʻrsatilishi muhim, zero bugungi advokatlik amaliyotida aynan telefon apparatidan koʻproq foydalanilmoqda. Shuningdek, masofadan turib uchrashuv oʻtkazish imkoniyatlarini ham koʻrib chiqish zamoni kelmoqda.

Intizomiy sohada adliya organi rahbari taqdimnomasi instituti

Advokatning intizomiy javobgarligi "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunning 14-moddasi bilan tartibga solinadi. Amaldagi tartibga koʻra, advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni qoʻzgʻatish toʻgʻrisidagi qaror malaka komissiyasi tomonidan quyidagi asoslarda qabul qilinadi: advokatura toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarining, Advokatlarning kasb etikasi qoidalarining, advokatlik sirining va advokat qasamyodining advokat tomonidan buzilishi aniqlangan taqdirda – hududiy boshqarma yoki adliya organi rahbarining taqdimnomasiga; advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan komissiyaga topshirilgan murojaatlarga; sudning advokatga nisbatan chiqargan xususiy ajrimiga.

Ushbu konstruksiyaning huquqiy tabiatini toʻgʻri tushunish muhim. Adliya organi rahbarining taqdimnomasi intizomiy chora emas, intizomiy chora qoʻllash toʻgʻrisidagi qaror ham emas. U faqat intizomiy ish yuritishni qoʻzgʻatish uchun asoslardan biri, yaʼni masa-

lani kasbiy hamjamiyat organi muhokamasiga qoʻyish vositasidir. Qaror qabul qilish vakolati toʻliq malaka komissiyasiga tegishli.

Ushbu taqsimot muvozanatli yechim hisoblanadi. Bir tomondan, davlat qonuniylikni taʼminlashdagi legitim manfaatini realizatsiya qila oladi: agar adliya organi qonunbuzarlik faktini aniqlasa, u bunga befarq qola olmaydi. Ikkinchi tomondan, advokatning kasbiy taqdiri haqidagi qaror kasbiy hamjamiyat tomonidan qabul qilinadi, bu mustaqillik prinsipiga muvofiqdir.

Ayni paytda ushbu institutni qoʻllashda ikki chegaraga rioya etish zarur. Birinchisi, taqdimnoma advokatning ish yuzasidan huquqiy pozitsiyasi uchun kiritilishi mumkin emas: yuqorida qayd etilganidek, "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunda advokatning huquqiy nuqtai nazari xususida taqdimnoma kiritish va xususiy ajrim chiqarish taqiqlangan. Ikkinchisi, taqdimnoma aniq fakt va dalillarga asoslanishi, umumiy baho yoki taxminga tayanmasligi lozim.

Amaldagi tartibga koʻra, komissiya qaror qabul qilguniga qadar advokat unga nisbatan shikoyat bergan shaxs bilan yarashuv choralarini koʻrishga haqli. Ayni paytda, advokat advokatura toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari talablarini, Advokatning kasb etikasi qoidalarini, advokatlik siri va advokat qasamyodini muntazam ravishda yoki bir marta qoʻpol ravishda buzgan, shuningdek, advokatning shaʼni va qadr-qimmatiga dogʻ tushiradigan hamda advokaturaning obroʻsini tushiradigan qilmish sodir etgan deb topilgan taqdirda, yarashuv intizomiy javobgarlikdan ozod qilish asosi boʻlmaydi.

Intizomiy taqdimnoma kiritish amaliyoti

Adliya organi rahbarining intizomiy taqdimnoma kiritish vakolati amaliyotda ehtiyotkorlik bilan qoʻllanilishi lozim. Taqdimnoma kiritish toʻgʻrisidagi qaror qabul qilinishidan oldin quyidagi savollarga javob berilishi zarur.

1. Aniqlangan holat advokatura toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari, kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri yoki advokat qasamyodining buzilishi belgilariga ega boʻladimi?

2. Holat aniq fakt va hujjatlar bilan tasdiqlanganmi, yoki bu taxminga asoslanganmi?

3. Holat advokatning ish yuzasidan huquqiy pozitsiyasi bilan bogʻliq emasmi?

4. Masala boshqa, yumshoqroq vositalar (tushuntirish, uslubiy tavsiya) bilan hal etilishi mumkin emasmi?

Ushbu savollarning barchasiga ijobiy javob olingandagina taqdimnoma kiritish asosli hisoblanadi. Taqdimnomaning oʻzi esa aniq taʼriflangan: qaysi norma buzilgani, qanday harakat yoki

harakatsizlikda ifodalangani, qanday dalillar bilan tasdiqlangani koʻrsatilishi lozim.

Taqdimnoma kiritilgandan keyin jarayon toʻliq malaka komissiyasi vakolatiga oʻtadi. Adliya organi komissiyaning qaroriga taʼsir koʻrsatishga haqli emas. Ushbu chegaraga rioya etilishi islohot mantiqining amalda saqlanishini taʼminlaydi.

Muhokaga qoʻyilgan qonun loyihasida intizomiy javobgarlikning vaqt chegaralari ham aniqlashtirilmoqda: 14-moddaning oltinchi qismi yangi tahririda intizomiy jazo nojoʻya xatti-harakat sodir etilgan kundan eʼtiboran oʻn ikki oy, moliya-xoʻjalik faoliyatini taftish etish yoki tekshirish natijalari boʻyicha esa ikki yil oʻtganidan keyin qoʻllanilishi mumkin emasligi, bunda ushbu muddatning oʻtishi intizomiy ishni koʻrib chiqish haqidagi xabar (murojaat, xat, taqdimnoma, sud ajrimi) Advokatlar palatasi yoki uning hududiy boshqarmalariga kelib tushgan kundan eʼtiboran tegishli qaror qonuniy kuchga kirgunga qadar toʻxtatib turilishi belgilanmoqda. Ushbu norma adliya organi taqdimnomasini kiritish vaqtini rejalashtirishda bevosita hisobga olinishi lozim.

Bizningcha, ushbu taklif adliya organlarining advokaturani qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirish funksiyasi nuqtai nazaridan tanqidiy baholanishi va koʻrib chiqilishi kerak. Yaʼni ushbu takliflar qanchalik zarur va amaliy jihatdan aktualligi kengroq oʻrganilishi kerak.

Advokatlar va fuqarolar murojaatlari bilan ishlash amaliyoti


Adliya organlariga kelib tushadigan murojaatlarni ikki guruhga ajratish mumkin: advokatlar murojaatlari va fuqarolar murojaatlari.

Advokatlar murojaatlari odatda quyidagi mavzularga tegishli boʻladi: guvohnoma berish yoki qayta rasmiylashtirish bilan bogʻliq masalalar; tuzilmani roʻyxatdan oʻtkazish masalalari; davlat hisobidan yuridik yordam tizimidagi texnik va tashkiliy masalalar; davlat organlari tomonidan advokat huquqlarining buzilishi; axborot tizimlarining ishlashi bilan bogʻliq muammolar. Ushbu murojaatlar adliya organlari uchun qimmatli axborot manbai hisoblanadi: ular tizimdagi "ogʻriqli nuqtalar"ni koʻrsatadi.

Fuqarolar murojaatlari esa koʻpincha quyidagilarga tegishli: davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqi va tartibi haqida maʼlumot soʻrash; tayinlangan advokatning faoliyatidan norozilik; advokat xizmatlari uchun haq masalalari. Bu yerda adliya organining vazifasi murojaatni toʻgʻri yoʻnaltirishdir: advokatning kasbiy faoliyatiga baho berish adliya organi vakolatida emas, bu masala kasbiy hamjamiyat organlariga yoʻnaltirilishi lozim. Ayni paytda

tizimning ishlashi bilan bog‘liq shikoyatlar (advokat tayinlanmadi, kechikib tayinlandi, yordam ko‘rsatilmadi) bevosita adliya organi vakolatidadir.

Murojaatlar tahlilini tizimli yuritish boshqaruv sifatining muhim ko‘rsatkichi. Murojaatlarni mavzular, hududlar va davrlar kesimida tahlil qilish muammolarning manbasini aniqlash va profilaktik chora ko‘rish imkonini beradi.



Himoyachining protsessual vakolatlari va advokat faoliyati kafolatlariga oid takliflarni advokatlarning qo‘llab-quvvatlashi

So‘rovda qatnashgan advokatlar qo‘llanmada taklif etilgan o‘zgarishlarni yuqori darajada qo‘llab-quvvatladi: sakkiz taklifning har biri bo‘yicha “to‘liq” va “ko‘proq” qo‘llab-quvvatlaganlar ulushi 83,0 dan 95,7 foizgacha bo‘ldi. Eng yuqori ko‘rsatkich advokatning Adliya vazirligi orqali xorijiy davlatlarga so‘rov yuborishi (95,7%), shuningdek, advokat so‘rovini sud ekspertizasini tayinlash asosi deb e’tirof etish va oshkora sud majlisining audio-video yozuvini olish (har biri 93,6%) takliflari bo‘yicha qayd etildi. Nisbatan past, ammo yuqori darajada qo‘llab-quvvatlash advokat daxlsizligiga oid harakatlarni prokuror sanksiyasi o‘rniga sud ajrimi bilan amalga oshirish taklifida (83,0%) kuzatildi; bu taklif bo‘yicha “aniq fikrim yo‘q” javobi ham eng ko‘p (6 ta, 12,8%) bo‘ldi. Takliflarni qo‘llab-quvvatlamaganlar ulushi hech bir taklif bo‘yicha 8,5 foizdan oshmadi.

1-NAMUNA. ADVOKATLIK SO‘ROVI

LOGOTIP

“_____” ADVOKATLIK TUZILMASI

[indeks], [shahar], [tuman], [ko‘cha, uy]
www._____.uz | _____@_____.uz | +998 __ ___ __ __

№ ___/___ **20__ yil “__” _____**

“_____” MCHJ
direktori
[F.I.Sh.]ga

ADVOKATLIK SO‘ROVI

(O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 7¹-moddasiga asosan)

“_____” advokatlik tuzilmasi advokati [F.I.Sh.] tomonidan [ishonch bildiruvchi shaxsning F.I.Sh.]ning huquq va manfaatlari himoya qilinib, huquqiy yordam ko‘rsatib kelinmoqda.

“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 7¹-moddasiga binoan advokat davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan malakali yuridik yordam ko‘rsatilishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni taqdim etish masalalari yuzasidan advokat so‘rovini yuborishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 197¹-moddasiga asosan advokat so‘roviga axborotni (hujjatlarni) taqdim etmaslik, o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoxud bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etish tarzida advokatning professional faoliyatiga to‘sqinlik qilish ma’muriy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Zarurat tug‘ilganligi sababli, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 7¹-moddalariga asosan, Sizdan quyidagilardan ko‘chirma nusxa (axborot) taqdim etishingizni

SO‘RAYMAN:

1. 20__–20__ yillar davomida o‘tkazilgan umumiy yig‘ilishlar bayonnomalari va ishtirokchilar imzolari bilan tasdiqlangan ilovalardan ko‘chirma nusxani;
2. 20__–20__ yillar davomida yig‘ilishda kvorum mavjud bo‘lganligini tasdiqlovchi hujjatlardan ko‘chirma nusxani;

Izoh: so‘rovga javob berilmasa yoki ma’lumotlar qisman taqdim etilsa, sudga ma’muriy jazo qo‘llashni so‘rab murojaat qilinadi.

Ilova: advokatlik orderi.

“_____” advokatlik tuzilmasi advokati **[F.I.Sh.]**

[indeks], [shahar], [manzil] • Tel.: +998 __ ___ __ __ • www._____.uz

Namunada so‘ralayotgan hujjatlar ro‘yxati qisqartirilgan holda keltirildi. Amaliyotda ushbu ro‘yxat ish xususiyatidan kelib chiqib shakllantiriladi va o‘nlab bandlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Har bir band aniq, o‘lchaniladigan va so‘rov yuborilayotgan subyektning vakolati doirasida bo‘lishi shart – aks holda javob bermaslik asosli deb topilishi mumkin.

2-NAMUNA. SUDGA ARIZA

LOGOTIP

“_____” ADVOKATLIK TUZILMASI

[indeks], [shahar], [tuman], [ko‘cha, uy]

www._____.uz | _____@_____.uz | +998 __ ___ __ __

№ ___/___ **20__ yil “__” _____**

Jinoyat ishlari bo‘yicha
[tuman (shahar)] tuman sudiga
“_____” MCHJ direktori
[F.I.Sh.]ni ma’muriy javobgarlikka
tortish yuzasidan

A R I Z A

(MJtKning 197¹-moddasiga asosan chora ko‘rish haqida)

“_____” advokatlik tuzilmasi tomonidan [ishonch bildiruvchi shaxsning F.I.Sh.]ning huquq va manfaatlarini ko‘zlab huquqiy yordam ko‘rsatib kelinmoqda.

“_____” MCHJga 20__ yil “__” _____ kuni № ___/___-sonli advokatlik so‘rovi yuborilib, unda [__] turdagi axborot va hujjatlarni taqdim etish so‘ralgan.

Biroq oradan [__] kun o‘tsa-da, asossiz ravishda advokatlik so‘roviga javob taqdim etilmayapti.

“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 7¹-moddasiga ko‘ra advokat tashkilotlarga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun zarur hujjatlarni taqdim etish masalasida advokat so‘rovini yuborishga haqli.

“Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasiga asosan advokat ishning barcha materiallari bilan tanishish va ulardan zarur ma’lumotlarni ko‘chirib olish huquqiga ega.

So‘ralgan ma’lumotlar taqdim etilmasligi natijasida ishonch bildiruvchi shaxsga yuridik yordam ko‘rsatishda qiyinchilik va to‘siqlarga uchralmoqda. Vaholanki, Konstitutsiyaning 29-moddasiga asosan har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 197¹-moddasida advokat so‘roviga axborotni (hujjatlarni) taqdim etmaslik yoki o‘z vaqtida taqdim etmaslik tarzida advokatning professional faoliyatiga to‘sqinlik qilish ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, shuningdek, MJtKning 245 va 283-moddalariga asosan, Suddan

S O‘ R A Y M A N:

1. “_____” MCHJ direktori [F.I.Sh.]ni advokat so‘roviga axborotni taqdim etmaganligi uchun MJtKning 197¹-moddasiga asosan javobgarlikka tortishingizni;
2. mazkur so‘rovda so‘ralgan hujjat va axborot javobgar tomonidan ishni ko‘rish davomida taqdim etilishini.

Ilovalar: 1) advokatlik so‘rovi; 2) so‘rov qabul qilib olingani haqidagi hujjat; 3) advokatlik orderi.

“_____” advokatlik tuzilmasi advokati **[F.I.Sh.]**

3-NAMUNA. SUD QARORI (qisqartirilgan)

Q A R O R

20__ yil "__" _____ kuni, jinoyat ishlari bo‘yicha [tuman] tuman sudi, sud binosida, ochiq sud majlisida, raislik etuvchi tergov sudyasi [F.I.Sh.], sudya yordamchisi [F.I.Sh.]ning kotibligida, "_____" MCHJ rahbari [F.I.Sh.] ishtirokida, "_____" advokatlik tuzilmasi tomonidan "_____" MCHJga nisbatan kiritgan shikoyati bo‘yicha to‘plangan ma’muriy huquqbuzarlik ish hujjatlarini ko‘rib chiqdi.

Ish hujjatlariga ko‘ra [F.I.Sh.] – [tug‘ilgan yili] yilda tug‘ilgan, "_____" MCHJ rahbariga nisbatan to‘plangan № ___-sonli ma’muriy ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

A N I Q L A D I:

"_____" advokatlik tuzilmasi advokati [F.I.Sh.]ning ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlarini himoya qilib, "_____" MCHJga 20__ yil "__" _____ kuni № ___/___-sonli advokatlik so‘rovi yuborilib, unda [__] turdagi axborot va hujjatlarni taqdim etmaganligi aniqlangan.

Sud majlisida javobgar advokatlik so‘rovini olganligini, unda talab qilingan [__] turdagi axborot va hujjatlar belgilangan muddatda taqdim etilmaganligini, hozirda mavjud barcha hujjatlarni taqdim etishini va qilgan qilmishidan pushaymon ekanligini bayon qilib, yengillik berilishini so‘radi.

Javobgarning aybi ish hujjatlaridagi dalillar bilan to‘liq isbotlangan. Sud uning advokatlik so‘roviga o‘z vaqtida to‘liq axborotni (hujjatlarni) taqdim etmaslikda ifodalangan harakatlari MJtKning 197¹-moddasi bilan malakalanishi zarur deb hisoblaydi.

MJtKning 30-moddasida jazoni qo‘llash chog‘ida sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar hisobga olinishi ko‘rsatilgan.

Oliy sud Plenumining 2018-yil 30-noyabrdagi 35-sonli qarorining 22-bandida sud jazo chorasi va turini belgilashda jazo qo‘llanilishining umumiy qoidalariga amal qilishi lozimligi, 2023-yil 23-iyundagi 16-sonli qarorining 6-bandida esa Konstitutsiyaning 20-moddasi talablaridan kelib chiqib, qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir chorasi mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va huquqbuzarlikning og‘ir-yengilligiga muvofiq bo‘lishi kerakligi tushuntirilgan.

Sud, huquqbuzarga jazo turi va miqdorini tayinlashda uning shaxsini hamda oilaviy va moddiy sharoitini inobatga olib, modda sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosini tayinlashni lozim deb hisoblaydi.

Yuqoridagilarga asosan va MJtKning 309, 311-moddalariga muvofiq, sud

Q A R O R Q I L D I:

"_____" advokatlik tuzilmasi advokati [F.I.Sh.] tomonidan kiritilgan shikoyat arizasi qanoatlantirilsin.

[F.I.Sh.] O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 197¹-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor deb topilsin hamda unga bazaviy hisoblash miqdorining 2 (ikki) baravari miqdorida jarima jazosi tayinlansin.

Jarima davlat hisobiga undirilsin. Qaror ustidan apellatsiya shikoyati (protesti) o‘n sutka ichida berilishi mumkin.

Raislik etuvchi: [imzo] R.Aliyev

Sud qarori namunasi blanksiz berildi – u sud hujjati bo‘lgani sababli advokatlik tuzilmasining blankida rasmiylashtirilmaydi. Matn namunaviy mazmunda, huquqiy asoslash qismi to‘liq saqlangan holda keltirildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
ANDIJON VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
170112, Andijon shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 60-uy
Tel.: (998 74) 223-50-51, www.andijon.adliya.uz
el. pochta: andijon@adliya.uz, andijon@minjust.gov.uz, andijon@exat.uz

20__ yil “__” _____ № ___/___-son

Advokatlar palatasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasiga

Advokatlar palatasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga

nusxasi: Murojaat muallifi [F.I.Sh.]ga

Adliya boshqarmasining ish yurituviga fuqaro [F.I.Sh.]ning advokat [F.I.Sh.]ning xatti-harakatlaridan norozi bo‘lib, Adliya vazirligining murojaat.gov.uz portali orqali yo‘llagan № [_____]-sonli murojaati kelib tushgan.

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasi ikkinchi qismiga ko‘ra, masalani hal etish vakolatiga kirmaydigan organga kelib tushgan murojaatlar besh kundan kechiktirmay tegishli organga yuboriladi.

Adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risida”gi Nizomning 49-bandiga muvofiq, adliya organiga kelib tushgan advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlar malaka komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, murojaatda ko‘rsatilgan holatlar o‘rganilib, qonuniy tartibda ko‘rib chiqish uchun Advokatlar palatasi [viloyat] hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga yuborilmoqda. Natijasi haqida murojaat muallifiga ma’lum qilishingiz so‘raladi.

Ijrochi: [F.I.Sh.], tel.: [_____]

Izoh: namunada murojaat muallifi, advokat va ijrochining shaxsiy ma’lumotlari, hujjat raqami hamda manzillar o‘rniga shartli belgilar qo‘yildi. Xat adliya organi vakolatiga kirmaydigan masalani (advokat faoliyatini baholash) besh kunlik muddatda tegishli organga yo‘naltirish tartibini ko‘rsatadi.

20__ yil "__" _____ № ___/___-son

Advokatlar palatasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga

TAQDIMNOMA

"Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida"gi Qonunning 7-moddasiga asosan Adliya vazirligi davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi 774-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq toʻlash tartibi toʻgʻrisida"gi Nizomning 5-bandiga muvofiq hududiy adliya boshqarmalariga reyestrga kirgan advokatlar bilan shartnomalar tuzish va ularning bajarilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi toʻgʻrisidagi Nizomga (PQ-3666-son qaror, 2018-yil 13-aprel) koʻra adliya organlari advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish masalasini malaka komissiyalariga kiritish vakolatiga ega.

Nizomning 27-bandiga koʻra, "Yuridik yordam" axborot tizimi ishni koʻrib chiqilayotgan hudud boʻyicha advokatni tasodifiy elektron tarzda tanlaydi. 28-bandga muvofiq tanlangan advokatga ishni qabul qilish yoki rad etish haqida SMS-xabarnoma va shaxsiy elektron kabinetiga bildirishnoma yuboriladi, rad etish asoslari tizimga darhol kiritilishi shart. "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunning 7-moddasiga koʻra, tanlangan advokat fuqaroning toʻlovga qobiliyatsizligini vaj qilib yuridik yordam koʻrsatishdan bosh tortishga haqli emas.

Adliya boshqarmasi tomonidan tizim monitoring qilinganda, oʻtgan [9] oy davomida [63] nafar advokat tomonidan [174] ta holatda tizim orqali yuborilgan ishlar asossiz rad etilgani aniqlandi. Jumladan:

№	Advokat, advokatlik tuzilmasi	Rad etish soni
1	"[nomi]" advokatlik byurosi advokati [F.I.Sh.]	[22]
2	"[nomi]" advokatlik byurosi advokati [F.I.Sh.]	[12]
3	"[nomi]" advokatlar hayʼati advokati [F.I.Sh.]	[5]
…	boshqa [__] nafar advokat (roʻyxat taqdimnomaga ilova qilinadi)	[__]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Adliya vazirligi toʻgʻrisidagi Nizomga asosan

S OʻR A Y M A N:

1. Taqdimnomada koʻrsatilgan qonun buzilishi holatlari va ularning sabablarini bartaraf etish hamda kelgusida takroran yoʻl qoʻymaslik choralarini ishlab chiqishni taʼminlashingizni;

2. Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish boʻyicha tasodifiy tanlangan ishlarni asossiz rad etgan advokatlarga nisbatan intizomiy javobgarlik masalasini koʻrib chiqishingizni;

3. Amalga oshirilgan ishlar va koʻrilgan choralar haqidagi maʼlumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga bir oy ichida adliya boshqarmasiga taqdim etishingizni.

Eslatma: adliya organlarining majburiy taqdimnomalarini bajarmaslik yoki oʻz vaqtida toʻliq bajarmaslik MJtKning 198-moddasiga koʻra mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha jarima solishga sabab boʻladi.

Izoh: namunada advokatlar va advokatlik tuzilmalarining nomlari, raqamlar va sanalar shartli belgilangan; haqiqiy taqdimnomada har bir advokat boʻyicha rad etish holatlari soni va sanalari aniq koʻrsatiladi.

2.4-§. Sohaning raqamli ekotizimi va elektron xizmatlar

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarori sohada raqamli transformatsiyaning dasturiy hujjati boʻldi. Ushbu qaror, shuningdek, Prezidentning 2021-yil 24-iyuldagi PF-6269-son "Davlat xizmatlari koʻrsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Farmoni bilan birga advokatlarga koʻrsatiladigan davlat xizmatlarini elektron shaklga oʻtkazish uchun huquqiy asos yaratdi.

Raqamlashtirishning advokatura uchun beradigan foydasini uch darajada baholash mumkin. Birinchi daraja – maʼmuriy yukning kamayishi: advokat guvohnoma olish, ish joyini oʻzgartirish, tuzilmani roʻyxatdan oʻtkazish kabi masalalar boʻyicha idoralarga bormasdan, elektron tarzda murojaat qila oladi. Ikkinchi daraja – shaffoflik: barcha muomala tizimda qayd etiladi, muddatlar kuzatiladi, asossiz kechiktirishlar koʻzga tashlanadi. Uchinchi daraja – tahliliy imkoniyat: tizimda jamlangan maʼlumotlar sohadagi holatni obyektiv tahlil qilish va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Ushbu yoʻnalishda adliya organlarining roli operator va rivojlantiruvchi sifatida namoyon boʻladi. Ular tizimlarni loyihalashtiradi va joriy etadi, ularning uzluksiz ishlashini taʼminlaydi, foydalanuvchilar (advokatlar, talabgorlar, fuqarolar) bilan ishlaydi, tizimlarni takomillashtirib boradi.

PQ-263-son qaror ijrosining aniq namunalarini koʻrib chiqish foydalidir.

Birinchisi – advokatlik guvohnomasini maxsus QR-kod qoʻyilgan holda berish tartibining joriy etilishi: qarorning 2-bandi "v" kichik bandida ushbu tartib va u orqali advokatning maqomi haqida maʼlumot olish imkoniyati yaratilishi nazarda tutilgan. Ushbu yechimning amaliy ahamiyati katta: sud yoki davlat organi xodimi QR-kod orqali advokat maqomining haqiqiyligini bir zumda tekshira oladi, bu esa advokatni ortiqcha tekshiruv tartib-taomillaridan himoya qiladi.

Ikkinchi namuna – advokat orderining raqamlashtirilishi. Advokat tomonidan ishni olib borishga order shaklini tasdiqlash toʻgʻrisidagi idoraviy normativ-huquqiy hujjat (Adliya vazirligida 2023-yil 31-yanvarda 3417-raqam bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan) ham aynan PQ-263-son qaror ijrosi doirasida qabul qilingan. Unda belgilanishicha, orderga advokat tomonidan mustaqil ravishda tartib

raqami beriladi, raqamlar oʻsib borish tartibida boʻladi va kalendar yil boshidan yangidan boshlanadi; order raqamlari "Yuridik yordam" axborot tizimida roʻyxatga olinadi; qogʻoz shakldagi order rasmiylashtirilgan sanadan eʼtiboran oʻn kun ichida axborot tizimiga kiritilishi shart, bunda qogʻoz orderning barcha rekvizitlari oʻzgarishsiz kiritilishi taʼminlanadi.

Ushbu misol ikki muhim xususiyatni koʻrsatadi. Birinchidan, raqamlashtirish advokatning mustaqilligini cheklamaydi: orderga raqam berishni advokatning oʻzi amalga oshiradi, davlat organi emas. Ikkinchidan, tizim qogʻoz va elektron shakllarning birgalikda amal qilishiga yoʻl qoʻyadi, ammo qogʻoz hujjatning ham tizimga kiritilishini talab qilib, yagona maʼlumotlar bazasining toʻliqligini taʼminlaydi. Bu – raqamli oʻtish davrida qoʻllaniladigan oqilona yechim. Ammo qogʻoz orderning vaqtida tizimga kiritilmasligi yoki umuman kiritilmasligi oqibatlari nazarda tutilmagan. Bizningcha, bu holat uning haqiqiyligiga taʼsir qilmasligi kerak.

"Yuridik yordam" axborot tizimi (e-advokat.uz) – sohadagi markaziy raqamli platforma boʻlib, u bir nechta funksiyani birlashtiradi.

- Advokatlik guvohnomasini berish bilan bogʻliq murojaatlarni qabul qilish va rasmiylashtirish – Vazirlar Mahkamasining 226-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga koʻra, talabgor aynan ushbu tizim orqali adliya organiga murojaat qiladi.
- Advokatlarning ish joyi oʻzgarishini qayd etish va Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalarini xabardor qilish.
- Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokatlarni ixtisosligi, ish yuritish tili va hududini hisobga olgan holda avtomatik tanlash.
- Advokat tomonidan ishda ishtirok etishni rad etish asoslarini qayd etish.
- Hujjatlarni ERI orqali imzolash.
- Elektron hukumat maʼlumotlarini olish.
- Tergov hisbxonalari, vaqtincha saqlash joylari, JIEMlarida himoya ostidagi shaxslar bilan uchrashish uchun ruxsatnomalar olish.
- Advokatlik tuzilmasining hisobotini topshirish.

Ushbu funksiyalarning bir platformada jamlanishi tizimli afzallik beradi: advokat toʻgʻrisidagi maʼlumotlar bir joyda saqlanadi, takroriy kiritish talab etilmaydi, turli jarayonlar oʻrtasida maʼlumot uzatilishi avtomatlashadi.

Operator sifatida adliya organlari zimmasida qator masʼuliyatlar mavjud. Birinchisi – maʼlumotlar butunligi va ishonchliligi: tizimdagi maʼlumotlar huquqiy ahamiyatga ega, shu bois ularning toʻgʻriligi hal

qiluvchi. Ikkinchisi – axborot xavfsizligi: tizimda advokatlar va yuridik yordam oluvchi shaxslar toʻgʻrisidagi shaxsiy maʼlumotlar qayta ishlanadi. Uchinchisi – uzluksizlik: tizimning ishlamay qolishi protsessual muddatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Toʻrtinchisi – algoritmlarning xolisligi: avtomatik tanlash algoritmi aniq, oldindan koʻriladigan va manipulyatsiyadan himoyalangan boʻlishi shart.

Zamonaviy davlat boshqaruvida xizmat koʻrsatish sifatining asosiy mezoni – foydalanuvchi sarflaydigan vaqt va harakat. Advokatlar uchun bu mezon alohida ahamiyatga ega: maʼmuriy tartib-taomillarga sarflangan har bir soat mijoz ishi bilan shugʻullanish uchun yoʻqotilgan soatdir.

Ushbu nuqtai nazardan amaldagi tartib ancha ilgarilagan: advokatlik guvohnomasini berish arizasi ikki ish kuni ichida koʻrib chiqiladi, ish joyining oʻzgarishi bir ish kuni ichida qayd etiladi. Ushbu muddatlar xalqaro amaliyot uchun ham yaxshi koʻrsatkich hisoblanadi.

Keyingi bosqich sifatida advokatning yagona shaxsiy kabineti konsepsiyasini koʻrib chiqish mumkin: advokat bir platformada guvohnomasini koʻradi, tuzilmasi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni boshqaradi, davlat hisobidan yuridik yordam boʻyicha tayinlanishlarini va hisob-kitoblarini kuzatadi, malaka oshirish holatini koʻradi, soʻrovlarini yuboradi va ularning ijrosini kuzatadi va h.k.

Umumiy xulosa shuki, sohaning raqamli infratuzilmasi bugungi kunda yaratilgan va amalda ishlamoqda: e-advokat.uz platformasi orqali advokatlik guvohnomasini berish, ish joyining oʻzgarishini qayd etish, reyestrni yuritish, davlat hisobidan yuridik yordam boʻyicha advokatni tanlash, shaxsiy elektron kabinet orqali ishni qabul qilish yoki rad etish, order raqamlarini roʻyxatga olish kabi jarayonlar elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Shu bois bugungi kun vazifasi yangi tizimlar yaratish emas, balki amaldagi platformani takomillashtirish: uning funksionalini kengaytirish, boshqa axborot tizimlari bilan integratsiyasini tugallash va foydalanuvchilar uchun qulayligini oshirish hisoblanadi. Masalan, elektron yozishmalar boʻlimini hali ancha takomillashtirish kerak. Hozirda elektron yozishmalar boʻlimi advokat uchun toʻla ishonchli va tugal emas.

2.5-§. Kadrlar malakasini oshirish, ilmiy-uslubiy taʼminot va huquqiy targʻibot

Malakali yuridik yordam doimiy yangilanib turuvchi bilimga tayangan yordamdir. Qonunchilikning jadal oʻzgarishi sharoitida, faqat soʻnggi uch yilda sohada yangi qonun qabul qilindi,

Konstitutsiya yangi tahrirda tasdiqlandi, kasbga kirish tartibi oʻzgardi, advokatning oʻz malakasini muntazam oshirib borishi kasbiy burchgina emas, balki mijoz huquqlarining real kafolatidir.

Ushbu yoʻnalishdagi institutsional yechim Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son qarori bilan yaratildi. Qarorga koʻra, Institutning asosiy vazifalari qatorida adliya organlari va muassasalari xodimlari bilan bir qatorda yuridik xizmat, advokatura, notariat, sud ekspertizasi, arxiv ishi va ish yuritish, ijro intizomi, murojaatlar bilan ishlash, mediatsiya va intellektual mulk sohalari mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish belgilangan.

Qarorda belgilangan eng muhim yangilik 2025-yil 1-apreldan boshlab adliya organlari va muassasalari xodimlari hamda yuridik xizmat, advokatura va notariat sohalari boʻyicha yuridik kadrlarning bilim va koʻnikmalarini doimiy oshirib borishni nazarda tutuvchi kredit-modul mexanizmiga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining joriy etilishidir. Ushbu norma Oʻzbekistonda ilk bor advokatlar uchun uzluksiz kasbiy taʼlim (continuing legal education) tizimining huquqiy asosini yaratdi.

Oʻquv jarayoniga qoʻyilgan sifat talablari ham ahamiyatli. Qarorga koʻra, 2025-yil 1-iyundan boshlab oʻquv jarayoni amaliy va huquqiy nizolarni tahlil qilishga qaratilgan bilim va koʻnikmalarga asoslangan yondashuvga muvofiq tashkil etiladi, ularning kamida 40–50 foizi amaliy mashgʻulotlarga ajratiladi. Bundan tashqari, yuridik taʼlimda kazus va keys-texnologiyalar asosida oʻqitishni tashkil etish Institut vazifalari qatoriga kiritilgan.

Institutga advokatlarni oʻquv jarayoniga jalb etish huquqi ham berilgan: taʼlim jarayoniga zamonaviy pedagogika texnologiyalarini qoʻllay oladigan sudyalar, advokatlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va boshqa amaliyotchi mutaxassislarni shartnoma asosida soatbay va oʻrindoshlik shartlarida jalb etish nazarda tutilgan. Bu muhim mexanizm: u amaliyotchi advokatlarning tajribasini oʻquv jarayoniga olib kirishni taʼminlaydi va ayni paytda adliya tizimi bilan advokatura oʻrtasida professional aloqa kanali yaratadi.


Institutda yuridik mutaxassislik boʻyicha qayta tayyorlash oʻquv kurslarini tugatgan va diplom olgan shaxslar, boshqa huquqlar qatorida, advokatura va notariat tizimida oliy yuridik maʼlumot talab etilmaydigan lavozimlarda ishlash huquqiga ega boʻlishi belgilangan (7-bandning ikkinchi xatboshisi, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 30-iyundagi 350-son qarori tahririda). Ushbu norma advokatlik tuzilmalarining yordamchi kadrlar bilan taʼminlanishi uchun qoʻshimcha manba yaratadi.

Vazirlar Mahkamasining 171-son qarorining 2-bandida Institutning asosiy vazifalari qatorida adliya organlari va muassasalari faoliyatini, huquqiy xizmatlar koʻrsatish, sud ekspertiza, arxiv ishi va ish yuritish sohalarini ilmiy-metodik va konsultativ jihatdan taʼminlash, shuningdek, ularning faoliyat yoʻnalishlarini tahlil qilgan holda yanada takomillashtirish boʻyicha ilmiy asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish belgilangan. Mazkur uslubiy qoʻllanmaning oʻzi ham aynan ushbu vazifaning ijrosi doirasida tayyorlangan.


Qarorda, shuningdek, Institut vazifalari qatorida huquqni qoʻllashdagi muammolar va yurisprudensiyaning eng dolzarb masalalari boʻyicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar loyihalarini, shu jumladan, milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilgan holda amalga oshirish belgilangan. Bu Institutga advokatura va adliya organlari hamkorligi masalalari boʻyicha tizimli ilmiy tadqiqot olib borish imkonini beradi.

Institut tuzilmasida Pedagoglar markazi faoliyat yuritib, ushbu tuzilma advokatura sohasidagi oʻquv-uslubiy ishlarning markaziy boʻgʻini vazifasini bajaradi.

Institut oldida turgan alohida vazifa tadqiqotchilarni sohalarga biriktirish. Qarorga koʻra, Institut tadqiqotchilarini tadqiqot sohalari boʻyicha tashkilotlarga biriktirish amaliyoti joriy etiladi va ularning ilmiy-tadqiqot mavzulari biriktirilgan sohalarning aniq muammolarini hal etishga yoʻnaltiriladi. Advokatura sohasi boʻyicha bunday birik-tirish Advokatlar palatasi bilan amalga oshirilishi mantiqan asoslidir.



171-son qarorda belgilangan eng istiqbolli yangiliklardan biri 2025-yil 1-iyundan boshlab ta’lim jarayonlarini boshqarish va avtomatlashtirish bo‘yicha xalqaro standartlar va texnologiyalarni joriy etish orqali “Raqamli institut” (digital.minjusttraining.uz) platformasining yaratilishidir. Platformada yuridik kadrlarga o‘z kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish shakllari va dasturlarini mustaqil tanlash va o‘zlashtirish imkoniyati yaratilishi nazarda tutilgan.



Birgina 2026-yilning 1-yarim yilligida quyidagi ishlar amalga oshirilgan: jami 221 ta qayta tayyorlash, malaka oshirish va maxsus tayyorlash guruhi tashkil etilib, ularda 12 134 nafar tinglovchi o‘qitilgan; shundan 1 300 nafari advokatlar, notariuslar, yuridik xizmat xodimlari va sud ekspertlari uchun mo‘ljallangan 72 soatlik malaka oshirish o‘quv dasturi asosida bilim olgan. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish va masofaviy ta’lim platformalari orqali shu davrda 15 655 nafar tinglovchining malakasi oshirilmoqda, jumladan 6 300 nafar adliya tizimi xodimi “Raqamli institut” platformasida (digital.minjusttraining.uz) ta’lim olmoqda; ushbu platformada, shuningdek, turli soha vakillaridan 1 156 nafari malaka oshirgan. Institut professor-o‘qituvchilari tomonidan shu davrda 4 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 2 ta monografiya va 40 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Platformaning ikkinchi funksiyasi – Kompetensiyalarni baholash. Qarorga ko‘ra, platforma orqali yuridik kadrlar tegishli bilim va

koʻnikmalar boʻyicha kasbiy tekshiruvdan oʻtkaziladi hamda natijasiga koʻra yuridik kadrlarning Kompetensiya pasporti va individual kasbiy rivojlanish dasturi tuziladi, ushbu dastur orqali kadrlar malaka oshirishga yoʻnaltiriladi. Shuningdek, tinglovchilarning malaka oshirishga boʻlgan ehtiyojini aniqlash uchun raqamli portfolio tizimi joriy qilinishi, ularning kasbiy faoliyat samaradorligi baholanishi va reytingi yuritilishi belgilangan.

Ushbu mexanizmning advokatura uchun ahamiyati katta: u malaka oshirishni formal tadbirdan individuallashtirilgan, ehtiyojga asoslangan jarayonga aylantiradi. Advokat oʻzi uchun zarur modullarni tanlaydi, uning bilim darajasi obyektiv baholanadi, rivojlanish trayektoriyasi tuziladi.

Alohida eʼtiborga molik yoʻnalish yuridik sohaning raqamli transformatsiyasiga kadrlarni tayyorlash. 171-son qarorda Adliya vazirligiga Institut va Toshkent davlat yuridik universiteti bilan birgalikda yuridik amaliyotda zamonaviy texnologiyalarni qoʻllashning asosiy jihatlari, jumladan, yuridik jarayonlarni avtomatlashtirish, keng hajmli maʼlumotlarni tahlil qilish hamda huquqiy ekspertizada sunʼiy intellekt tizimlaridan foydalanish boʻyicha Legal Tech va sunʼiy intellekt kompleks oʻquv dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish topshirilgan. Ushbu dastur adliya organlari va yuridik xizmatlar xodimlariga moʻljallangan boʻlsa-da, uning mazmuni advokatlar uchun ham birdek dolzarbdir.

Shuningdek, qarorda xalqaro yoʻnalishdagi oʻquv dasturlari ham nazarda tutilgan: tinglovchilarning investitsiya va tijorat faoliyatida xalqaro huquq asoslarini oʻzlashtirishi, xalqaro xususiy va tijorat huquqi, xalqaro arbitrajning moddiy va protsessual normalarini amalda qoʻllash, ilgʻor advokatlik texnikasi, aktivlarni xalqaro qidirish va qaytarish texnikasi boʻyicha oʻqitish; 2025-yil 1-iyundan “**ingliz huquqining fundamental asoslari**” boʻyicha maxsus oʻquv kurslari, ularda shartnoma huquqi, arbitraj tartib-taomillari, investitsiya huquqi, advokatlik texnikasi, nizolarni muqobil hal qilish asoslari oʻqitilishi belgilangan. Ushbu dasturlar milliy advokaturaning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu borada oʻtgan davr mobaynida 2 marta shunday maxsus oʻquv kurslari tashkil etildi va katta qiziqish bilan kutib olindi.

Advokatlar malakasini oshirishni samarali tashkil etish maqsadida hali bir qator ishlarni amalga oshirish kerak boʻladi. Xususan, hozirda advokatlarning 3 yil bir marta malaka oshirishining aniq avtomatlashgan tizimini yoʻlga qoʻyish imkoniyati mavjud. Buni advokatlar palatasi bilan birgalikda e-advokat.uz platformasida hal etish mumkin.


Yuridik yordam tizimining samaradorligi faqat taklif tomoniga emas, talab tomoniga ham bog‘liq. Agar fuqaro o‘zining davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqi borligini bilmasa yoki uni qanday amalga oshirishni tushunmasa, tizim qanchalik mukammal qurilgan bo‘lmasin, u ushbu fuqaro uchun mavjud emas.

Ushbu nuqtai nazardan adliya organlarining huquqiy targ‘ibot faoliyati davlat hisobidan yuridik yordam tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Targ‘ibot ikki yo‘nalishda olib borilishi lozim: birinchisi – huquq haqida xabardor qilish (kimlar, qanday hollarda yordam olish huquqiga ega); ikkinchisi – tartib haqida xabardor qilish (qayerga, qanday murojaat qilish kerak, qanday hujjatlar talab etiladi).

Targ‘ibot shakllari sifatida quyidagilar samarali hisoblanadi: mahallalarda sayyor huquqiy maslahat kunlari; ijtimoiy himoya tizimi muassasalari (kam ta’minlangan oilalar bilan ishlaydigan organlar) orqali axborot tarqatish; sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar binolarida axborot stendlari; elektron va an’anaviy ommaviy axborot vositalari; ta’lim muassasalari orqali yoshlar bilan ishlash.

Ushbu faoliyatda adliya organlari va advokatura hamkorligi alohida samara beradi: adliya organi tashkiliy resurs va hududiy tarmoqqa ega, advokatura esa professional salohiyatga ega. Birgalikdagi targ‘ibot tadbirlari har ikki tomon uchun ham obro‘, ham amaliy natija beradi.

Bu borada davlat hisobidan yuridik yordam olish ko‘lamini kengaytirish uchun tartiblarni soddalashtirish va aholi xabardorligini oshirishi kerak.



Advokatlar uchun malaka oshirish kurslarida eng zarur deb hisoblangan mavzular

(Ko‘pi bilan uchta variant belgilangan)

So‘rovda qatnashgan 47 ta advokat malaka oshirish kurslarida eng zarur mavzu sifatida eng ko‘p sud nutqi mahorati va protsessual hujjatlar tayyorlashni (32 ta, 68,1%), advokat so‘rovi va dalil to‘plash texnikasini (28 ta, 59,6%) hamda raqamli vositalar, Legal Tech va sun’iy intellektni (26 ta, 55,3%) ko‘rsatgan. Xalqaro tijorat huquqi va arbitraj 23 ta (48,9%), kasb etikasi va manfaatlar to‘qnashuvi 21 ta (44,7%), davlat hisobidan yuridik yordam standartlari va tartiblari esa 17 ta (36,2%) advokat tomonidan tanlangan. Eng kam qiziqish ijtimoiy zaif guruhlar bilan ishlash mavzusiga (8 ta, 17,0%) qayd etildi. Natijalar advokatlar amaliy ko‘nikmalarga, ya’ni sud ishtiroki va dalil to‘plashga ehtiyoj sezishini ko‘rsatadi. Shuningdek, alohida javobda advokatlar kurslarni ixtisoslashtirishni, maxsus kurslar tashkil etishni taklif etishgan.

II bob bo‘yicha nazorat savollari

1. Norma ijodkorligida adliya organlari qanday ikki metodologik talabga rioya etishi lozim?
2. Idoraviy hujjatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish advokatlar huquqlarini muhofaza qilishga qanday xizmat qiladi?
3. Advokat maqomiga ega bo‘lish uchun qanday shartlar bajarilishi kerak?
4. Advokatlik guvohnomasini berish tartibini bosqichma-bosqich bayon eting. Muddatlar qanday?
5. 2025-yilgi islohotdan keyin malaka imtihonini qabul qilish qaysi hujjat bilan belgilangan?
6. Islohotlardan keyin adliya organlarida qanday vakolatlar saqlanib qoldi?
7. Advokatlik faoliyatini tashkil etishning qanday shakllari mavjud? Advokatlar hay’ati uchun a’zolar soniga qanday talab qo‘yilgan?
8. Advokat daxlsizligi qanday obyektlarga taalluqli?
9. Advokatlik siri jumlasiga nimalar kiradi?
10. Adliya organi rahbari taqdimnomasining huquqiy tabiati qanday? Uni qo‘llashda qanday chegaralarga rioya etish zarur?
11. Guvohnoma berishni rad etish asoslari ro‘yxati qat’iymi? Buning amaliy oqibati nima?
12. Alohida bo‘linma ochishda adliya organi ruxsat beradimi yoki xabardor qilinadimi? Farqi nimada?
13. Intizomiy taqdimnoma kiritishdan oldin qanday to‘rt savolga javob berilishi lozim?
14. Fuqaroning tayinlangan advokat faoliyatidan noroziligi bo‘yicha murojaati qayerga yo‘naltirilishi kerak va nima uchun?

15. Raqamlashtirishning advokatura uchun foydasi qanday uch darajada namoyon boʻladi?

16. “Yuridik yordam” axborot tizimi qanday funksiyalarni birlashtiradi?

17. Tizim operatori sifatida adliya organlari zimmasidagi toʻrt masʼuliyatni sanab oʻting.

18. 171-son qarorga koʻra 2025-yil 1-apreldan advokatura sohasida qanday tizim joriy etildi?

19. Oʻquv jarayonida amaliy mashgʻulotlar ulushiga qanday talab qoʻyilgan?

20. Institut oʻquv jarayoniga advokatlarni jalb etish huquqiga egami? Buning ahamiyati nimada?

21. “Raqamli institut” platformasining ikkita asosiy funksiyasini koʻrsating.

22. Kompetensiya pasporti va individual kasbiy rivojlanish dasturi nima?

23. Huquqiy targʻibot davlat hisobidan yuridik yordam tizimining samaradorligiga qanday taʼsir koʻrsatadi?

III BOB. DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM TIZIMI

3.1-§. Advokatura sohasidagi qonunchilikni ishlab chiqish va takomillashtirishda adliya organlarining ishtiroki

“Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida”gi Qonunga koʻra, davlat hisobidan koʻrsatiladigan yuridik yordam – Qonunda belgilangan tartib-taomillar va shartlarga muvofiq davlat hisobidan toʻliq yoki qisman koʻrsatiladigan, jismoniy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan malakali yuridik yordamdir. Ushbu taʼrifdagi “toʻliq yoki qisman” iborasi eʼtiborga molik: qonunchilik tabaqalashgan moliyalashtirish imkoniyatini konseptual jihatdan ochiq qoldirgan.

Qonunga muvofiq Adliya vazirligi ushbu sohada maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. “Maxsus vakolatli davlat organi” tushunchasi muayyan sohada davlat siyosatini amalga oshiruvchi, tartib-taomillarni belgilovchi va ularning bajarilishini taʼminlovchi yagona organ tayinlanganini anglatadi. Bu masʼuliyatni bir nuqtada jamlash orqali tizimning boshqariluvchanligini oshiradi va konstitutsiyaviy majburiyatni aniq ijrochiga bogʻlaydi.

Ushbu bob mavzusi nuqtai nazaridan eng muhim metodologik jihat vakolatlarning adliya tizimi ichida uch darajaga taqsimlanganidir. 774-son qaror bilan tasdiqlangan Nizom ushbu taqsimotni aniq belgilaydi.

Markaziy daraja – Adliya vazirligi

Vazirlik sohadagi davlat siyosatini belgilaydi, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi, “Yuridik yordam” axborot tizimini yuritadi, tizimni moliyalashtirish masalasi boʻyicha har yili navbatdagi davr uchun byudjet soʻrovlarini shakllantiradi hamda umumiy monitoringni amalga oshiradi.

Hududiy daraja – Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari

Nizomning 5-bandiga koʻra, hududiy adliya organlari zimmasiga quyidagi vazifa va funksiyalar yuklatilgan: reyestrga kirish istagini bildirgan advokatlar bilan davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida shartnomalar tuzish, ularni oʻzgartirish va bekor qilish; shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish; advokatlarni reyestrga kiritish, reyestrdan chiqarish va undagi maʼlumotlarni yangilab borish; davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokatlarning navbatchilik jadvalini tasdiqlash va eʼlon qilish.

Tuman (shahar) darajasi – adliya boʻlimlari

Nizomning 6-bandiga koʻra, tizimning kundalik ishini aynan tuman (shahar) adliya boʻlimlari olib boradi. Ularning vazifalari: davlat hisobidan yuridik yordam olish haqidagi murojaat va soʻrovlarni koʻrib chiqish; yuridik yordam koʻrsatish, koʻrsatishni rad etish va tugatish, advokatni almashtirish bilan bogʻliq harakatlarni amalga oshirish; "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali tanlangan yoki navbatchilik jadvaliga kiritilgan advokatni ishga jalb etish choralarini koʻrish; yuridik yordam koʻrsatilishi bilan bogʻliq maʼlumotlarni tekshirish; zaruratga koʻra, koʻrsatilgan yuridik yordamning sifati, turi, hajmi va muddatlarini tasdiqlash maqsadida yuridik yordam olgan jismoniy shaxslardan va ishni yuritayotgan vakolatli organdan (mansabdor shaxsdan) tegishli axborot va maʼlumotlarni soʻrab olish; xarajatlarning oʻrnini qoplash choralarini koʻrish. Hududiy adliya organlari esa adliya boʻlimlari tomonidan ushbu vazifalarning bajarilishini nazorat qilib boradi (Nizomning 7-bandi).

Ushbu uch darajali tuzilmaning amaliy ahamiyati katta. Birinchidan, u tizimni aholiga maksimal darajada yaqinlashtiradi: fuqaro viloyat markaziga emas, oʻz tumanidagi adliya boʻlimiga murojaat qiladi. Ikkinchidan, u nazorat va ijroni ajratadi: ijro – tuman darajasida, nazorat – hududiy darajada, siyosat – markaziy darajada. Uchinchidan, u har bir boʻgʻin uchun aniq javobgarlik doirasini belgilaydi, bu esa muammo yuzaga kelganda uning manbasini aniqlashni osonlashtiradi.

Tizimning ijtimoiy qamrovini aniqlash uchun kim yordam olishga haqli ekanini aniq bilish zarur. Nizomning 3-bandiga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam quyidagi jismoniy shaxslarga koʻrsatiladi:

– kam taʼminlangan shaxslar – agar ular fuqarolik ishlari boʻyicha daʼvogarlar yoki javobgarlar, maʼmuriy ishlar boʻyicha ariza beruvchilar, maʼmuriy qamoq tarzidagi maʼmuriy jazo nazarda tutilgan maʼmuriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar hamda jinoyat ishlari boʻyicha gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, shuningdek, mahkumlar boʻlsa;

– ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslar – ularga "Psixiatriya yordami toʻgʻrisida"gi Qonunga muvofiq psixiatriya yordami koʻrsatilayotganda;

– oʻz huquqlari buzilgan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida"gi Qonunda nazarda tutilgan teng huquqlilik buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan jismoniy shaxslar;

– Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq jinoyat ishi boʻyicha advokat ishtirok etishi shart boʻlgan taqdirda – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi.

Kam taʼminlangan shaxslarga fuqarolik va maʼmuriy sudlarga taalluqli ishlar boʻyicha yordam Nizomning 4-bandida belgilangan tugallangan roʻyxat doirasida koʻrsatiladi: ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash hamda toʻlash; ishga tiklash; ish haqini undirish; alimentlarni undirish; uyga kiritish, turar joydan foydalanish huquqini yoʻqotgan deb topish va koʻchirish; mehnatda mayib boʻlganlik yoki sogʻliqning boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek, boquvchining vafot etganligi tufayli yetkazilgan zararning oʻrnini qoplash; Fuqarolik kodeksining 991-moddasida nazarda tutilgan tartibda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlarining va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararning oʻrnini qoplash.

Ushbu roʻyxatning tahlili muhim qonuniyatni koʻrsatadi: unga kiritilgan ishlarning barchasi insonning ijtimoiy-iqtisodiy mavjudligiga bevosita bogʻliq: daromad manbai (ishga tiklash, ish haqi), yashash joyi (turar joy ishlari), taʼminot (nafaqa, aliment), sogʻliq va hayot (zarar qoplash) hamda davlat organlari noqonuniy harakatlaridan himoya. Bu qonun chiqaruvchining cheklangan resurslarni eng hayotiy ehtiyojlarga yoʻnaltirish siyosatini aks ettiradi. Ayni paytda roʻyxatning tugallanganligi masalasi muhokamaga ochiq: unga kiritilmagan, ammo ijtimoiy ahamiyati yuqori ishlar toifalari (masalan, oilaviy nizolar, meros masalalari, kam taʼminlangan shaxsning qarz majburiyatlari) mavjud.

Psixiatriya yordami koʻrsatilayotgan shaxslarga yuridik yordam tashxis qoʻyish, davolash va reabilitatsiya qilish, tibbiy yoʻsindagi majburlov choralarini qoʻllash, shuningdek, jinoyat, fuqarolik ishlari va maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ishlar boʻyicha sud-psixiatriya ekspertizasini oʻtkazish chogʻida koʻrsatiladi. Kam taʼminlangan mahkumlarga esa sudning hukmi, ajrimi va qarorlarini qayta koʻrib chiqishda hamda ularni ijro etish bilan bogʻliq masalalarni hal qilishda yordam beriladi, bu toifaning alohida ajratilishi muhim, zero hukm chiqqandan keyingi bosqich koʻpincha himoyasiz qoladi.

3.2-§. Advokatlar reyestri va murojaatlarni koʻrib chiqish tartibi

Reyestr – Qonunga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida shartnoma tuzgan advokatlar haqidagi

maʼlumotlar bazasidir. Reyestrga kirish ixtiyoriy: advokat oʻz xohishiga koʻra ariza beradi.

Reyestrga kiritish tartibi

Nizomga koʻra jarayon uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda advokat "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali tegishli hududiy adliya organiga reyestrga kirish haqida ariza yuboradi. Ikkinchi bosqichda hududiy adliya organi arizani uch ish kuni ichida koʻrib chiqadi va qanoatlantiradi yoki rad etadi; ariza qanoatlantirilgan taqdirda advokatga axborot tizimi orqali shartnoma yuboriladi. Uchinchi bosqichda advokat besh kun ichida shartnomani imzolaydi yoki rad etadi; belgilangan muddatda imzolanmasa, imzolash rad etilgan deb hisoblanadi. Shartnoma imzolangan taqdirda advokat avtomatik ravishda reyestrga kiritiladi.

Shartnoma Qonunning 13-moddasi talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi va hududiy adliya organi rahbari hamda advokatning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi. Shartnoma advokatning ixtiyoriga koʻra muddatli yoki muddatsiz tuzilishi mumkin; muddatli shartnoma olti oydan kam boʻlmagan muddatga tuziladi.

Reyestrga kirish haqidagi ariza uch holatda rad etiladi: advokatning maqomi toʻxtatib turilgan boʻlsa; advokatlik faoliyati bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziyasi tugatilgan boʻlsa; shartnoma tuzgan advokat yaqin hudud hisoblanmagan boshqa hududiy adliya organi bilan shartnoma tuzmoqchi boʻlsa. Ushbu roʻyxat tugallangan, boshqa asoslarga koʻra rad etish qonunga zid.

Uchinchi asos alohida izoh talab qiladi. Nizomda "yaqin hudud" tushunchasi ish koʻrib chiqilayotgan hududga yoki advokat shartnomasida tanlangan hududlarga 50 km dan ortiq boʻlmagan masofadagi hudud sifatida taʼriflangan. Demak, cheklov advokatning bir vaqtda bir-biridan uzoq hududlarda majburiyat olishining oldini olishga qaratilgan: aks holda u jismonan oʻz vaqtida yetib bora olmaydi va himoya huquqi formal boʻlib qoladi.

Reyestr mazmuni va ommaviyligi

Reyestr "Yuridik yordam" axborot tizimida shakllantiriladi va unda advokat haqida quyidagi maʼlumotlar koʻrsatiladi: reyestrdagi tartib raqami; familiyasi, ismi va otasining ismi; litsenziyaning berilgan sanasi va tartib raqami; advokatlik tuzilmasining nomi, joylashgan joyi va telefon raqami; advokat davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish istagini bildirgan hududlar nomi; ruxsat etilgan ixtisosliklar turlari; ish yuritish tili; ish vaqti; shartnoma haqidagi maʼlumotlar.

Nizomda alohida taʼkidlanadiki, reyestrdan barcha jismoniy va yuridik shaxslar foydalanishi mumkin, hududiy adliya organlari esa

reyestrdagi maʼlumotlarning toʻgʻri yuritilishi uchun masʼul hisoblanadi. Reyestrning ommaviyligi tizimning shaffofligini taʼminlovchi muhim kafolatdir: har qanday fuqaro oʻz hududida qaysi advokatlar davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatishini mustaqil koʻra oladi.

Reyestrdan chiqarish

Advokat toʻrt holatda reyestrdan chiqariladi: shartnomaning amal qilish muddati tugaganda; shartnoma bekor qilinganda; advokatning maqomi toʻxtatib turilganda; litsenziyasining amal qilishi tugatilganda.

Hududiy qamrov muammosi va uning qisman yechimi

Nizomning 18-bandiga koʻra, advokat shartnoma tuzgan hududiy adliya organi joylashgan hududdagi oʻzi tanlagan tuman (shahar)larda davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatadi. Bir hudud doirasida davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokat mavjud boʻlmagan taqdirda, ish koʻrib chiqilayotgan hududga eng yaqin boʻlgan hududda faoliyat koʻrsatayotgan advokat ishga jalb etilishi mumkin. Ushbu norma hududiy boʻshliq muammosiga qisman yechim beradi, ammo uni toʻliq hal etmaydi: u advokatni uzoqroqdan jalb etish imkonini beradi, lekin bunday advokatlarning umuman yetarli boʻlishini kafolatlamaydi.

Murojaatni qabul qilish va koʻrib chiqish

Nizomning 20-bandida muhim prinsip mustahkamlangan: davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun jismoniy shaxslar eksterritoriallik prinsipi asosida adliya boʻlimiga ogʻzaki, yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi. Eksterritoriallik prinsipining mazmuni shundaki, fuqaro oʻzining yashash joyidan yoki ish koʻrilayotgan joydan qatʼi nazar, har qanday adliya boʻlimiga murojaat qila oladi. Ushbu prinsip ayniqsa mehnat migratsiyasi, vaqtincha yashash yoki ozodlikdan mahrum qilish holatlarida muhim ahamiyatga ega.

Murojaat shakllarining uchtaligi ham eʼtiborga molik. Elektron shakldagi murojaatlar Yagona identifikatsiya tizimidan (OneID) roʻyxatdan oʻtgan holda “Yuridik yordam” axborot tizimi orqali yuboriladi. Ogʻzaki va yozma murojaatlar esa tegishli adliya boʻlimi tomonidan murojaat kelib tushgan kunning keyingi ish kunidan kechiktirmay axborot tizimiga kiritiladi. Ogʻzaki murojaat imkoniyatining saqlanishi ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan muhim: raqamli koʻnikmaga ega boʻlmagan yoki yozishga qiynaladigan shaxslar ham tizimga kira oladi.

Ariza tarkibiga qoʻyiladigan talablar Nizomning 21-bandida belgilangan: yordam oluvchi shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, JSHSHIR, pasport (ID-karta) raqami; shaxsiy telefon raqami;

ish koʻrib chiqilayotgan hudud; shaxs toifasi; ish turi va toifasi; ish yuritish tili; ishning mazmuni. Vakil orqali ariza berilganda ishonchnoma yoki vakolatni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, psixiatriya holatida tegishli maʼlumotnoma, teng huquqlilik ishlarida ish sudda koʻrilayotganligi haqida maʼlumotnoma talab etiladi.

Koʻrib chiqish natijasi boʻyicha axborot tizimida yordam koʻrsatish yoki koʻrsatishni rad etish toʻgʻrisida qaror qabul qilinadi va roʻyxatga olinadi. Rad etish asoslari Nizomning 25-bandida tugallangan roʻyxat shaklida berilgan: ariza yoki soʻrov Nizom va Qonun talablariga muvofiq boʻlmaganda; vakil vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmaganda; psixiatriya maʼlumotnomasi mavjud boʻlmaganda; teng huquqlilik ishi sudda koʻrilayotganligi haqidagi maʼlumotnoma mavjud boʻlmaganda; taqdim etilgan hujjatlarda yolgʻon yoki notoʻgʻri axborot mavjud boʻlganda; shaxsga ilgari aynan oʻsha taraflar oʻrtasidagi nizo yuzasidan ayni oʻsha predmet va asoslar boʻyicha huquqiy himoyaning barcha vositalari qoʻllanilgan holda yordam koʻrsatilgan boʻlsa (yangi ochilgan holatlar boʻyicha qayta koʻrish hollari bundan mustasno).

Rad etilgan taqdirda adliya boʻlimi ariza bergan shaxsni yoki soʻrov yuborgan organni rad etish sabablarini koʻrsatgan holda elektron yoki yozma ravishda darhol xabardor qiladi. Nizomda alohida belgilanadiki, rad etilganligi ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ushbu norma muhim kafolat boʻlib, adliya boʻlimining qarorini sud nazorati ostiga qoʻyadi.

3.3-§. Advokatni tanlash, almashtirish va yordamni tugatish

Tizimning eng muhim huquqiy yechimi advokatni tanlashning avtomatlashtirilishi. Nizomda “Yuridik yordam” axborot tizimi tasodifiy elektron tarzda tanlab olish yoʻli bilan jismoniy shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish uchun advokatlarni jalb etish va boshqa vazifalarni bajarish uchun moʻljallangan maxsus elektron axborot tizimi sifatida taʼriflangan.

Tanlov ikki bosqichli mantiq asosida ishlaydi. Avvalo, tizim ish koʻrib chiqilayotgan hudud boʻyicha advokatni tasodifiy elektron tarzda tanlaydi. Keyin “saralash” funksiyasi orqali quyidagilar hisobga olinadi: advokatning ixtisosligi; advokat shartnoma tuzgan hududlar boʻyicha ish koʻrib chiqilayotganligi; ish yuritilayotgan tilni bilish darajasi.

Ushbu konstruksiyaning huquqiy ahamiyatini alohida taʼkidlash zarur. Tarixan himoya huquqining realligi yoʻlidagi eng jiddiy tizimli muammolardan biri ishni yurituvchi mansabdor shaxsning oʻziga

“qulay” himoyachini jalb etish amaliyoti edi. Bunday holatda himoya formal jihatdan taʼminlangan koʻrinadi, ammo mazmunan ishlamaydi. Tasodifiylik prinsipi ushbu muammoni texnik yoʻl bilan hal etadi: advokatni na surishtiruvchi, na tergovchi, na sud, balki algoritm tanlaydi va bu tanlov oldindan koʻrib boʻlmaydigan boʻlgani uchun unga taʼsir koʻrsatish imkoniyati yoʻqoladi. Ayni paytda saralash funksiyasi tasodifiylikning sifatga zarar yetkazishining oldini oladi: tasodifiy tanlangan advokat baribir ish turi boʻyicha ixtisoslashgan va ish yuritiladigan tilni biladi.

Xabardor qilish va javob berish tartibi ham batafsil belgilangan. Tanlangan advokatning telefon raqamiga hamda axborot tizimidagi shaxsiy elektron kabinetiga ishni qabul qilish yoki rad etish haqida avtomatik ravishda SMS shaklida xabarnoma yuboriladi. Advokat shaxsiy kabineti orqali ishni qabul qiladi yoki rad etadi; rad etgan taqdirda rad etish asoslarini darhol axborot tizimiga kiritishi kerak.

Javob muddatlari ishning shoshilinchligiga qarab tabaqalashtirilgan: tanlangan advokat jinoyat va maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishlar boʻyicha **bir soat**, boshqa turdagi ishlar boʻyicha **besh ish soati** mobaynida ishni qabul qilishni rad etsa yoki xabarnomaga javob bermasa, tizim boshqa advokatni tanlaydi. Tanlash jarayoni tanlangan advokatlardan biri oʻz ishtirokini tasdiqlamaguniga qadar davom etadi.

Tizimning ishlamay qolishi yoki advokat topilmasligi holatlari uchun zaxira mexanizm, **navbatchilik jadvali**, nazarda tutilgan. Jinoyat va maʼmuriy huquqbuzarlik ishlari boʻyicha ikki soatdan ortiq vaqt davomida elektron tanlash yoʻli bilan advokat topilmagan yoki tanlangan advokatlarning hech biri ishni qabul qilmagan holatlar “kechiktirib boʻlmaydigan tergov harakatlarini oʻtkazish zarur” deb topilishi va navbatchilik jadvaliga asosan advokatni jalb qilishga asos boʻladi. Bundan tashqari, Nizomning 31-bandiga koʻra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud navbatchilik jadvaliga asosan advokatni jalb qilishi mumkin boʻlgan yana ikki holat mavjud: texnik muammolar sababli axborot tizimi orqali advokatni tanlash imkoniyati boʻlmaganda hamda dam olish yoki ishlanmaydigan bayram kunlari boshlanganda.

Navbatchilik jadvali hudud boʻyicha, bir hududda shartnoma tuzgan advokatlar topilmagan hollarda yaqin hududlar boʻyicha reyestrga kiritilgan advokatlar orasidan axborot tizimi orqali shakllantiriladi va hududiy adliya organi tomonidan har oyning birinchi sanasiga qadar tasdiqlanib, axborot tizimida eʼlon qilinadi. Jadvalning eʼlon qilinishi muhim kafolatdir: u mexanizmning shaffofligini taʼminlaydi va “qoʻlda tanlash”ga yoʻl qoldirmaydi.

Himoyaning uzluksizligi malakali yuridik yordamning sifat shartlaridan biridir: advokatning tez-tez almashishi ishni oʻrganish vaqtini yoʻqotishga va himoya strategiyasining buzilishiga olib keladi. Nizom ushbu prinsipni ikki norma orqali himoya qiladi.

Birinchidan, almashtirish asoslari tugallangan roʻyxat bilan cheklangan. Nizomning 32-bandiga koʻra, davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokat adliya boʻlimining qarori asosida toʻrt holatda boshqa advokat bilan almashtiriladi: advokat reyestrdan chiqarilganda; "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunning 7-moddasi ikkinchi qismida belgilangan holatlar qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tasdiqlanganda; advokat kasalligi sababli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik haqida tibbiy xulosa taqdim etganda; davlat hisobidan yuridik yordam oluvchi shaxsning murojaatiga asosan advokatga nisbatan intizomiy jazo chorasi qoʻllanilganda. Nizomda ochiq taʼkidlanadi: mazkur bandda koʻrsatilgan asoslardan tashqari boshqa hollarda advokatni almashtirishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Ikkinchidan, Nizomda bir advokatni boshqa advokat bilan almashtirish chogʻida davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatishning uzluksizligi taʼminlanishi shart qilib qoʻyilgan.

Yordamni tugatish asoslari esa Nizomning 33-bandida belgilangan: ariza bergan shaxsning arizasiga koʻra; shaxs "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"da kam taʼminlanganlar toifasidan chiqarilganda; shu ish boʻyicha shartnoma asosida boshqa advokat yordam koʻrsatayotgan boʻlsa; arizada koʻrsatilgan masala boʻyicha yuridik yordam sudning tegishli hukmi, qarori yoki ajrimi chiqarilganligi munosabati bilan yakunlanganda; psixiatriya yordamini koʻrsatish tugatilganda; shaxs vafot etgan, vafot etgan deb eʼlon qilingan yoki bedarak yoʻqolgan deb topilganda; shaxs advokatdan belgilangan tartibda yozma ravishda voz kechganda.

Ushbu holatlarning ayrimlarida xabardor qilish majburiyati fuqaroning oʻziga yoki psixiatriya muassasasiga yuklangan: tegishli holatlar yuzaga kelganda ular adliya boʻlimiga uch kun muddatda xabar berishi shart.

3.4-§. Koʻrsatilgan yordamni tasdiqlash, sifat monitoringi va moliyalashtirish

Koʻrsatilgan yordamni hujjatlashtirish tizimning moliyaviy va monitoring asosini tashkil etadi. Nizomda tasdiqlovchi hujjatlar sifatida davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatilganligi toʻgʻrisidagi maʼlumot-noma, shuningdek, yordam olish rad etilganligi haqidagi bayonnoma yoki advokatdan voz kechish toʻgʻrisidagi bayonnoma belgilangan.

Nizomning 34-bandida umumiy sifat talabi mustahkamlangan: reyestrga kiritilgan advokatlar davlat hisobidan yuridik yordamni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibga, shuningdek, Advokatning kasb etikasi qoidalari hamda ushbu sohaga oid boshqa hujjatlarga muvofiq sifatli koʻrsatishi shart.

Hujjatlashtirish muddatlari va tartibi

Advokat tasdiqlovchi hujjatlarni tegishincha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov va sud jarayoni, shuningdek, psixiatriya yordami koʻrsatish yakunlangan kundan boshlab bir oy muddat ichida axborot tizimiga kiritishi lozim. Maʼlumotnoma advokatning imzosi yoki elektron imzosi bilan tasdiqlanadi.

Tasdiqlovchi hujjatlarning protsessual harakatlarda advokatning ishtirok etishi haqidagi qismi ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud yoki boshqa vakolatli organ bilan uch ish kuni ichida axborot tizimi orqali elektron yoki yozma shaklda kelishiladi. Ushbu yerda Nizom juda muhim qoidani belgilaydi: agar mansabdor shaxs advokatning murojaatidan keyin uch ish kuni ichida tasdiqlovchi hujjatlarni kelishib bermasa, tasdiqlovchi hujjatlar kelishilgan deb hisoblanadi.

Ushbu norma "sukut – rozilik" qoidasi tizimdagi eng muvaffaqiyatli huquqiy yechimlardan biridir. U advokatni boshqa organning harakatsizligidan kelib chiquvchi moliyaviy xatardan himoya qiladi: bungacha bunday holatlarda advokat haq ololmay qolishi mumkin edi. Ayni paytda nazorat saqlanib qolgan: agar advokat tasdiqlovchi hujjatlarda oʻz ishtirokini belgilagan kunlarda amalda ishtirok etmagan boʻlsa, kelishish rad etiladi va rad etish asosi koʻrsatiladi.

Tekshirish va monitoring

Kelishilgandan soʻng tasdiqlovchi hujjatlar axborot tizimi orqali yordam koʻrsatilgan hududdagi adliya boʻlimiga yuboriladi. Adliya boʻlimi ularni kelib tushgan kundan eʼtiboran uch ish kuni ichida tekshiradi hamda haq toʻlash uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligining tuman (shahar) boʻlimiga yuboradi. Tekshirish natijalariga koʻra yolgʻon yoki notoʻgʻri maʼlumotlar aniqlangan taqdirda, ularni yuborish rad etiladi.

Sifat monitoringi masalasida Nizom nazariy jihatdan juda nozik va toʻgʻri yechim taklif etadi. Uning 39-bandiga koʻra, adliya boʻlimi advokat tomonidan koʻrsatilgan yuridik yordamning sifati, turi, hajmi va muddatlarini tasdiqlash maqsadida yordam olgan jismoniy shaxslardan va ishni yuritayotgan vakolatli organdan axborot va maʼlumotlar soʻrab olishga haqli, biroq shu zahoti belgilanadiki, ushbu axborot va maʼlumotlardan davlat hisobidan yuridik yordam

koʻrsatish sohasining umumiy monitoringini yuritish uchun foydalaniladi va ular haq toʻlashga taʼsir qilmaydi.

Ushbu ajratish, yaʼni monitoring va toʻlov oʻrtasidagi "devor" prinsipial ahamiyatga ega. Agar sifat bahosi toʻlovga bevosita taʼsir qilsa, davlat organi advokatning kasbiy faoliyatiga moliyaviy taraf orqali taʼsir koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻlar edi, bu esa advokat mustaqilligi prinsipiga zid. Amaldagi yechim davlatga tizimli tahlil uchun maʼlumot toʻplash imkonini beradi, ammo uni advokatga bosim vositasiga aylantirmaydi. Ushbu konstruksiya mazkur qoʻllanmaning I bobida bayon etilgan nazariy pozitsiyaning, taʼminlash va aralashmaslik chegarasining, amaldagi yorqin namunasidir.

Nizomda, shuningdek, advokatni ortiqcha hujjat tayyorlashdan himoya qiluvchi norma mavjud: davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokatdan yuridik yordam koʻrsatilganligini tasdiqlash uchun tasdiqlovchi hujjatlardan boshqa qoʻshimcha hujjatlar talab etilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Maʼlumotnoma shaklining oʻzi ham monitoring uchun boy manba boʻlib xizmat qiladi: unda advokatning tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov harakatlarida, birinchi instansiya, apellatsiya, kassatsiya va taftish instansiyasi sudlarida ishtirok etgan kunlari soni va sanalari, sudga ariza (daʼvo ariza) va shikoyat kiritilganligi haqidagi maʼlumotlar, shuningdek, ishda muvaffaqiyat qozonganligi haqidagi maʼlumotlar (fuqarolik yoki maʼmuriy ish boʻyicha sud qarori yordam olgan shaxs foydasiga chiqarilganligi, maʼmuriy huquqbuzarlik yoki jinoyat ishida shaxs jazodan ozod etilgani yoxud oqlov hukmi chiqarilgani) aks ettiriladi. Ushbu maʼlumotlar majmui tizimli tahlil uchun yetarli asos yaratadi.

Moliyaviy mexanizmning toʻgʻri qurilishi tizim barqarorligini belgilaydigan hal qiluvchi omildir. Nizom ushbu masalani batafsil tartibga soladi.

Moliyalashtirish uchun asos advokat tomonidan tasdiqlovchi hujjatlarning tegishli adliya boʻlimiga axborot tizimi orqali yuborilganligidir. Haq Nizomga 5-ilovada belgilangan miqdorlarda toʻlanadi. Ikki va undan ortiq shaxslarga bitta ishda yordam koʻrsatilganda, advokatga har bir ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) uchun belgilangan miqdorlarning 80 foizi miqdorida haq toʻlanadi, bu ish hajmi mutlaq mutanosib ortmasligini hisobga oluvchi oqilona yechim.

Xizmat safari va transport xarajatlari advokat shartnoma tuzgan joydan 50 km masofadan uzoq boʻlgan hududda yuridik yordam koʻrsatilgan hollarda qoplanadi. Ushbu norma hududiy qamrov muammosining moliyaviy jihatini qisman hal etadi.

To‘lov tartibi: Iqtisodiyot va moliya vazirligining tuman (shahar) bo‘limi tomonidan tasdiqlovchi hujjatlar kelib tushgandan so‘ng har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning birinchi o‘n besh kuni davomida advokatga u faoliyat yuritayotgan advokatlik tuzilmasining bank hisobvarag‘iga pul o‘tkazib berish yo‘li bilan haq to‘lanadi. Advokat almashtirilganda, yordam tugatilganda yoki ish yuritish to‘xtatib turilganda advokatga amalda ko‘rsatilgan yordam uchun haq to‘lanadi.

Tizimda xarajatlarni qaytarib olish mexanizmi ham nazarda tutilgan. Agar fuqarolik ishi bo‘yicha sudning hal qiluv qarori yordam ko‘rsatilgan shaxs foydasiga qabul qilingan bo‘lsa, sud ikkinchi tarafdan yordam bilan bog‘liq xarajatlarni Davlat byudjeti foydasiga undirib oladi (ikkala taraf ham yordam olish huquqiga ega bo‘lgan hollar bundan mustasno). Bundan tashqari, xarajatlar quyidagi hollarda tegishli shaxs tomonidan qoplanadi: fuqaro yordam olish huquqiga ega toifaga kirish maqsadida yolg‘on yoki chalg‘ituvchi ma’lumot taqdim etganligi aniqlanganda; yordamni tugatish asoslari vujudga kelgani haqida yordam oluvchi shaxs yoki psixiatriya muassasasi xabar bermaganda; advokat yordam ko‘rsatilganligi to‘g‘risida yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumot taqdim etganligi aniqlanganda. Ixtiyoriy ravishda qoplash rad etilsa, xarajatlar sud tartibida undiriladi.

Javobgarlik masalasi ham aniq taqsimlangan: davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatuvchi advokat ma’lumotnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgardir; tasdiqlovchi hujjatlarning protsessual ishtirokka oid qismini kelishgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud yoki boshqa vakolatli organ esa ma’lumotlarning kelishilgan qismiga javobgar hisoblanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligining tuman (shahar) bo‘limlari advokatlarga xarajatlarni Nizomda belgilangan miqdorda va muddatlarda to‘lab berishi shart.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish holati

№	Hudud nomi	Shartnoma tuzgan advokatlar	So‘rovlar soni
1.	Qoraqalpog‘iston R.	109	1 624
2.	Andijon vil.	320	2589
3.	Buxoro vil.	89	2266
4.	Jizzax vil.	139	1473
5.	Qashqadaryo vil.	203	1897

6.	**Namangan vil.**	**158**	**915**
7.	**Navoiy vil.**	**70**	**2 094**
8.	**Samarqand vil.**	**218**	**2601**
9.	**Sirdaryo vil.**	**83**	**1124**
10.	**Surxondaryo vil.**	**111**	**1394**
11.	**Xorazm vil.**	**126**	**1198**
12.	**Farg‘ona vil.**	**140**	**2 009**
13.	**Toshkent vil.**	**198**	**12 791**
14.	**Toshkent shahri**	**537**	**22 951**
Jami		**2501**	**56 926**

legal_aid_id	yuridik_yordam_turi	sud_sorovlari	iiv_sorovlari	jami
4	Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasi birinchi qismiga asosan jinoyat ishida advokatning ishtir	11707	2994	14701
1	Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi kam ta’minlangan shaxs sifatida “ijtimoiy himoya” yagona reyestr	9023	1283	10306
33	Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasi ikkinchi qismiga asosan, surishtiruvchi, tergovchi va prok	0	10080	10080
2	Psixiatriya yordami ko’rsatilayotgan shaxslar	159	4	163
3	Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilgan shaxslar	138	12	150
		21027	**14373**	**35400**

legal_aid_id	yuridik_yordam_turi	sud_sorovlari	iiv_sorovlari	jami
4	Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasi birinchi qismiga asosan jinoyat ishida advokatning ishtir	12940	4948	17888
33	Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasi ikkinchi qismiga asosan, surishtiruvchi, tergovchi va prok	0	17408	17408
1	Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi kam ta’minlangan shaxs sifatida “ijtimoiy himoya” yagona reyestr	9383	58	9441
2	Psixiatriya yordami ko’rsatilayotgan shaxslar	174	0	174
3	Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilgan shaxslar	41	0	41
		22538	**22414**	**44952**

Адвокатлар томонидан кўрсатилган юридик ёрдам учун 2027 йил бюджет параметрига режалаштириладиган маблағлар учун ТАКЛИФ

01.09.2026 йил ҳолатига *млн сўмда*

Т/Р	Ҳудуд номи	2024 йилги ижро		2025 йил бюджет параметрида режалаш-тирилган маблағ	2025 йилги ижро		2026 йил бюджет параметрида режалаш-тирилган маблағ	01.09.2026 йил ҳолатига ижро		01.09.2025 йил ҳолатига қарздорлик		Йил якунига қадар зарур маблағ (сентябр-декабрга)	2027 йил бюджет парамет-рига ТАКЛИФ
		Ишлар сони	Тўлаб берилган маблағ		Ишлар сони	Тўлаб берилган маблағ		Ишлар сони	Касса	Ишлар сони	суммаси		
Республика жами		**107 620**	**52 642**	**54 300**	**73 789**	**40 528**	**54 300**	**39 038**	**26 604**	**5 031**	**5 612**	**19 530**	**49 800**
1	Қорақалпоғистон Рес	1 584	827	**1 500**	835	552	**1 500**	964	739			761	**1 500**
2	Андижон вилояти	5 906	2 764	**2 500**	3 354	1 302	**2 500**	1 814	1 560	464	330	610	**2 500**
3	Бухоро вилояти	2 646	2 013	**2 500**	3 128	2 073	**2 500**	1 632	798	622	344	1 358	**2 500**
4	Жиззах вилояти	3 347	1 584	**1 700**	1 736	841	**1 700**	801	499	164	197	1 005	**1 500**
5	Қашқадарё вилояти	4 145	1 790	**2 000**	1 016	552	**2 000**	576	329	205	125	1 546	**2 000**
6	Навоий вилояти	4 743	1 478	**2 000**	3 012	1 302	**2 000**	811	396	70	35	804	**2 000**
7	Наманган вилояти	8 064	2 558	**2 300**	1 539	626	**2 300**	427	158			400	**1 000**
8	Самарқанд вилояти	4 611	1 762	**2 000**	2 353	990	**2 000**	1 316	609	385	212	1 391	**2 000**
9	Сурхондарё вилояти	2 466	1 081	**1 300**	1 191	522	**1 300**	805	480	79	49	528	**1 300**
10	Сирдарё вилояти	4 140	1 300	**1 300**	2 269	840	**1 300**	1 836	769	167	76	455	**1 300**
11	Тошкент вилояти	15 137	8 613	**7 500**	11 412	7 673	**7 500**	8 413	7 289	1 124	2 465	2 500	**9 500**
12	Фарғона вилояти	7 780	2 863	**4 000**	4 316	1 658	**4 000**	2 438	1 443	262	250	1 300	**3 000**
13	Хоразм вилояти	2 578	1 915	**1 700**	1 042	1 222	**1 700**	800	937			763	**1 700**
14	Тошкент шахри	40 473	22 094	**22 000**	36 586	20 374	**22 000**	16 405	10 599	1 489	1 528	6 111	**18 000**

Advokatlar tomonidan **“Yuridik yordam” axborot tizimi** orqali davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish tartibi

1. Tizimga kirish uchun Google Chrome, Opera, Mozilla, Firefox kabi zamonaviy internet brauzerlaridan foydalanish mumkin.




2. Internet tarmogʻiga ulangan foydalanuvchi qurilmasidagi veb brauzer manzil qatoriga https://e-advokat.uz manzili teriladi.



3. Yangi ochilgan sahifadan elektron raqamli imzo orqali e-advokat saytida shaxsiy profilga kiriladi.




4. Avvalo advokat davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokatlar reyestrga kirishi lozim. Reyestrga kirish istagini bildirgan advokat “Yuridik yordam” axborot tizimi orqali reyestrga kirish haqida tegishli hududiy adliya organiga ariza yuborishi kerak. Buning uchun boshqaruv paneli orqali arizalar boʻlimiga oʻtiladi.



5. Ushbu bo‘limdagi “**Ariza yaratish”** tugmasi bosilib ariza to‘ldiriladi.




6. So‘ng ariza to‘ldiriladi. Arizada **tuzilma hududi, yuridik yordam ko‘rsatish hududi (viloyat, shahar, tuman), ish yuritish tili, shartnoma muddati** ko‘rsatilishi kerak. Ushbular belgilangandan keyin **saqlash** tugmasi bosiladi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. Shundan so‘ng ariza shakllantirilib hududiy adliya organiga avtomatik tarzda yuboriladi.





7. Advokatning reyestrga kirish haqidagi arizasi hududiy adliya organlari tomonidan uch ish kuni ichida koʻrib chiqilib, ariza qanoatlantirilsa, hududiy adliya organi tomonidan shartnoma yuboriladi. Shartnoma advokat tomonidan imzolanganidan soʻng u reyestrga kiritiladi va davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatishi mumkin boʻladi.



8. Adliya boʻlimining davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisidagi qarori, shuningdek, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi (advokat) tayinlash toʻgʻrisidagi qarori yoki sudning ajrimi asosida ish koʻrib chiqilayotgan hudud boʻyicha advokat tasodifiy elektron tarzda tanlanadi.

№ [Case Number]-сонли

[1]АЖРИМ (ҳимоячи билан таъминлаш ҳақида)

2026 йил [Month] ойининг [Day] куни жиноят ишлари бўйича [Anonymized Relevantan Court Name] ўз биносида, очиқ суд мажлисида, судья [Judge Judge]-нинг раислигида, Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 25, 273-моддаси 5-қисми билан айбланган [Defendant 1 Fullname] ва [Defendant 1 Full Name] ва салончи [Defendant 2 Full name]-ларга оид № [Annymber]-сонли жиноят ишини кўриб чиқиб, қуйидагиларни

АНИҚЛАДИ:

Суд, судланувчи [Defendant 2 Fullname]-га унинг Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 46-моддасида кўрсатилган ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунтириш билан бир қаторда, унинг ҳимояга бўлган ҳуқуқини таъминлаш ва қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш учун тайинлов асосида судланувчининг ҳимоячиси тариқасида ишга жалб қилишни лозим деб топади.

Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 24-моддасига кўра, гумон қилинувчи, айбланувчи ва судланувчи ҳимояланиш ҳуқуқига эга.

Ҳимояланиш ҳуқуқи суриштирувчи, терговчи, прокурор, суд зиммасидаги гумон қилинувчига, айбланувчига ва судланувчига унга берилган ҳуқуқларни тушунтириб бериш ҳамда у ўзига қўйилган айбловдан ҳимояланиш учун қонунда назарда тутилган барча восита ва усуллардан фойдаланишда ҳақиқий имкониятга эга бўлишига қаратилган чора-тадбирлар кўриш мажбурияти билан таъминланади.

Шунингдек, суд Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 24, 50-51 моддалари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг тегишли қарорига асосан, иш бўйича судланувчига ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш ва унинг ҳимоя ҳуқуқини таъминлаш мақсадида, уни давлат ҳисобидан ҳимоячи билан таъминлаш ҳамда ҳимоячи хизмати учун ҳақни [Anonymized Relevant Economic Body] томонидан ундиришни лозим деб топади.

суд

Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 24, 50,51,423-моддаларига амал қилиб,

АЖРИМ

ҚИЛДИ:

Судланувчи, [Defendant 2 Fullame]-га давлат ҳисобидан ҳимоячи ажратилсин ва унинг ҳуқуқ ва манфаатларини суд мажлисида ҳимоя қилишда [Anonymized Date and Time]-га иштирок этиш учун тайинлов асосида адвокат жалб қилинсин.

Судланувчи, [Defendant 2 Fullme]-га ҳимоячи томонидан кўрсатилган юридик ёрдам учун ҳақ тўлашдан озод қилинсин ва ҳимоячининг хизмати бўйича харажатлар давлат ҳисобига ўтказилсин.

Ҳимоячи суд мажлисида қатнашганлиги учун хизмат ҳақини тўлаш, [Anonymized Relevant Department for Justice] ва шу [Anonymized Relevant Justice] [Anonymized Relevant Financial Body]'га юборилсин.

Адвокатнинг хизмат ҳақи ажримга илова маълумотномада кўрсатилган миқдорда адвокатлик бюросининг банк ҳисоб рақамига бир ойлик муддатда ўтказилсин.

Раислик қилувчи
[Anonymized Judge]

ҚАРОР

[Шаҳар номи] шаҳри

[Туман номи] тумани ИИО ФМБ тузувидаги тергов бўлими терговчиси [Унвон] [Терговчининг Ф.И.Ш.], иш юритувимда бўлган [Иш рақами]-сонли жиноят иши ҳужжатлари билан танишиб чиқиб, қуйидагиларни

АНИҚЛАДИМ:

Мазкур жиноят иши бўйича фуқаро [Гумонланувчининг Ф.И.Ш.]ни Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг [Модда рақами]-модда [Қисм рақами]-қисмада назарда тутилган жиноятни содир этганликда гумон қилинувчи тариқасида жалб қилинаётганлиги, унга иш бўйича ўзининг шахсий манфаатига ҳимоячи ёнлаши лозимлиги тушунтирилди.

Шунда, фуқаро [Гумонланувчининг Ф.И.Ш.] олиб борилаётган тергов жараёнини англай олмаётганлиги, ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш учун адвокат хизматига муҳтожлигини, бироқ у моддий томондан қийналганлиги, шахсий маблағи эвазига ҳимоячи ёнлаш имконияти йўқлигини билдирди.

Шу боис, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 21-ноябр 774-сонли қарори ҳамда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг 02.12.2018 йилдаги 1878-сонли қўшма қарорига асосан фуқаро [Гумонланувчининг Ф.И.Ш.]га давлат ҳисобидан адвокат билан таъминлаш ва "Юридик ёрдам" ахборот тизими орқали мурожаат қилиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайман.

Юқоридагиларга ва Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 36, 50 ва 51 моддаларига асосан,

ҚАРОР ҚИЛДИМ:

1. [Иш рақами]-сонли жиноят иши бўйича гумонланувчи [Гумонланувчининг Ф.И.Ш.]ни дастлабки тергов жараёнида ҳимоя ҳуқуқини таъминлаш мақсадида ҳимоячини ажратиш борасида "Юридик ёрдам" ахборот тизими орқали мурожаат қилинсин.
2. Қарор нусхасини таъминлаш мақсадида "Электрон жиноий-ҳуқуқий статистика" электрон базаси орқали "Юридик ёрдам" ахборот тизимига кўроа киритилсин.
3. Адвокатга ҳақ тўланилиш хизмати [Туман номи] тумани Иқтисодиёт ва Молия бўлимига юборилсин.
4. Маълумот учун [Туман номи] туман Адлия бўлимига юборилсин.

[Туман номи] тумани ИИО ФМБ

ТБ терговчиси [Унвон] [Терговчининг Ф.И.Ш.]




9. Tanlangan advokatning telefon raqamiga hamda “Yuridik yordam” axborot tizimidagi shaxsiy elektron kabinetiga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish uchun ishni qabul qilish yoki rad etish haqida **“SMS” shaklida xabarnoma yuboradi.**

10. Sms xabarnoma orqali kelgan so‘rovni qabul qilish yoki rad qilish, so‘rovnoma tafsilotlarini bilish uchun e-advokat saytida so‘rovlar jurnali bo‘limiga kiriladi va so‘rov tafsilotlari bilan tanishib chiqiladi. Shundan so‘ng advokat tomonidan so‘rov qabul qilinadi yoki rad etiladi.



142594-sonli so‘rov qabul qilinmagan shu sababli och ko‘k rangda belgilangan. Agar so‘rov advokat tomonidan qabul qilinadigan bo‘lsa, qalamcha ustiga bosiladi. Agar so‘rov advokat tomonidan rad qilinadigan bo‘lsa, bekor qilish belgisi bosiladi va bekor qilish sababi izohda yozib ketiladi.

11. Davlat hisobidan yuridik yordam advokat tomonidan ko‘rsatilgandan oxirgi kundan boshlab bir oy ichida e-advokat tizimiga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatilganlikni tasdiqlovchi ma’lumotnoma shakllantirilishi kerak.



Shundan so‘ng ma’lumotnomani shakllantirish uchun qaysi organda, qaysi bosqichda va qaysi kunlari davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatilganligi hamda ish raqami kiritilib, ERI bilan ma’lumotnoma tasdiqlanadi.



12. Tasdiqlangan ma’lumotnoma yuborish tugmasi orqali tergov organiga yoki sudga yuboriladi.



13. Tergov organi yoki sud ma’lumotnomani tasdiqlab bergandan keyin adliya organi tomonidan ma’lumotnoma to‘lovga tasdiqlanadi va iqtisodiyot va moliya bo‘limiga yuboriladi.



14. Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatgan advokatga u faoliyat yuritayotgan advokatlik tuzilmasining bank hisobvarag‘iga pul o‘tkazib berish yo‘li bilan haq to‘lanadi. Pullar tasdiqlovchi hujjatlar kelib tushgandan so‘ng har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning birinchi o‘n besh kuni davomida to‘lab beriladi.

3.5-§. Tizimning amaliyoti, kuchli tomonlari va hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar

Ushbu yo‘nalish nisbatan yangi bo‘lganligi sababli, amaliyotda bir qator savollar tug‘ilishi tabiiy.

Advokatni tanlashga tashqi ta’sir ko‘rsatishga urinish

Tizimning mantiqi advokatning avtomatik tanlanishiga asoslangan. Amaliyotda esa ish yurituvchi mansabdor shaxsning

muayyan advokatni "tavsiya qilishi" holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bunday harakatlar tizimning mazmunini yoʻqqa chiqaradi va himoya huquqining buzilishiga olib keladi.

Advokatning ishda ishtirok etishni rad etishi va navbatchilik jadvaliga oʻtish

Nizomga koʻra advokat rad etish asoslarini darhol axborot tizimiga kiritishi shart. Amaliyotda rad etish asoslarining tahlili muhim boshqaruv vositasidir: agar ayrim advokatlar muntazam rad etsa, bu yoki ularning haqiqiy yuklamasi yuqoriligini, yoki tizimga formal munosabatda boʻlayotganini koʻrsatadi. Har ikki holat ham qaror talab qiladi, birinchisida reyestrni kengaytirish, ikkinchisida esa shartnoma shartlarini qayta koʻrib chiqish.

Alohida kuzatuv predmeti – bu navbatchilik jadvaliga oʻtish holatlarining ulushi. Jinoyat va maʼmuriy huquqbuzarlik ishlari boʻyicha ikki soat davomida elektron tanlash yoʻli bilan advokat topilmasa, vaziyat "kechiktirib boʻlmaydigan tergov harakatlarini oʻtkazish zarur" deb topiladi va advokat navbatchilik jadvali asosida jalb qilinadi. Ushbu mexanizm zaruratdan kelib chiqqan zaxira yoʻli boʻlib, uning ulushi yuqori boʻlishi tizimning asosiy tasodifiy tanlov mexanizmi ishlamayotganidan dalolat beradi. Shu bois hudud kesimida navbatchilik jadvali ulushini muntazam kuzatib borish adliya organlari uchun tavsiya etiladi: ulush ortgan hududda reyestrdagi advokatlar soni yetarli emas degan xulosaga kelish mumkin.

Advokatni almashtirish

Nizomning 32-bandiga koʻra advokat toʻrt holatda almashtiriladi: advokat reyestrdan chiqarilganda; "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunning 7-moddasi ikkinchi qismida belgilangan holatlar tasdiqlanganda; advokat kasalligi sababli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik haqida tibbiy xulosa taqdim etganda; yordam oluvchi shaxsning murojaatiga asosan advokatga nisbatan intizomiy jazo chorasi qoʻllanilganda. Nizomda ochiq belgilanadiki, ushbu asoslardan tashqari boshqa hollarda advokatni almashtirishga yoʻl qoʻyilmaydi va almashtirish chogʻida yordam koʻrsatishning uzluksizligi taʼminlanadi. Amaliyotda eng koʻp uchraydigan xato fuqaroning subyektiv noroziligini ("advokat yoqmadi") almashtirish asosi deb qabul qilishdir; bunday asos Nizomda nazarda tutilmagan.

Rad etish asoslarini qoʻllash

Nizomning 25-bandidagi rad etish asoslari tugallangan roʻyxat boʻlib, ularni keng talqin qilish konstitutsiyaviy huquqning asossiz cheklanishiga olib keladi. Amaliyotda ikki xato koʻproq uchrashi mumkin.


Birinchisi, hujjat yetishmasligini rad etish asosi deb qabul qilish. Nizomda vakil vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar, psixiatriya maʼlumotnomasi va teng huquqlilik ishi sudda koʻrilayotganligi haqidagi maʼlumotnoma adliya boʻlimi tomonidan davlat organlari oʻrtasidagi elektron axborot almashinuvi tizimlari orqali mustaqil ravishda olinishi mumkinligi belgilangan. Demak, ushbu maʼlumotlarni fuqarodan talab qilishdan oldin ularni idoralararo tizim orqali olishga urinish zarur.

Ikkinchisi, takroriy murojaat cheklovini keng qoʻllash. Norma aniq shartlarga bogʻlangan: aynan oʻsha taraflar, aynan oʻsha predmet, aynan oʻsha asoslar va huquqiy himoyaning barcha vositalari qoʻllanilgan boʻlishi shart; yangi ochilgan holatlar boʻyicha qayta koʻrish esa bu cheklovdan istisno. Ushbu toʻrt shartning har biri bajarilmasa, rad etish asossizdir.

Har qanday rad etishda adliya boʻlimi fuqaroni yoki soʻrov yuborgan organni sabablarini koʻrsatgan holda darhol xabardor qilishi shart, fuqaro esa rad etish ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega. Shu bois rad etish qarori hamisha sud nazorati ehtimoli bilan yozilishi, yaʼni asoslari aniq va hujjatlar bilan tasdiqlangan boʻlishi kerak.

Yuqorida bayon etilgan tahlil asosida tizimning quyidagi kuchli tomonlarini ajratish mumkin: konstitutsiyaviy normaning aniq ijrochiga bogʻlanganligi; vakolatlarning uch darajaga mantiqiy taqsimlanganligi; eksterritoriallik prinsipi; tasodifiy elektron tanlov va saralash funksiyasining uygʻunligi; javob muddatlarining ishning shoshilinchligiga qarab tabaqalashtirilganligi; zaxira mexanizmning (navbatchilik jadvali) mavjudligi va uning shaffofligi; “sukut – rozilik” qoidasi; monitoring va toʻlov oʻrtasidagi “devor”; reyestrning ommaviyligi; rad etish ustidan sud nazorati.

Hal etilishi lozim boʻlgan masalalar esa quyidagilardir. Birinchidan, hududiy qamrov: amaldagi normalar yaqin hududdan advokat jalb etish imkonini beradi, ammo advokatlarning hududlar boʻyicha yetarli boʻlishini kafolatlamaydi. Ikkinchidan, yordam koʻrsatiladigan ishlar toifalari roʻyxatining tugallanganligi: ijtimoiy ahamiyati yuqori boʻlgan ayrim toifalar unga kiritilmagan. Uchinchidan, haq miqdorlarining real darajada saqlanishi: Nizomda indeksatsiyalash qoidasi nazarda tutilmagan. Toʻrtinchidan, sifat monitoringi uchun maʼlumot toʻplanmoqda, ammo uni tahlil qilish va natijalarini qoʻllash metodikasi shakllanmagan.



Davlat hisobidan yuridik yordam tizimida birinchi navbatda takomillashtirilishi zarur bo‘lgan yo‘nalishlar (advokatlar fikri)
(Ko‘pi bilan uchta variant belgilangan)

So‘rovda qatnashgan 47 ta advokatning 31 tasi (66,0%) davlat hisobidan yuridik yordam tizimida birinchi navbatda haq miqdorini oshirish va uni muntazam indeksatsiyalashni zarur deb hisoblagan. Ikkinchi o‘rinda tasdiqlovchi hujjatlarni kelishish tartibini soddalashtirish (25 ta, 53,2%), uchinchi o‘rinda ish murakkabligiga qarab tabaqalashgan haq joriy etish va to‘lov muddatlarini qisqartirish (har biri 21 ta, 44,7%) turadi. Olis hududlar uchun hududiy koeffitsiyentlarni 9 ta (19,1%), avtomatik tanlash algoritmini takomillashtirishni 11 ta (23,4%) advokat tanlagan.

III bob bo‘yicha nazorat savollari

1. Davlat hisobidan ko‘rsatiladigan yuridik yordam tushunchasiga ta’rif bering. “To‘liq yoki qisman” iborasining mazmuni nimada?
2. Tizimda vakolatlar qanday uch darajaga taqsimlangan? Har bir daraja qanday vazifalarni bajaradi?
3. Davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega shaxslarning to‘rt toifasini sanab o‘ting.
4. Kam ta’minlangan shaxslarga fuqarolik va ma’muriy ishlar bo‘yicha qaysi toifadagi ishlarda yordam ko‘rsatiladi?
5. Reyestrga kiritish jarayonining uch bosqichini va ularning muddatlarini ko‘rsating.
6. “Yaqin hudud” nima va reyestrga kirish cheklovidagi mantiq nimadan iborat?

7. Reyestr ommaviymi? Uning to‘g‘ri yuritilishi uchun kim mas’ul?

8. Eksterritoriallik prinsipi nimani anglatadi va uning amaliy ahamiyati nimada?

9. Advokatni tanlashda tasodifiylik va saralash funksiyalari qanday uyg‘unlashtirilgan?

10. Advokatning javob berish muddatlari qanday tabaqalashtirilgan?

11. Navbatchilik jadvali qanday uch holatda qo‘llaniladi va u qanday tartibda tasdiqlanadi?

12. Advokatni almashtirishning to‘rt asosini sanab o‘ting. Boshqa asoslar bilan almashtirish mumkinmi?

13. “Sukut – rozilik” qoidasi nima va u qanday xatardan himoya qiladi?

14. Nima uchun sifat monitoringi ma’lumotlari haq to‘lashga ta’sir qilmasligi belgilangan?

15. Ikki va undan ortiq ishonch bildiruvchi bo‘lganda haq qanday miqdorda to‘lanadi?

16. Haq qanday muddatda va qayerga to‘lanadi?

17. Xarajatlar qaysi hollarda fuqaro yoki advokat tomonidan qoplanadi?

18. Davlat hisobidan yuridik yordamda advokatni almashtirishning qanday asoslari mavjud?

IV BOB. XORIJIY TAJRIBA VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

4.1-§. Xalqaro standartlar va xorijiy modellar: qiyosiy tahlil

Mazkur paragrafda xorijiy tajriba advokatura faoliyatining umumiy masalalari boʻyicha emas, balki davlat organlarining, ayniqsa adliya vazirliklarining advokaturani taʼminlashdagi roli kesimida oʻrganiladi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt

Paktning (1966-yil; Oʻzbekiston Respublikasi 1995-yilda qoʻshilgan) 14-moddasida jinoiy ayblov qoʻyilgan har bir shaxsning oʻzi tanlagan himoyachi orqali himoyalanish, himoyachi bilan aloqa qilish, shuningdek, unda yetarli mablagʻ boʻlmagan hollarda adolat manfaatlari taqozo etganda haq toʻlamasdan himoyachi tayinlanishi huquqlari belgilangan. Ushbu norma davlatning ikkita pozitiv majburiyatini oʻrnatadi: himoyachi bilan aloqa uchun sharoit yaratish va bepul himoyani moliyalashtirish.[2]

BMTning Yuristlarning roli toʻgʻrisidagi asosiy prinsiplari

1990-yilda Gavanada BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga munosabat boʻyicha VIII Kongressida qabul qilingan mazkur hujjat davlatlar zimmasiga quyidagi vazifalarni yuklaydi: barcha shaxslarning yurist xizmatidan samarali va teng foydalanishini taʼminlash; yuristlarning oʻz kasbiy vazifalarini tahdid, toʻsiq va nooʻrin aralashuvlarsiz bajarishiga kafolat berish; yuristlarni mijozlari yoki ularning ishlari bilan tenglashtirmaslik; yuristlarning kasbiy uyushmalari mustaqil boʻlishini va oʻzini oʻzi boshqarishini taʼminlash.[3]

Ushbu hujjatning mazkur qoʻllanma mavzusi uchun ahamiyati shundaki, u davlat vazifalarini aniq ikkiga ajratadi: taʼminlash (yurist xizmatidan foydalanish imkoniyati) va aralashmaslik (kasbiy faoliyatga).

Yevropa yurist kasbining asosiy prinsiplari xartiyasi

Yevropa advokaturalar va huquqiy hamjamiyatlar kengashi (CCBE) tomonidan 2006-yilda qabul qilingan ushbu xartiya yurist kasbining asosiy prinsiplarini belgilaydi, jumladan: advokatning

[2] International Covenant on Civil and Political Rights, art. 14 (3) (b), (d). URL: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights (murojaat sanasi: 2026-yil 15-avgust).

[3] Basic Principles on the Role of Lawyers. Adopted by the Eighth United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders, Havana, Cuba, 27 August – 7 September 1990, principles 1–2, 16, 24. URL: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-role-lawyers (murojaat sanasi: 2026-yil 15-avgust).

mustaqilligi; kasbiy sirni saqlash; manfaatlar toʻqnashuviga yoʻl qoʻymaslik; mijoz manfaatlarini ustun qoʻyish; kasbiy bilimni doimiy takomillashtirish; kasbiy oʻzini oʻzi boshqarish. Xartiyada kasbiy bilimni doimiy takomillashtirish alohida prinsip sifatida ajratilishi eʼtiborga molik: bu uzluksiz kasbiy taʼlim tizimining xalqaro eʼtirof etilgan zarurat ekanini koʻrsatadi.[4]

Germaniya: mahalliy adliya boshqarmalarining roli

Germaniyada advokatlik faoliyati 1959-yildagi Federal advokatura toʻgʻrisidagi nizom (Bundesrechtsanwaltsordnung, BRAO) bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatda advokat odil sudlovning mustaqil organi sifatida taʼriflanadi, bu taʼrif advokatning davlat tizimidan tashqarida turuvchi, ammo odil sudlovni amalga oshirishda konstitutsiyaviy vazifa bajaruvchi subyekt ekanini koʻrsatadi.[5]

Kasbiy boshqaruv hududiy advokatlar palatalari (Rechtsanwaltskammern) va ularni birlashtiruvchi Federal advokatlar palatasi (Bundesrechtsanwaltskammer, BRAK) tomonidan amalga oshiriladi. Advokatlikka qabul qilish, advokatlar hisobini yuritish va intizomiy nazorat palatalar vakolatidadir.

Davlatning, xususan, mahalliy (Land) darajasidagi adliya boshqarmalarining roli ikki yoʻnalishda namoyon boʻladi. Birinchisi, yuridik taʼlim va kasbga kirish standartlarini taʼminlash: Germaniyada yurist boʻlish uchun ikki davlat imtihonini topshirish talab etiladi, ularni mahalliy adliya idoralari huzuridagi imtihon komissiyalari oʻtkazadi. Ikkinchisi, palatalar faoliyati ustidan huquqiy nazorat (Rechtsaufsicht): bu maqsadga muvofiqlik nazorati emas, faqat qonuniylik nazorati, yaʼni davlat palataning qarorlari mazmunini emas, ularning qonunga muvofiqligini tekshiradi.

Germaniya tajribasidan Oʻzbekiston uchun ikki xulosa kelib chiqadi. Birinchisi, kasbga kirish standartlarining yuqoriligi davlat tomonidan taʼminlanishi mumkin va bu kasbiy mustaqillikka zid emas, agar standartlarni qoʻllash kasbiy hamjamiyatga topshirilsa. Ikkinchisi, "huquqiy nazorat" konstruksiyasi, yaʼni davlat nazoratini faqat qonuniylik bilan cheklash oʻzini oʻzi boshqarishni himoya qilishning samarali huquqiy vositasidir.

Fransiya: aide juridictionnelle tizimini boshqarish

[4] Charter of Core Principles of the European Legal Profession. Council of Bars and Law Societies of Europe (CCBE), Brussels, 24 November 2006 (keyingi tahrirlar bilan). URL: https://www.ccbe.eu/fileadmin/speciality_distribution/public/documents/DEONTOLOGY/DEON_CoC/EN_DEON_CoC.pdf (murojaat sanasi: 2026-yil 15-avgust).

[5] Bundesrechtsanwaltsordnung (BRAO) vom 1. August 1959 (BGBl. I S. 565), keyingi oʻzgartirishlar bilan. § 1 (advokatning odil sudlovning mustaqil organi sifatidagi maqomi), §§ 60–91 (advokatlar palatalari), § 62 (huquqiy nazorat). Rasmiy matn: https://www.gesetze-im-internet.de/brao/BJNR005650959.html; inglizcha tarjimasi: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_brao/englisch_brao.pdf (murojaat sanasi: 2026-yil 15-avgust).

Fransiyada advokatlik kasbi 1971-yil 31-dekabrdagi 71-1130-son Qonun asosida tartibga solinadi. Har bir sud okrugida mustaqil advokatlar hayʼati (barreau) faoliyat yuritib, uni advokatlar tomonidan saylanadigan rais (bâtonnier) boshqaradi. Milliy darajada Milliy advokatlar kengashi (Conseil national des barreaux) kasbiy qoidalarni birxillashtiradi va vakillik qiladi.[6]

Adliya vazirligining roli uch yoʻnalishda: kasbga kirish talablarini normativ belgilash; kasb toʻgʻrisidagi qonunchilikni ishlab chiqish; davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yuridik yordam (aide juridictionnelle) tizimini boshqarish.

Fransiya tajribasining eng qiziqarli jihati – yuridik yordamni moliyalashtirishning tabaqalashgan modelidir: yordam daromad darajasiga qarab toʻliq yoki qisman (muayyan foizda) qoplanadi. Ushbu model ikkita muammoni bir vaqtda hal etadi: bir tomondan, yordam oluvchilar doirasini kengaytiradi (nafaqat eng kam taʼminlanganlar, balki oʻrtacha daromadli shaxslar ham qisman yordam ola oladi), ikkinchi tomondan, byudjet yukini mutanosib taqsimlaydi.

Oʻzbekiston uchun ushbu tajriba istiqbolda, davlat hisobidan yuridik yordam tizimi barqarorlashgandan keyin qoʻllanilishi mumkin boʻlgan yoʻnalishni koʻrsatadi.

Angliya va Uels: ixtisoslashgan agentlik modeli

Angliya va Uelsda yuridik kasb ikkiga boʻlingan (solicitor va barrister) boʻlib, kasbiy tartibga solish mustaqil regulyatorlar (jumladan, Solicitors Regulation Authority) tomonidan amalga oshiriladi. Davlatning roli esa boshqa sohada, ya’ni bepul yuridik yordamni (legal aid) boshqarishda namoyon boʻladi.

Ushbu vazifani Adliya vazirligi (Ministry of Justice) huzuridagi ixtisoslashgan ijro agentligi – Legal Aid Agency bajaradi. Agentlik yuridik yordam koʻrsatuvchi provayderlar bilan shartnomalar tuzadi, arizalarni koʻrib chiqadi, yordam koʻrsatilganligi uchun haq toʻlaydi va xizmat sifati ustidan nazorat yuritadi.[7]

Ushbu modelning Oʻzbekiston uchun ahamiyati shundaki, u bepul yuridik yordamni tashkillashtirishni alohida ixtisoslashgan tuzilmaga topshirish gʻoyasini koʻrsatadi. Oʻzbekistonda hozircha ushbu vazifa Adliya vazirligining umumiy tuzilmasi doirasida bajarilmoqda. Tizim hajmi oʻsib borgan sari ixtisoslashgan boʻlinma

[6] Loi n° 71-1130 du 31 décembre 1971 portant réforme de certaines professions judiciaires et juridiques, art. 15, 17, 21-1 (barreau, bâtonnier, Conseil national des barreaux). URL: https://www.legifrance.gouv.fr/jorf/id/JORFTEXT000000508793 (murojaat sanasi: 2026-yil 15-avgust).

[7] Legal Aid Agency — Buyuk Britaniya Adliya vazirligi huzuridagi ijro agentligi; 2013-yil 1-aprelda Legal Aid, Sentencing and Punishment of Offenders Act 2012 asosida tashkil etilgan. URL: https://www.gov.uk/government/organisations/legal-aid-agency (murojaat sanasi: 2026-yil 15-avgust).

yoki muassasa tashkil etish masalasi dolzarblashishi mumkin. Biroq bugungi kunda bunga ehtiyoj mavjud emas koʻrinadi.

Rossiya va Qozogʻiston: reyestr va kafolatlangan yuridik yordam

Rossiya Federatsiyasi

Rossiyada 2002-yil 31-maydagi 63-FZ-son "Advokatlik faoliyati va advokatura toʻgʻrisida"gi Federal qonun amal qiladi. Advokat maqomini berish vakolati subyektlardagi advokatlar palatalari huzuridagi malaka komissiyalariga tegishli; komissiya tarkibiga advokatlar bilan bir qatorda adliya organi, qonun chiqaruvchi organ va sudlar vakillari ham kiradi. Adliya vazirligining hududiy organlari esa advokatlar reyestrini yuritadi va advokat guvohnomasini rasmiylashtiradi.[8]

Ushbu konstruksiyani Oʻzbekiston bilan solishtirish qiziqarli natija beradi. Har ikki davlatda ham guvohnoma (reyestr) – adliya organida, malaka imtihoni – kasbiy hamjamiyatda.

Qozogʻiston Respublikasi

Qozogʻistonda 2018-yil 5-iyulda qabul qilingan "Advokatlik faoliyati va yuridik yordam toʻgʻrisida"gi Qonun amal qiladi. Ushbu qonunning oʻziga xos jihati, u advokatura bilan bir qatorda yuridik yordamning butun tizimini, shu jumladan yuridik konsultantlar institutini yagona hujjat doirasida qamrab oladi hamda davlat kafolatlagan yuridik yordamni koʻrsatishning elektron tizimini nazarda tutadi.[9]

Qozogʻiston tajribasidan ikki xulosa kelib chiqadi. Birinchisi, yuridik xizmatlar bozorini yaxlit, yagona qonun doirasida tartibga solish imkoniyati. Ushbu yondashuv Oʻzbekistonda ham muhokama qilinmoqda: yuqorida qayd etilgan V.X.Davlyatov dissertatsiyasida advokatura va advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tizimlashtirish orqali yagona qonunni qabul qilish zarurligi asoslab berilgan edi. Ikkinchisi, davlat kafolatlagan yuridik yordamda yagona raqamli platformadan foydalanish, bu Oʻzbekistondagi "Yuridik yordam" tizimi bilan konseptual jihatdan hamohangdir.

Qiyosiy xulosalar va implementatsiya imkoniyatlari

Oʻrganilgan modellarni tahlil qilish quyidagi umumiy qonuniyatlarni koʻrsatadi.

---

[8] Федеральный закон от 31.05.2002 № 63-ФЗ "Об адвокатской деятельности и адвокатуре в Российской Федерации", ст. 9, 33 (квалификационная комиссия), ст. 14–15 (реестр адвокатов, удостоверение). Rasmiy e'lon: Собрание законодательства РФ, 10.06.2002, № 23, ст. 2102. URL: https://minjust.gov.ru/ru/documents/7885/ (murojaat sanasi: 2026-yil 15-avgust).

[9] Закон Республики Казахстан от 5 июля 2018 года № 176-VI "Об адвокатской деятельности и юридической помощи", ст. 26–30 (гарантированная государством юридическая помощь), ст. 39–41 (аттестация, лицензия). URL: https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1800000176 (murojaat sanasi: 2026-yil 15-avgust).

Barcha oʻrganilgan davlatlarda kasbga qabul qilish va intizomiy nazorat kasbiy hamjamiyatga tegishli. Davlat standartlarni belgilaydi, ammo ularni qoʻllashga bevosita aralashmaydi.

Koʻpchilik oʻrganilgan davlatlarda reyestr yuritish va maqomni rasmiylashtirish davlat organida qoladi. Bu tasodifiy emas: reyestr davlat ishonchi obyekti boʻlib, uning yuritilishi uchun davlat javobgardir.

Aksariyat oʻrganilgan davlatlarda bepul (davlat kafolatlagan) yuridik yordam davlat byudjetidan moliyalashtiriladi va adliya vazirligi tomonidan yoki uning huzuridagi ixtisoslashgan tuzilma orqali boshqariladi.

Raqamlashtirish barcha zamonaviy tizimlarning umumiy tendensiyasidir: elektron reyestrlar, avtomatlashtirilgan taqsimlash, elektron hisob-kitob.

Uzluksiz kasbiy taʼlim rivojlangan tizimlarda kasbiy standartning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ushbu qonuniyatlar fonida Oʻzbekiston modeli quyidagi xususiyatlarga ega: kasbga kirish sohasida xalqaro standartlarga toʻliq muvofiq; reyestr va rasmiylashtirish sohasida tipik model; davlat hisobidan yuridik yordamda tizim yaratilgan va rivojlanmoqda, avtomatik taqsimlash mexanizmi jihatidan ilgʻor; raqamlashtirishda sezilarli ilgarilash mavjud; uzluksiz kasbiy taʼlimda ham zamonaviy standartlarga yaqinlashmoqda.

Implementatsiya qilish mumkin boʻlgan yechimlar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: Germaniyadan “huquqiy nazorat” konstruksiyasini qonunda aniq mustahkamlash; Fransiyadan yuridik yordamni tabaqalashtirib moliyalashtirish modeli; Angliyadan ixtisos-lashgan agentlik modeli (tizim ish hajmi oshgan taqdirda); Qozogʻistondan yuridik xizmatlar sohasini yaxlit tartibga solish gʻoyasi.

4.2-§. Amaliyotdagi muammolar kartasi

Yuqorida bayon etilgan tahlilni umumlashtirib, amaliyotdagi tipik muammolarni va ularning sabablarini quyidagicha guruhlash mumkin.

Idoralararo oʻzaro taʼsir muammolari

Advokat huquqlarining taʼminlanishi koʻp hollarda adliya tizimidan tashqaridagi organlarga bogʻliq. Adliya organlarining boshqa idoralarga taʼsir koʻrsatish imkoniyati cheklangan. Yechim – idoralararo hamkorlik mexanizmlarini institutsionallashtirish.

Axborot va tahlil yetishmovchiligi

Sohadagi koʻplab jarayonlar statistik kuzatilmaydi, bu asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Yechim – raqamli

monitoring tizimlarini kengaytirish va muntazam tahliliy hisobotlar tayyorlash.

Hududiy notekislik

Yuridik yordam infratuzilmasi hududlar bo‘yicha notekis taqsimlangan. Yechim – rag‘batlantiruvchi mexanizmlar va masofaviy shakllar.

Ushbu amaliy kuzatuvlarni tizimli shaklga keltirish uchun quyida adliya organlarining advokaturani ta’minlash faoliyati SWOT-tahlil mantiqida baholanadi.

Kuchli tomonlar

- Mustahkam konstitutsiyaviy asos: 29- va 141-moddalar davlat majburiyatini aniq belgilaydi.
- Kasbga kirish sohasida xalqaro standartlarga muvofiq model shakllantirilgan.
- Davlat hisobidan yuridik yordamning yaxlit, qonun darajasida mustahkamlangan tizimi mavjud.
- Avtomatik taqsimlash mexanizmi – mintaqada ilg‘or yechim.
- Ma’muriy tartib-taomillar raqamlashtirilgan va muddatlari juda qisqa (1 - 2 ish kuni).
- Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining huquqiy asosi yaratilgan.

Zaif tomonlar

- Sohadagi qonunchilik tarqoq: ikkita asosiy qonun (349-I va 721-I) va ulardagi ko‘p sonli o‘zgartishlar huquqni qo‘llashni murakkablashtiradi.
- Yuridik yordam infratuzilmasi hududiy jihatdan notekis taqsimlangan.
- Ko‘rsatilayotgan yuridik yordam sifatini baholashning xolis metodikasi to‘liq shakllanmagan.
- Advokat so‘rovlari ijrosi statistik kuzatilmaydi, shu bois muammoning haqiqiy ko‘lami noma’lum.
- Axborot tizimlarining o‘zaro integratsiyasi tugallanmagan.

Imkoniyatlar

- “Raqamli institut” platformasining joriy etilishi malaka oshirishni individuallashtirish imkonini beradi.
- Legal Tech va sun’iy intellekt dasturlarining ishlab chiqilishi sohaning texnologik darajasini ko‘taradi.
- Institut negizida adliya organlari xodimlari va advokatlarning qo‘shma o‘quvlarini tashkil etish imkoniyati.
- Xalqaro hamkorlik va grant loyihalarini jalb qilish imkoniyati.

Xatarlar

- Davlat hisobidan yuridik yordam uchun haq miqdorining real darajadan ortda qolishi tizimga qiziqishni pasaytirishi mumkin.

- Malaka imtihonlari vakolati kasbiy hamjamiyatga oʻtkazilgach, standartlar pasayishi yoki shaffoflik muammolari yuzaga kelishi mumkin.

- Raqamli tizimlarga bogʻliqlikning oshishi ularning ishdan chiqishi holatida protsessual muddatlar buzilishi xatarini tugʻdiradi.

4.3-§. Normativ-huquqiy takomillashtirish takliflari

Mazkur paragrafda ilgari surilayotgan takliflar ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruh, muhokamadan oʻtgan qonun loyihasida oʻz yechimini topgan masalalar; ularga nisbatan vazifa yangi taklif kiritish emas, balki loyiha qabul qilingan taqdirda uning ijrosini taʼminlash choralarini oldindan belgilashdir. Ikkinchi guruh, loyiha doirasidan tashqarida qolgan va kelgusida hal etilishi lozim boʻlgan masalalar.

Qonun loyihasida yechim topgan masalalar va ularning ijrosi

Qoʻllanmaning oldingi boblarida aniqlangan muammolarning sezilarli qismi qonun loyihasida oʻz aksini topgan. Xususan: advokat soʻroviga javob berilmasligi uchun javobgarlik kuchaytirilmoqda va sanksiya bazaviy hisoblash miqdorining oʻn baravaridan oʻn besh baravarigacha miqdorda belgilanmoqda; soʻrov boʻyicha maʼlumot bepul olinishi qonun darajasida mustahkamlanmoqda; advokat soʻrovi sud ekspertizasini tayinlash asoslaridan biri deb eʼtirof etilmoqda; notarial harakatlar va davlat kadastrlari maʼlumotlari advokat soʻrovi doirasiga kiritilmoqda; intizomiy javobgarlikning muddatlari va litsenziya bilan bogʻliq vakolatlar aniqlashtirilmoqda.

Ushbu normalar qabul qilingan taqdirda adliya organlari zimmasida quyidagi vazifalar turadi. Birinchidan, yangi majburiyatlarni ijro etuvchi subyektlar, davlat organlari xodimlari, notariuslar, sud-ekspertiza muassasalari va kadastr organlari xodimlari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va oʻquv dasturlarini tashkil etish. Ikkinchidan, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni yangi normalarga muvofiqlashtirish, zero loyihada respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari oʻz hujjatlarini qayta koʻrib chiqishlari nazarda tutilgan. Uchinchidan, stajirovkadan ozod qilish va talaba-yordamchilar instituti joriy etilishi munosabati bilan guvohnoma berish va hisob yuritish tartiblarini aniqlashtirish.

Qonunchilikni tizimlashtirish

Asos. Hozirda advokatura sohasi ikkita alohida qonun – 1996-yildagi "Advokatura toʻgʻrisida"gi va 1998-yildagi "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi

to‘g‘risida”gi qonunlar bilan tartibga solinadi. Har ikkisiga o‘ttiz yil davomida o‘nlab o‘zgartishlar kiritilgan. Buning ustiga, davlat hisobidan yuridik yordam alohida qonun bilan tartibga solinadi. Natijada huquqni qo‘llovchi uchta qonun va ularga ilova qilinadigan o‘nlab qonunosti hujjatlari bilan ishlashga majbur. Ushbu holat V.X.Davlyatov dissertatsiyasida ham qayd etilib, hujjatlarni tizimlashtirish zarurligi asoslab berilgan edi.

Mexanizm. Ikki muqobil yo‘l mavjud. Birinchisi, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunni yangi tahrirda, 721-I-son Qonun normalarini unga singdirgan holda qabul qilish. Ikkinchisi, Qozog‘iston tajribasiga o‘xshash yagona “Advokatura va yuridik yordam to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va unda uchta amaldagi qonun predmetini birlashtirish. Har ikki holda ham yangi tahrirda adliya organlari va Advokatlar palatasi vakolatlari taqsimoti, axborot almashinuvi tartibi hamda hamkorlikning institutsional shakllari alohida bob yoki moddalar bilan aniq belgilanishi lozim.

Kutilayotgan natija. Huquqni qo‘llashning soddalashuvi, normalar o‘rtasidagi ziddiyatlarning bartaraf etilishi, advokatlar va adliya organlari xodimlari uchun huquqiy aniqlikning oshishi.

Ushbu taklifning dolzarbligi qonun loyihasi misolida yana bir bor tasdiqlanadi: advokatura institutini takomillashtirish uchun sakkizta turli qonun hujjatiga bir vaqtda o‘zgartirish kiritishga to‘g‘ri kelmoqda. Bu tarqoqlikning obyektiv ko‘rsatkichidir. Shu bois navbatdagi bosqichda soha qonunchiligini yagona hujjatda tizimlashtirish masalasi kun tartibiga qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

Advokatlar palatasi raisini saylash tartibini takomillashtirish to‘g‘risidagi taklif

Adliya organlari va advokatura munosabatlarining kelajagi nuqtai nazaridan eng prinsipial masalalardan biri Advokatlar palatasi raisini saylash tartibidir.

Amaldagi normaga ko‘ra, Advokatlar palatasining raisi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining taqdimnomasiga binoan Advokatlar palatasining Konferensiyasi tomonidan, ushbu Konferensiya saylagan Boshqaruv a’zolari orasidan besh yil muddatga saylanadi.

Ushbu tartibni baholashda ikki holatdan kelib chiqish zarur. Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoniga 1-ilova sifatida tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 88-maqsadi advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish va malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirishni belgilab, advokatura institutini o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish hamda uning davlat organlari va

boshqa tuzilmalardan chinakam mustaqilligini taʼminlashni maqsad qilgan *(Hujjat kuchini yoʻqotgan 17.02.2026)*. Ikkinchidan, advokatura rivojlangan davlatlarda kasbiy hamjamiyat oliy organi rahbari ushbu hamjamiyatning barcha aʼzolari tomonidan saylanadi, mazkur qoʻllanmaning 4.1-paragrafida koʻrib chiqilgan Germaniya va Fransiya modellari bunga misoldir.

Shu bois ushbu masalada ikki muqobil yechim taklif etiladi.

Birinchi, oraliq yechim, taqdimnoma institutini saqlagan holda uni maslahatlashuv sharti bilan yumshatish va saylovchilar doirasini kengaytirish:

"Advokatlar palatasining raisi Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Advokatlar palatasi Boshqaruvi aʼzolari bilan maslahatlashuvlar oʻtkazilganidan soʻng kiritilgan taqdimnomasiga binoan Advokatlar palatasining barcha aʼzolari tomonidan Advokatlar palatasi Boshqaruvi aʼzolari orasidan uch yil muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs ketma-ket ikki muddatdan ortiq Advokatlar palatasining raisi boʻlishi mumkin emas".

Ikkinchi, toʻliq yechim, taqdimnoma institutidan voz kechish:


"Advokatlar palatasining raisi Advokatlar palatasining barcha aʼzolari tomonidan Advokatlar palatasi Boshqaruvi aʼzolari orasidan uch yil muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs ketma-ket ikki muddatdan ortiq Advokatlar palatasining raisi boʻlishi mumkin emas. Saylov oʻtkazish tartibi Advokatlar palatasining Konferensiyasi tomonidan belgilanadi".

Raisni lavozimidan muddatidan oldin chaqirib olish tartibini ham shunga mos ravishda, Palata ustavida belgilangan hollarda Adliya vazirligining taqdimnomasiga binoan yoxud Boshqaruv aʼzolarining koʻpchiligi tashabbusiga koʻra Konferensiya tomonidan amalga oshiriladigan tarzda, bayon etish maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, ushbu ikki variantdan birini tanlash islohotning umumiy mantigʻidan kelib chiqishi lozim. Qoʻllanmaning I bobida koʻrsatilganidek, davlat va advokatura munosabatlarining zamonaviy modeli davlat ishtirokini huquqiy tartibga solish, infratuzilma va moliyalashtirish bilan cheklab, kasbiy oʻzini oʻzi boshqarishni hamjamiyatga qoldirishni nazarda tutadi; kasbiy uyushma rahbarini saylash esa oʻzini oʻzi boshqarishning oʻzak elementidir. Shu bois uzoq muddatli istiqbolda ikkinchi variant maqsadga muvofiq boʻlsa-da, oʻtish davrida birinchi variant, ya'ni taqdimnomani saqlagan holda unga majburiy maslahatlashuv shartini qoʻshish va saylovchilar doirasini barcha aʼzolarga kengaytirish amaliy jihatdan asosli yechim hisoblanadi.

Har qanday holatda ham taʼkidlash lozimki, ushbu masalaning qanday hal etilishi adliya organlarining sohadagi qolgan

vakolatlariga: huquqiy tartibga solish, guvohnomalarni rasmiylashtirish, reyestrlarni yuritish, davlat hisobidan yuridik yordamni tartibga solish, raqamli infratuzilma va kadrlar tayyorlashga ta'sir ko'rsatmaydi; o'zgarish faqat kasbiy o'zini o'zi boshqarish sohasiga tegishlidir.



Advokatlar palatasi raisini saylash tartibiga advokatlarning munosabati

So'rovda qatnashgan 47 ta advokatning 25 tasi (53,2%) taqdimnoma institutini bekor qilib, Palata raisini Palataning barcha a'zolari saylashini ma'qullagan. Yana 5 tasi (10,6%) taqdimnomani saqlab, unga Boshqaruv a'zolari bilan maslahatlashuv shartini qo'shish va saylovchilar doirasini kengaytirishni qo'llab-quvvatlagan. Amaldagi tartibni saqlab qolishni faqat 3 ta advokat (6,4%) ma'qullagan, 8 tasi (17,0%) aniq fikrga ega emasligini bildirgan. Boshqa javoblar 6 tani (12,8%) tashkil etdi. Shunday qilib, taqdimnomani saqlash yoki saqlamaslikdan qat'i nazar, saylovchilar doirasini kengaytirish tarafdorlari 30 ta (63,8%) advokatni tashkil qildi.

Advokat so'rovi institutini kuchaytirishning qo'shimcha yo'nalishlari

Advokat so'roviga javob berilmasligi amaliyotdagi eng ko'p qayd etiladigan muammolardan biri. Javobgarlik mexanizmi mavjud bo'lsa-da, uning qo'llanilishi buzilish faktining qayd etilishiga bog'liq, qayd etilgan holatlarda oxiriga yetkazish bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda.

Mexanizm. Birinchidan, advokat so'rovlarini elektron yuborish va ijrosini kuzatish modulini "Yuridik yordam" tizimida yoki yagona idoralararo elektron hujjat aylanishi tizimida joriy etish. Ikkinchidan, so'rovga javob bermaslik yoki muddatni buzish holatlari avtomatik qayd etilishi va tegishli organga xabar berilishi tartibini belgilash. Uchinchidan, ma'lumot berishni rad etish asoslarini qonunda aniq va tugallangan ro'yxat shaklida belgilash.

Kutilayotgan natija. Soʻrovlar ijrosi ustidan obyektiv monitoring, muammoning real koʻlamini aniqlash imkoniyati, ijro intizomining oshishi.

Loyihada javobgarlik kuchaytirilayotganini hisobga olgan holda, ushbu yoʻnalishdagi asosiy ehtiyoj endi sanksiyani oshirish emas, balki buzilish faktini qayd etish mexanizmini yaratishdir: soʻrovlarni elektron yuborish va ularning ijrosini kuzatish moduli joriy etilmasa, kuchaytirilgan javobgarlik amalda qoʻllanilmay qolishi mumkin.

Davlat hisobidan yuridik yordam uchun haq miqdorlarini indeksatsiyalash

Haq miqdorlarini yillik ravishda qayta koʻrib chiqish ish toifasi, bosqichi va murakkabligi boʻyicha tabaqalashgan koeffitsiyentlar tizimini joriy etish; olis hududlarda faoliyat yurituvchi advokatlar uchun hududiy koeffitsiyent nazarda tutish.

Kutilayotgan natija. Reyestrdagi advokatlar sonining oʻsishi, hududiy qamrovning kengayishi, tizimning moliyaviy barqarorligi.

Takliflarning umumlashtirilgan roʻyxati va ularning ijro mexanizmi

Mazkur qoʻllanmada ilgari surilgan normativ-huquqiy takliflarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksiga: advokatning oshkora sud majlisining audio- va videoyozuvini olish huquqi (19-modda); protsessual qarorlar bilan ishning har qanday bosqichida tanishish, nusxa olish va shikoyat qilish hamda protsess ishtirokchilariga savol berish huquqi (53-modda); himoyachi murojaatlarini besh kun ichida koʻrib chiqish va natijasi haqida bir kun ichida xabar berish; xoli uchrashuvdagi tarjimonning guvoh sifatida soʻroq qilinmasligi (115-modda); sirtdan qamoqqa olish ajrimi ustidan yetmish ikki soat ichida shikoyat qilish (241-modda); sud majlisi bayonnomasi yuzasidan mulohazalar berish muddatining nusxa olingan paytdan hisoblanishi (427-modda).

"Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunga: malaka komissiyalarining vazifalariga advokatga malaka darajasi berish funksiyasini kiritish (13-modda); advokatlik sirining subyektlar doirasini stajyor va yordamchi hisobiga kengaytirish (10-modda); xorijiy davlatlarga soʻrov yuborish institutini joriy etish va uning tartibini belgilash vakolatini Adliya vazirligiga yuklash (6-modda).

"Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida"gi Qonunga: advokat daxlsizligiga oid harakatlarda prokuror sanksiyasidan sud ajrimiga oʻtish (6-modda).

Tarmoq qonunchiligiga: bank siri maʼlumotlarining advokat soʻroviga asosan berilishi ("Bank siri toʻgʻrisida"gi Qonunning 9 va 12-mod-

dalari); ekspertiza natijalari haqida manfaatdor shaxsning advo-katiga xabar qilish (“Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasi); himoyachi bilan uchrashuvlar soni va muddatining cheklanmasligi hamda elektron vositalardan foydalanish (“Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida”gi Qonunning 22-moddasi).

Ushbu takliflar qabul qilingan taqdirda adliya organlari zimmasida quyidagi vazifalar turadi. Birinchidan, advokat tomonidan xorijiy davlatlarga so‘rov yuborish va javob olish tartibi to‘g‘risidagi idoraviy hujjatni Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda ishlab chiqish. Bu mutlaqo yangi tartibga solish predmeti bo‘lib, unda so‘rov yuboriladigan holatlar doirasi, hujjatlarga qo‘yiladigan talablar, muddatlar va xalqaro shartnomalar bilan bog‘liq cheklovlar aniq belgilanishi lozim. Ikkinchidan, advokatga malaka darajasi berish va uni hisobga olish qoidalarini ishlab chiqib, malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizomda aks ettirish. Uchinchidan, bank muassasalari, sud-ekspertiza muassasalari hamda qamoqda saqlash joylari ma’muriyati uchun advokat so‘rovi va uchrashuv tartibiga oid uslubiy tavsiyalar tayyorlash va tegishli xodimlarni o‘qitishni tashkil etish. To‘rtinchidan, protsessual muddatlar va xabardor qilish majburiyatlarining bajarilishi bo‘yicha monitoringni raqamli vositalar yordamida yo‘lga qo‘yish.

4.4-§. Institutsional va raqamli hamkorlikni rivojlantirish

Qo‘shma konsultativ kengash

Asos. Hozirda Adliya vazirligi va Advokatlar palatasi o‘rtasidagi muloqot asosan aniq masalalar yuzasidan, holatga qarab amalga oshiriladi. Doimiy faoliyat yurituvchi institutsional platformaning yo‘qligi muammolarning tizimli hal etilishiga to‘sqinlik qiladi.

Mexanizm. Adliya vazirligi va Advokatlar palatasi o‘rtasida qo‘shma konsultativ kengash tashkil etish; uning tarkibiga har ikki tomondan teng sonda vakillar, shuningdek, Institut va ilmiy doiralar vakillarini kiritish; faoliyat davriyligini (masalan, chorakda bir marta) va vakolat doirasini (qonun loyihalarini muhokama qilish, huquqni qo‘llash amaliyotidagi muammolarni aniqlash, qo‘shma tavsiyalar qabul qilish) nizom bilan belgilash.

Kutilayotgan natija. Norma ijodkorligi sifatining oshishi, muam-molarning erta aniqlanishi, o‘zaro ishonchning mustahkamlanishi.

Hududiy darajadagi muloqot

Asos. Ko‘plab amaliy masalalar hududiy darajada hal etiladi: guvohnoma berish, tuzilmalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, davlat hisobidan yuridik yordamni tashkil etish.

Mexanizm. Hududiy adliya organlari va Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari oʻrtasida davriy qoʻshma yigʻilishlar oʻtkazish amaliyotini joriy etish; hududiy darajada yagona aloqa nuqtasini (masʼul xodimni) belgilash.

Kutilayotgan natija. Amaliy masalalarning tezkor hal etilishi, hududlardagi oʻziga xos muammolarning hisobga olinishi.

Advokatning yagona shaxsiy kabinetini kengaytirish

Ushbu taklifni shakllantirishda amaldagi holatdan kelib chiqish zarur: e-advokat.uz platformasida advokatning shaxsiy elektron kabineti allaqachon mavjud va u orqali davlat hisobidan yuridik yordam boʻyicha ishni qabul qilish yoki rad etish amalga oshirilmoqda. Demak, vazifa yangi kabinet yaratish emas, balki mavjud kabinet funksionalini kengaytirishdir.

Asos. Hozirda advokat turli masalalar boʻyicha turli tizimlar va tartib-taomillar bilan ishlaydi. Yagona kirish nuqtasining yoʻqligi vaqt yoʻqotishga olib keladi.

Mexanizm. "Yuridik yordam" tizimi negizida advokatning yagona shaxsiy kabinetini yaratish; unda guvohnoma maʼlumotlari, tuzilma toʻgʻrisidagi maʼlumotlar, davlat hisobidan yuridik yordam boʻyicha tayinlanishlar va hisob-kitoblar, malaka oshirish holati va kreditlar, advokat soʻrovlari va ularning ijrosi, elektron davlat xizmatlariga murojaat imkoniyati jamlanishi.

Kutilayotgan natija. Maʼmuriy yukning sezilarli kamayishi, advokatning kasbiy faoliyatga ajratadigan vaqtining oshishi.

Axborot tizimlarining integratsiyasi

Asos. "Yuridik yordam" tizimi, sud axborot tizimlari, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" va boshqa tizimlar oʻrtasidagi integratsiya qisman amalga oshirilgan.

Mexanizm. Tizimlararo maʼlumot almashinuvi protokollarini belgilash; sud ishlari harakati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning "Yuridik yordam" tizimiga avtomatik uzatilishini yoʻlga qoʻyish; takroriy maʼlumot kiritishni bartaraf etish.

Kutilayotgan natija. Jarayonlarning tezlashuvi, xatolarning kamayishi, monitoring imkoniyatlarining kengayishi.

Sifat monitoringining raqamli metodikasi

Asos. Sifat baholashning xolis metodikasi hali shakllanmagan.

Mexanizm. Tizim maʼlumotlari asosida obyektiv koʻrsatkichlarni avtomatik hisoblash (protsessual hujjatlar mavjudligi, muddatlarga rioya etish, himoya ostidagi shaxs bilan uchrashuvlar qayd etilishi); yordam oluvchilardan qisqa elektron soʻrovnoma orqali fikr yigʻish; natijalarni kasbiy hamjamiyat bilan birgalikda tahlil qilish. Bunda advokatning huquqiy pozitsiyasini baholash monitoring predmetiga kiritilmasligi qatʼiy belgilanishi shart.

Kutilayotgan natija. Tizim samaradorligini obyektiv baholash imkoniyati, zaif joylarni aniqlash va maqsadli chora koʻrish.

Sunʼiy intellekt vositalaridan foydalanish boʻyicha uslubiy tavsiyalar

Asos. 171-son qarorda Legal Tech va sunʼiy intellekt kompleks oʻquv dasturini ishlab chiqish topshirilgan. Ayni paytda bunday vositalardan foydalanishning etik va kasbiy chegaralari belgilanmagan.

Mexanizm. Institut tomonidan yuristlar, shu jumladan advokatlar uchun sunʼiy intellekt vositalaridan foydalanish boʻyicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish; ularda, jumladan, advokatlik sirini saqlash talablari (mijoz maʼlumotlarini ochiq platformalarga kiritish taqiqi), natijalarni majburiy tekshirish talabi, masʼuliyat masalasi yoritilishi.

Kutilayotgan natija. Texnologiyalardan xavfsiz va samarali foydalanish madaniyatining shakllanishi.

4.5-§. Davlat hisobidan yuridik yordamni rivojlantirish va "yoʻl xaritasi"

Ushbu yoʻnalishda uchta taklif ilgari suriladi.

1. Hududiy qamrovni kengaytirish dasturi. Reyestrda advokat yetishmaydigan tumanlarni aniqlash; ushbu hududlarda faoliyat yurituvchi advokatlar uchun ragʻbatlantiruvchi koeffitsiyentlar joriy etish; masofaviy maslahat shakllarini qonunchilikda mustahkamlash; hududlarda sayyor yuridik yordam kunlarini tashkil etish.

2. Yordam turlarini kengaytirish. Hozirgi tizim asosan protsessual vakillik va himoyaga yoʻnaltirilgan. Istiqbolda suddan tashqari yordam turlarini (hujjat tayyorlash, huquqiy maslahat, mediatsiyada ishtirok) kengaytirish koʻrib chiqilishi mumkin, bu nizolarning erta bosqichda hal etilishiga va sud yuklamasining kamayishiga olib keladi.

3. Tabaqalashgan moliyalashtirishni oʻrganish. Fransiya modelidagi qisman qoplash mexanizmini Oʻzbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatini oʻrganish: yordam olish huquqini faqat kam taʼminlanganlar bilan cheklash oʻrniga, daromad darajasiga qarab qisman qoplash imkonini yaratish.

Birinchi bosqich (2026–2027-yillar) – institutsional va axborot asosini yaratish

– Adliya vazirligi va Advokatlar palatasi oʻrtasida qoʻshma konsultativ kengash tashkil etish va uning nizomini tasdiqlash.

– Advokatlar orasida birinchi monitoring soʻrovnomasini oʻtkazish va natijalarini eʼlon qilish.

– Institut negizida advokatlar uchun maxsus modulli dasturlarni ishga tushirish.

– Sunʼiy intellekt vositalaridan foydalanish boʻyicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish.

– Davlat hisobidan yuridik yordam uchun haq miqdorlarini qayta koʻrib chiqish va indeksatsiyalash qoidasini belgilash.

Ikkinchi bosqich (2027–2028-yillar) – raqamli integratsiya va sifat tizimi

– Advokatning yagona shaxsiy kabinetini takomillashtirish.

– Advokat soʻrovlarining elektron yuborilishi va monitoringi modulini takomillashtirish.

– Axborot tizimlari integratsiyasini davom ettirish va imkoniyatini kengaytirish.

– Yuridik yordam sifati monitoringining metodikasini ishlab chiqish va sinov tartibida joriy etish.

– Hududiy qamrovni kengaytirish dasturini amalga oshirish.

Uchinchi bosqich (2029–2030-yillar) – qonunchilikni tizimlashtirish va modelni yakunlash

– Advokatura sohasidagi qonunchilikni tizimlashtirish: yangi tahrirdagi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish.

– Vakolatlarni aniq chegaralashga oid normalarni qonun darajasida yanada mustahkamlash.

– Davlat hisobidan yuridik yordamni tabaqalashtirib moliyalash-tirish modelini sinov tartibida joriy etish imkoniyatini baholash.

– Tizim hajmi talab qilsa, yuridik yordamni maʼmuriylashtiruvchi ixtisoslashgan tuzilma tashkil etish masalasini koʻrib chiqish.

Ushbu yoʻl xaritasining umumiy mantiqi quyidagicha: avval institutsional muloqot va axborot asosini yaratish, soʻngra raqamli infratuzilma va sifat tizimini qurish, nihoyat, toʻplangan tajriba asosida qonunchilikni yakuniy shaklda tizimlashtirish.

IV bob boʻyicha nazorat savollari

1. Amaliyotdagi tipik muammolarning besh guruhini va ularning yechimlarini sanab oʻting.

2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning 14-moddasi davlat zimmasiga qanday ikki pozitiv majburiyatni yuklaydi?

3. BMTning Yuristlarning roli toʻgʻrisidagi asosiy prinsiplari davlat vazifalarini qanday ikki guruhga ajratadi?

4. Germaniyadagi "huquqiy nazorat" (Rechtsaufsicht) konstruksiyasining mazmuni nimada?

5. Fransiyadagi yuridik yordamni tabaqalashtirib moliyalashtirish modeli qanday ikki muammoni hal etadi?

6. Legal Aid Agency modeli Oʻzbekiston uchun qanday gʻoyani koʻrsatadi?

7. Qiyosiy tahlildan kelib chiquvchi toʻrtta umumiy qonuniyatni sanab oʻting.

8. SWOT-tahlilda aniqlangan uchta asosiy zaif tomonni koʻrsating.

9. Advokatura sohasidagi qonunchilikni tizimlashtirishning ikki muqobil yoʻli qanday?

10. Advokat soʻrovi institutini kuchaytirishning uch mexanizmini sanab oʻting.

11. Advokatning yagona shaxsiy kabinetida qanday funksiyalar jamlanishi taklif etilmoqda?

12. Sifat monitoringida qanday chegaraga qatʼiy rioya etilishi shart?

13. Yoʻl xaritasining uch bosqichi va ularning mantiqiy ketma-ketligini tushuntiring.

XULOSA

Mazkur uslubiy qoʻllanmada amalga oshirilgan tahlil quyidagi xulosalarga olib keldi.

I bob boʻyicha

Malakali yuridik yordam olish huquqi davlatdan faol harakatni talab qiluvchi pozitiv huquqdir. Konstitutsiyaning 29-moddasi ushbu huquqni kafolatlaydi va davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatilishini nazarda tutadi, 141-modda esa advokaturani konstitutsiyaviy institut maqomiga koʻtaradi. Shundan kelib chiqib, adliya organlarining advokaturani taʼminlash vakolatlari ixtiyoriy funksiya emas, balki davlatning konstitutsiyaviy majburiyatini bajarishning institutsional shaklidir. Advokaturaning mustaqilligi va davlatning taʼminlovchi faoliyati bir-birini istisno qilmaydi, balki oʻzaro taqozo etadi: hal qiluvchi savol davlat ishtirok etadimi emas, balki u qaysi funksiyalarni bajarishi va qaysilaridan chetlashishi lozimligidir.

Adliya organlari roli uch bosqichli evolyutsiyani boshidan kechirdi: 1994–2008-yillarda nazorat modeli, 2008–2018 yillarda vakolatlarni qayta taqsimlash uchun institutsional asosning yaratilishi, 2018-yildan boshlab taʼminlash va sheriklik modeliga oʻtish. Soʻnggi oʻn yilda erishilgan ijobiy natijalar olti yoʻnalishda: huquqiy bazaning zamonaviylashtirilishi, kasbga kirishning soddalashtirilishi, davlat hisobidan yuridik yordam tizimining yaratilishi, sohaning raqamlashtirilishi, advokat kafolatlarining kuchaytirilishi va kadrlar tayyorlash tizimining qayta qurilishida umumlashadi.

II bob boʻyicha

Adliya organlarining huquqiy va institutsional taʼminlash faoliyati norma ijodkorligi, huquqiy ekspertiza, kasbga kirishni rasmiylashtirish, tuzilmalarni roʻyxatdan oʻtkazish, kafolatlarni taʼminlash va intizomiy taqdimnoma institutini qamrab oladi. 2025-yilgi islohot natijasida adliya organlarida esa huquqiy tartibga solish va rasmiylashtirish vakolatlari saqlanib qoldi. Ushbu taqsimot xalqaro standartlarga muvofiq va muvozanatlidir.

Raqamli, kadrlar va ilmiy-uslubiy taʼminot adliya organlari faoliyatining eng tez rivojlanayotgan yoʻnalishidir. 2025-yil 1-apreldan advokatura sohasi boʻyicha kredit-modul mexanizmiga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining joriy etilishi hamda “Raqamli institut” platformasining yaratilishi malaka

oshirishni individuallashtirilgan, ehtiyojga asoslangan jarayonga aylantirish imkonini beradi.

III bob boʻyicha

Davlat hisobidan yuridik yordam tizimi adliya organlari faoliyatining eng yirik yoʻnalishidir. Adliya vazirligi ushbu sohada maxsus vakolatli davlat organi sifatida bir vaqtning oʻzida buyurtmachi, moliyaviy operator va monitoring subyekti rolini bajaradi. Tizimning eng muhim yutugʻi, advokatni avtomatik tanlash mexanizmi boʻlib, u himoya huquqining mazmuniy kafolatini texnik yoʻl bilan taʼminlaydi. Tizimning hal etilishi lozim boʻlgan masalalari: hududiy qamrov, haq miqdorlarining barqarorligi va sifat monitoringi metodikasidir.

IV bob boʻyicha

Qiyosiy tahlil koʻrsatdiki, aksariyat oʻrganilgan davlatlarda kasbga qabul qilish va intizomiy nazorat kasbiy hamjamiyatga, reyestr yuritish va maqomni rasmiylashtirish davlatga, bepul yuridik yordamni maʼmuriylashtirish va moliyalashtirish esa adliya vazirligiga tegishlidir.

Amaliyot tahlili tipik muammolarning besh guruhini aniqladi: axborot muammolari (eskirgan tasavvurlarning saqlanishi), vakolatlarni notoʻgʻri talqin qilish, idoralararo oʻzaro taʼsir muammolari, axborot va tahlil yetishmovchiligi hamda hududiy notekislik. Ushbu muammolarning aksariyati uslubiy-axborot ishi va raqamli monitoring vositalari bilan hal etilishi mumkin.

Takomillashtirish takliflari toʻrt guruhga ajratildi: normativ (qonunchilikni tizimlashtirish, advokat soʻrovi institutini kuchaytirish, haq miqdorlarini indeksatsiyalash), institutsional (qoʻshma konsultativ kengash, hududiy muloqot), raqamli (amaldagi e-advokat.uz platformasini kengaytirish, tizimlar integratsiyasi, sifat monitoringi, sunʼiy intellekt boʻyicha tavsiyalar) va resurs takliflari (hududiy qamrov, yordam turlari, kadrlar tayyorlash). Ular 2026–2030-yillarga moʻljallangan uch bosqichli yoʻl xaritasida jamlangan. Ushbu takliflarning sezilarli qismi muhokamadan oʻtgan qonun loyihasida oʻz aksini topgan, bu qoʻllanmada ilgari surilgan tahlil yoʻnalishining toʻgʻriligini tasdiqlaydi va eʼtiborni navbatdagi vazifaga, yaʼni qabul qilinadigan normalarning ijrosini taʼminlashga qaratadi.

Qoʻllanmada, shuningdek, amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga doir mualliflik takliflari ilgari surildi. Ular toʻrt yoʻnalishni qamrab oladi: himoyachining protsessual vakolatlarini ish yuritishning aniq bosqichlarida ishlaydigan shaklda mustahkamlash; advokatlik sirining subyektlar doirasini aniqlashtirish; advokat daxlsizligini taʼminlashda prokuror sanksiyasidan sud nazoratiga

oʻtish; advokatning axborot olish imkoniyatlarini bank siri, ekspertiza natijalari va xorijiy soʻrov instituti hisobiga kengaytirish. Ushbu takliflarning aksariyati adliya organlari zimmasiga yangi vazifalar yuklaydi va shu maʼnoda mazkur qoʻllanmaning asosiy tezisini, adliya organlarining roli nazorat funksiyasidan taʼminlash funksiyasiga izchil koʻchib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umumiy yakuniy xulosa shundan iboratki, Oʻzbekistonda adliya organlari va advokatura munosabatlari "nazorat" paradigmasidan "taʼminlash va sheriklik" paradigmasiga oʻtishning hal qiluvchi bosqichini bosib oʻtdi. Ushbu oʻtishni yakunlash uchun qonunchilikni tizimlashtirish, institutsional muloqotni rasmiylashtirish va raqamli infratuzilmani tugallash talab etiladi.

Adliya organlari va advokatura raqobatchi emas, balki yagona maqsad yoʻlidagi sheriklaridir. Bu maqsad har bir insonning huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinadigan, malakali yuridik yordam esa ijtimoiy va hududiy jihatdan hamma uchun birdek yetib boradigan huquqiy davlatni barpo etishdir.

GLOSSARIY

Advokat – oliy yuridik maʼlumotga ega boʻlgan va belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shugʻullanish huquqini olgan, jismoniy va yuridik shaxslarga professional yuridik yordam koʻrsatuvchi Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi.

Advokatura – jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam koʻrsatish uchun faoliyat yurituvchi, Konstitutsiyaning 141-moddasida mustahkamlangan huquqiy institut.

Advokatlik byurosi – advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshirish uchun advokat tomonidan taʼsis etilgan, notijorat tashkiloti boʻlgan advokatlik tuzilmasi.

Advokatlik firmasi – advokatlar tomonidan jamoaviy asosda taʼsis etiladigan advokatlik tuzilmasi.

Advokatlar hayʼati – aʼzolari soni oʻntadan kam boʻlmagan, taʼsis shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi jamoaviy advokatlik tuzilmasi.

Advokatlar palatasi – advokatlarning majburiy aʼzolikka asoslangan yagona professional oʻzini oʻzi boshqarish tashkiloti.

Advokatlik guvohnomasi – advokat maqomini tasdiqlovchi, adliya organi tomonidan belgilangan tartibda beriladigan hujjat.

Advokat soʻrovi – advokatning yuridik yordam koʻrsatish uchun zarur maʼlumot va hujjatlarni davlat organlari va boshqa tashkilotlardan talab qilib olish huquqini ifodalovchi rasmiy murojaati.

Advokatlik siri – ishonch bildiruvchi shaxsning advokatga yuridik yordam soʻrab murojaat etganligi fakti, murojaat etilgan masalalar hamda yuridik yordam koʻrsatish jarayonida maʼlum boʻlgan boshqa maʼlumotlar.

Advokatning daxlsizligi – advokatning shaxsi, uy-joyi, xizmat xonasi, foydalanishidagi transport va aloqa vositalari, xat-xabarlari, unga tegishli ashyo va hujjatlarga nisbatan qonunda belgilangan himoya rejimi.

Adliya organi – tegishli ravishda vazirlik Markaziy apparati, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari.

Davlat hisobidan yuridik yordam – moddiy imkoniyati cheklangan va huquqiy himoyaga muhtoj shaxslarga advokatlar orqali bepul koʻrsatiladigan malakali yuridik yordam.

Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokatlar reyestri – Qonunga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsa-

tish to‘g‘risida shartnoma tuzgan advokatlar haqidagi ma’lumotlar bazasi; barcha jismoniy va yuridik shaxslar foydalanishi mumkin.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlar – belgilangan shakldagi ma’lumotnoma, shuningdek, davlat hisobidan yuridik yordam olish rad etilganligi haqidagi bayonnoma yoki advokatdan voz kechish to‘g‘risidagi bayonnoma.

Ish ko‘rib chiqilayotgan hudud – davlat hisobidan yuridik yordam oluvchi shaxsga tegishli fuqarolik, ma’muriy, jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilayotgan yoki ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan hudud.

Navbatchilik jadvali – reyestrga kiritilgan advokatlar orasidan axborot tizimi orqali shakllantiriladigan va hududiy adliya organi tomonidan har oyning birinchi sanasiga qadar tasdiqlanib e’lon qilinadigan jadval; kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari, texnik muammolar hamda dam olish va bayram kunlarida advokatni jalb etish uchun qo‘llaniladi.

Eksterritoriallik prinsipi – davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun jismoniy shaxs yashash joyidan yoki ish ko‘rilayotgan joydan qat’i nazar har qanday adliya bo‘limiga murojaat qila olishi.

Yaqin hudud – ish ko‘rib chiqilayotgan hududga yoki advokatning shartnomasida tanlangan hududlarga 50 km dan ortiq bo‘lmagan masofadagi hudud.

Dual ta’lim – kasbiy o‘qitishning ish jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladigan shakli.

Individual kasbiy rivojlanish dasturi – “Raqamli institut” platformasida o‘tkazilgan kasbiy tekshiruv natijalari asosida tuziladigan, kadrni malaka oshirishga yo‘naltiruvchi dastur.

Intizomiy taqdimnoma – adliya organi yoki Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi rahbarining advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo‘zg‘atish uchun asos bo‘luvchi murojaati.

Kompetensiya pasporti – yuridik kadrning bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha kasbiy tekshiruv natijalarini aks ettiruvchi hujjat.

Kredit-modul mexanizmi – bilim va ko‘nikmalarni doimiy oshirib borishni nazarda tutuvchi uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining tashkiliy asosi.

Malaka komissiyasi – Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzurida tashkil etiladigan, malaka imtihonini qabul qiluvchi va intizomiy ish yurituvchi organ.

Malakali yuridik yordam – Konstitutsiyaning 29-moddasida kafolatlangan, professional bilim va kasbiy standartlarga tayangan yuridik yordam.

Maxsus vakolatli davlat organi – davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi).

Norma ijodkorligi – normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, muhokama qilish va qabul qilish faoliyati.

Oliy malaka komissiyasi – Advokatlar palatasi huzuridagi, hududiy malaka komissiyalari faoliyatiga oid qarorlar qabul qiluvchi organ.

"Raqamli institut" platformasi – taʼlim jarayonlarini boshqarish va avtomatlashtirish uchun Institutda yaratilgan raqamli platforma.

Rasmiylashtiruvchi vakolat – davlat organining qonunda belgilangan shartlar mavjudligini tekshirib, huquqiy faktni qayd etishga oid, diskretsion boʻlmagan vakolati.

Stajirovka – advokat maqomiga talabgorning advokatlik tuzilmasida malaka imtihoniga qadar oʻtaydigan, kamida uch oy davom etuvchi amaliy tayyorgarlik davri.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish – yuridik kadrlarning bilim va koʻnikmalarini muntazam oshirib borishni nazarda tutuvchi tizim (xalqaro amaliyotda – continuing legal education, CLE).

Huquqiy nazorat – davlatning kasbiy oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatini faqat qonunga muvofiqlik nuqtai nazaridan tekshirish bilan cheklanadigan nazorat turi.

Advokatning malaka darajasi – advokatning kasbiy tayyorgarligi va tajribasini aks ettiruvchi, malaka komissiyasi tomonidan beriladigan daraja.

Advokatning xorijiy soʻrovi – advokatning Adliya vazirligi yoki Advokatlar palatasi orqali, Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq xorijiy davlatlarga yuboradigan soʻrovi (muallif tomonidan joriy etish taklif etilayotgan institut).

Himoyachining murojaati – himoyachi tomonidan kiritiladigan iltimosnoma, shikoyat, ariza va boshqa murojaat; muallif taklifiga koʻra besh kun ichida koʻrib chiqilishi va natijasi haqida bir kun ichida xabar berilishi lozim.

"Yuridik yordam" axborot tizimi (e-advokat.uz) – advokatlik guvohnomalarini berish, advokatlar hisobini yuritish hamda davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokatlarni avtomatik tanlash funksiyalarini birlashtiruvchi axborot tizimi.

Ijtimoiy himoya yagona reyestri – kam taʼminlangan oilalar va shaxslar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar bazasi boʻlib, davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqini aniqlashda foydalaniladi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN KAZUSLAR

Quyidagi kazuslar amaliyotchilar, malaka oshirish kurslari, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

1-kazus. Guvohnoma berishni rad etish asoslari

Muammoli holat. Talabgor A. oliy yuridik ma’lumotga ega, advokatlik firmasida to‘rt oy stajirovka o‘tagan va malaka imtihonidan muvaffaqiyatli o‘tgan. U “Yuridik yordam” axborot tizimi orqali viloyat adliya boshqarmasiga advokatlik guvohnomasini olish uchun murojaat qildi. Besh ish kunidan so‘ng unga “murojaat maqsadga muvofiq emasligi” asosi bilan rad javobi keldi.

Savollar: 1) Guvohnoma berish tartibi va muddati qaysi hujjat bilan belgilangan? 2) Ko‘rsatilgan rad etish asosiga huquqiy baho bering. 3) A. o‘z huquqini qanday himoya qilishi mumkin?

To‘g‘ri javob. Guvohnoma berish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-iyundagi 226-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi. Nizomga ko‘ra, talabgor axborot tizimi orqali tegishli adliya organiga murojaat qiladi, adliya organi arizani ikki ish kuni ichida ko‘rib chiqadi va guvohnoma beradi. Ushbu kazusda ikki buzilish mavjud: birinchidan, muddat buzilgan (besh kun); ikkinchidan, rad etish asosi qonunga zid. Guvohnoma berishni rad etish asoslari Nizomda belgilangan va ushbu ro‘yxat qat’iydir, “maqsadga muvofiq emasligi” kabi asos rad etish asosi bo‘la olmaydi. Guvohnoma berish rasmiylashtiruvchi, diskretsion bo‘lmagan vakolat: qonunda belgilangan shartlar bajarilgan bo‘lsa, adliya organi guvohnoma berishni rad etishga haqli emas. A. rad javobi ustidan yuqori turuvchi organga, ya’ni vazirlikka yoki ma’muriy sudga shikoyat qilishi mumkin.

2-kazus. Davlat hisobidan yuridik yordam va advokatni tanlash

Muammoli holat. Fuqaro N. jinoyat ishi bo‘yicha gumon qilinuvchi sifatida ushlangan. U “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”da kam ta’minlangan shaxs sifatida hisobda turadi. Surishtiruvchi N.ga o‘zi tanigan advokatni taklif qildi va aynan shu advokat ishda ishtirok etishini so‘rab ariza yozishni maslahat berdi.

Savollar: 1) N.ning yuridik yordam olish huquqi qaysi paytdan boshlab vujudga keladi? 2) Davlat hisobidan yuridik yordam

koʻrsatuvchi advokat qanday tartibda tanlanadi? 3) Surishtiruvchining xatti-harakatiga huquqiy baho bering.

Toʻgʻri javob. Konstitutsiyaning 29-moddasiga koʻra, shaxs ushlanganida uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan eʼtiboran oʻz tanloviga koʻra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega. Moddiy imkoniyati cheklangani sababli N.ga "Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida"gi Qonunga hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi 774-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatiladi. Bunday yordamni faqat reyestrga kiritilgan advokat koʻrsatadi. Nizomga koʻra, "Yuridik yordam" axborot tizimi ish koʻrib chiqilayotgan hudud boʻyicha advokatni tasodifiy elektron tarzda tanlaydi, bunda "saralash" funksiyasi orqali advokatning ixtisosligi, shartnoma tuzgan hududlari va ish yuritilayotgan tilni bilish darajasi hisobga olinadi. Tanlangan advokatga SMS va shaxsiy elektron kabinet orqali xabarnoma yuboriladi; jinoyat ishi boʻyicha u bir soat ichida ishni qabul qilishi yoki rad etishi lozim. Surishtiruvchining muayyan advokatni tavsiya qilishi tasodifiy tanlov tartibini chetlab oʻtishga urinish boʻlib, himoya huquqining buzilishiga olib keladi. Surishtiruvchining himoyachi tayinlash toʻgʻrisidagi qarori adliya boʻlimi tomonidan koʻrib chiqilishini talab qilmaydi va bevosita advokatni tanlashga asos boʻladi, ammo tanlovni baribir tizim amalga oshiradi, mansabdor shaxs emas.

3-kazus. Advokat soʻroviga javob berilmasligi

Muammoli holat. Advokat S. fuqarolik ishi boʻyicha dalil toʻplash maqsadida davlat organiga advokat soʻrovi yubordi. Organ rahbari soʻrovga "maʼlumotlar ichki foydalanish uchun moʻljallangan" degan asos bilan javob bermadi; soʻrovni koʻrib chiqish uchun belgilangan muddat oʻtib ketdi.

Savollar: 1) Advokat soʻrovini koʻrib chiqish tartibi va muddatlari qachon va qaysi hujjat bilan belgilangan? 2) Koʻrsatilgan rad etish asosiga huquqiy baho bering. 3) Advokat va adliya organi qanday chora koʻrishi mumkin?

Toʻgʻri javob. Advokat soʻrovini koʻrib chiqish tartibi va muddatlari 2018-yil 11-oktyabrdagi OʻRQ-497-son Qonun bilan "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunga va Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga kiritilgan oʻzgartish va qoʻshimchalar orqali belgilangan. Maʼlumotni "ichki foydalanish uchun" deb taʼriflash, agar maʼlumotning cheklangan toifaga kiritilishi qonunda nazarda tutilmagan boʻlsa, asossiz rad etish hisoblanadi: maʼlumotga kirish cheklovlari faqat qonun asosida belgilanishi mumkin. Advokat man-

sabdor shaxsning harakatsizligi ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishi, shuningdek, javobgarlikka tortish masalasini qoʻyishi mumkin. Amaldagi qonunchilikda adliya organlarining bunday vaziyatda chora koʻrish vakolatlari mavjud emas.

4-kazus. Intizomiy taqdimnoma kiritish chegaralari

Muammoli holat. Advokat R. jinoyat ishi boʻyicha himoya qilish jarayonida tergovchining protsessual harakatlari qonunga zid ekanini koʻrsatuvchi bir qator shikoyatlar berdi va sud majlisida ayblov dalillarini keskin tanqid qildi. Hududiy adliya organi rahbariga tergovchidan advokat "tergovga toʻsqinlik qilmoqda" degan mazmunda xat keldi va intizomiy taqdimnoma kiritish soʻraldi.

Savollar: 1) Intizomiy ish yuritishni qoʻzgʻatish asoslari qanday? 2) Ushbu vaziyatda taqdimnoma kiritish mumkinmi? 3) Qanday norma ushbu masalani hal etadi?

Toʻgʻri javob. Intizomiy ish yuritishni qoʻzgʻatish toʻgʻrisidagi qaror malaka komissiyasi tomonidan, jumladan, adliya organi rahbarining taqdimnomasiga asosan qabul qilinadi, biroq buning uchun advokatura toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari, kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri yoki advokat qasamyodining buzilishi aniqlangan boʻlishi shart. Ushbu kazusda shunday buzilish yoʻq: advokat oʻz protsessual huquqlaridan foydalangan va huquqiy pozitsiyasini bayon etgan. "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunda advokatning ish yuzasidan huquqiy nuqtai nazari xususida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, sud esa xususiy ajrim chiqarishi mumkin emasligi mustahkamlangan. Demak, ushbu vaziyatda intizomiy taqdimnoma kiritish qonunga zid boʻladi. Adliya organi rahbarining toʻgʻri harakati murojaatni asossiz deb topish va taqdimnoma kiritmaslik boʻladi.

5-kazus. Alohida boʻlinma ochish

Muammoli holat. Advokatlik firmasi viloyat markazida filial ochishga qaror qildi va bu haqda adliya organiga xat yubordi. Adliya organi "filial ochishga rozilik berilmaydi, chunki hududda advokatlik tuzilmalari yetarli" deb javob qaytardi.

Savollar: 1) Alohida boʻlinma ochish qanday tartibda amalga oshiriladi? 2) Adliya organining javobiga huquqiy baho bering.

Toʻgʻri javob. "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunga koʻra, advokatlik firmasi va advokatlar hayʼati Oʻzbekiston Respublikasi hududida hamda chet davlatlarda oʻzining alohida boʻlinmalarini (vakolatxona va filiallarini) tashkil etishga haqli; bunda ular alohida boʻlinmani ochish toʻgʻrisidagi qarori haqida adliya organini oldindan

xabardor qiladi. Qonunda “ruxsat oladi” emas, “xabardor qiladi” deb belgilangan, demak, bu xabardor qilish tartibi bo‘lib, adliya organi alohida bo‘linma ochishni taqiqlash vakolatiga ega emas. Adliya organining javobi qonunga zid. Bundan tashqari, “hududda tuzilmalar yetarli” degan mulohaza huquqiy asos emas, balki maqsadga muvofiqlik bahosi bo‘lib, u huquqiy tartibga solishda qo‘llanilishi mumkin emas.



6-kazus. Davlat hisobidan yuridik yordamda advokatni almashtirish

Muammoli holat. Fuqaro T.ga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokat tayinlandi. Ikki haftadan so‘ng T. “advokat menga yoqmadi” deb boshqa advokat tayinlashni so‘radi. Keyinroq ma’lum bo‘ldiki, advokat kasalligi sababli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik haqida tibbiy xulosa taqdim etgan.

Savollar: 1) Davlat hisobidan yuridik yordamda advokatni almashtirishning asoslari qanday? 2) T.ning dastlabki murojaati qanoatlantirilishi kerakmi? 3) Keyingi holat vaziyatni o‘zgartiradimi?

To‘g‘ri javob. Advokatni almashtirish asoslari qonunchilikda cheklangan doirada belgilangan: qonunda nazarda tutilgan holatlar tasdiqlanganda; advokat kasalligi sababli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik haqida tibbiy xulosa taqdim etganda; davlat hisobidan yuridik yordam oluvchi shaxsning murojaatiga asosan advokatga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo‘llanilganda. “Advokat yoqmadi” degan subyektiv baho almashtirish asosi emas, aks holda himoyaning uzluksizligi buziladi va tizim resurslari samarasiz sarflanadi. Demak, dastlabki murojaat qanoatlantirilmaydi. Keyingi holat esa vaziyatni o‘zgartiradi: tibbiy xulosa taqdim etilishi qonunda nazarda tutilgan almashtirish asosidir, shu bois ushbu asosda boshqa advokat tayinlanadi.



7-kazus. Tasdiqlovchi hujjatlarni kelishish va “sukut – rozilik” qoidasi

Muammoli holat. Advokat F. davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatib, jinoyat ishi bo‘yicha himoyani yakunladi. U belgilangan muddatda ma’lumotnomani tayyorlab, uning protsessual ishtirokka oid qismini kelishish uchun tergovchiga yubordi. Tergovchi besh ish kuni davomida hech qanday javob bermadi. Adliya bo‘limi xodimi “kelishuv yo‘q, shu bois to‘lov uchun yuborib bo‘lmaydi” deb hisobladi.

Savollar: 1) Tasdiqlovchi hujjatlar qanday muddatda kelishilishi lozim? 2) Mansabdor shaxs javob bermasa, oqibat qanday bo‘ladi? 3) Adliya bo‘limi xodimining pozitsiyasiga baho bering.

To‘g‘ri javob. 774-son qaror bilan tasdiqlangan Nizomga ko‘ra, tasdiqlovchi hujjatlarning protsessual harakatlarni amalga oshirishda advokatning ishtirok etishi haqidagi qismi ishni yuritayotgan mansabdor shaxs bilan uch ish kuni ichida kelishiladi. Agar mansabdor shaxs advokatning murojaatidan keyin uch ish kuni ichida tasdiqlovchi hujjatlarni kelishib bermasa, ular kelishilgan deb hisoblanadi. Demak, ushbu kazusda uch ish kuni o‘tgandan so‘ng hujjatlar avtomatik ravishda kelishilgan hisoblanadi va adliya bo‘limi ularni uch ish kuni ichida tekshirib, haq to‘lash uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligining tuman (shahar) bo‘limiga yuborishi shart. Adliya bo‘limi xodimining pozitsiyasi Nizomga zid. Ushbu qoidaning mazmuni advokatni boshqa organning harakatsizligidan kelib chiquvchi moliyaviy xatardan himoya qilishdir.

 ***8-kazus. Sifat monitoringi va to‘lov o‘rtasidagi chegara***

Muammoli holat. Adliya bo‘limi davlat hisobidan yuridik yordam olgan fuqarodan advokat faoliyati haqida ma’lumot so‘radi. Fuqaro “advokat kam harakat qildi, ishni yutqazdik” deb javob berdi. Shu asosda adliya bo‘limi xodimi advokatga haq to‘lashni kamaytirish yoki to‘lashdan bosh tortish mumkinmi, degan savolni qo‘ydi.

Savollar: 1) Adliya bo‘limi bunday ma’lumot so‘rashga haqlimi? 2) Olingan ma’lumot to‘lovga ta’sir qila oladimi? 3) Ushbu qoidaning nazariy asosi nimada?

To‘g‘ri javob. Nizomning 39-bandiga ko‘ra adliya bo‘limi advokat tomonidan ko‘rsatilgan yuridik yordamning sifati, turi, hajmi va muddatlarini tasdiqlash maqsadida yordam olgan jismoniy shaxslardan va ishni yuritayotgan vakolatli organdan axborot va ma’lumotlar so‘rab olishga haqli. Demak, birinchi savolga javob – ha, haqli. Ammo shu bandning o‘zida belgilanadiki, ushbu axborot va ma’lumotlardan sohaning umumiy monitoringini yuritish uchun foydalaniladi va ular haq to‘lashga ta’sir qilmaydi. Demak, ikkinchi savolga javob – yo‘q, to‘lovga ta’sir qila olmaydi. Ushbu qoidaning nazariy asosi advokat mustaqilligi prinsipidadir: agar sifat bahosi to‘lovga bevosita ta’sir qilsa, davlat organi advokatning kasbiy faoliyatiga moliyaviy richag orqali ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lar edi. Bundan tashqari, ish natijasi (yutqazish) o‘z-o‘zicha sifatsiz ishlaganlikni anglatmaydi. Haqni kamaytirish yoki to‘lamaslik faqat Nizomda nazarda tutilgan asoslarda, masalan, tasdiqlovchi hujjatlarda yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar aniqlanganda mumkin.

 ***9-kazus. Advokat soʻrovi va sud ekspertizasi: amaldagi holat va istiqbol***

Muammoli holat. Advokat Sh. jinoyat ishi boʻyicha hujjatning haqiqiyligini aniqlash zarur deb hisobladi va sud-ekspertiza muassasasiga murojaat qilib, oʻz soʻrovi asosida ekspertiza oʻtkazishni soʻradi. Muassasa "ekspertiza faqat sudning ajrimi yoki vakolatli organning qarori asosida tayinlanadi" deb javob qaytardi. Advokat adliya organiga murojaat qilib, ushbu masalada tushuntirish berishni soʻradi.

Savollar: 1) Muassasaning javobi amaldagi qonunchilikka muvofiqmi? 2) Muhokamadan oʻtgan qonun loyihasi ushbu masalani qanday hal etmoqda? 3) Loyiha qabul qilingan taqdirda adliya organlari zimmasida qanday vazifa turadi?

Toʻgʻri javob. Amaldagi "Sud ekspertizasi toʻgʻrisida"gi Qonunning 17-moddasiga koʻra, sud ekspertizasini oʻtkazish asoslari sifatida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori hamda sudning ajrimi nazarda tutilgan; advokat soʻrovi ushbu roʻyxatda yoʻq. Demak, muassasaning javobi amaldagi qonunchilikka muvofiqdir. Biroq muhokamadan oʻtgan qonun loyihasida ushbu modda yangi tahrirda bayon etilib, advokatning soʻrovi ham sud ekspertizasini oʻtkazish asoslaridan biri deb eʼtirof etilmoqda: iqtisodiy, fuqarolik, maʼmuriy, jinoiy va maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ish yuritish jarayonlarida, shuningdek jinoyat ishi boʻyicha ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan advokat soʻroviga asosan shartnoma boʻyicha ekspertiza tadqiqotlari oʻtkazilishi mumkin boʻladi; ekspertiza advokatning soʻrovi muassasaga kelib tushgan kundan eʼtiboran tayinlangan hisoblanadi. Loyiha qabul qilingan taqdirda adliya organlari zimmasida ikki vazifa turadi: sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari uchun advokat soʻrovi asosida ekspertiza tayinlashning idoraviy tartibini ishlab chiqish hamda ushbu yangilik yuzasidan ham ekspertlar, ham advokatlar uchun oʻquv va uslubiy materiallar tayyorlash.

 ***10-kazus. Advokat stajyorini guvoh sifatida soʻroq qilishga urinish***

Muammoli holat. Advokat K. iqtisodiy ish boʻyicha mijozga yuridik yordam koʻrsatgan, ushbu ishda uning stajyori ham ishtirok etgan. Keyinchalik shu mijozga nisbatan jinoyat ishi qoʻzgʻatildi. Tergovchi advokat stajyorini guvoh sifatida soʻroqqa chaqirdi va

“Jinoyat-protsessual kodeksining 115-moddasida faqat jinoyat ishi yuzasidan maʼlum boʻlgan tafsilotlar nazarda tutilgan, siz esa iqtisodiy ish boʻyicha ishtirok etgansiz” deb asosladi.

Savollar: 1) Tergovchining yondashuvi qanday normaga tayanmoqda va u qaysi norma bilan ziddiyatda? 2) Advokat stajyoriga nisbatan qanday talablar tatbiq etiladi? 3) Ushbu ziddiyatni bartaraf etish yoʻli qanday?

Toʻgʻri javob. Tergovchining yondashuvi amaldagi normalar oʻrtasidagi noaniqlikdan kelib chiqadi: Jinoyat-protsessual kodeksining 115-moddasida “jinoyat ishi yuzasidan” degan ibora qoʻllanilgan boʻlsa, “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunning 9 va 10-moddalari advokatlik sirini bunday cheklov bilan bogʻlamaydi. Ayni paytda adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi 10-mh-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomning 4, 23 va 32-bandlariga muvofiq stajyor va yordamchiga nisbatan Advokatning kasb etikasi qoidalari hamda advokatlik sirini saqlashga doir talablar tatbiq etiladi, demak, ular ham oʻzlariga maʼlum boʻlib qolgan holatlarni oshkor qila olmaydi. Demak, tergovchining talabi idoraviy norma va sohaviy qonun talablariga zid. Mazkur ziddiyatni bartaraf etish uchun qoʻllanmaning 2.3-paragrafida taklif etilganidek, Kodeksning 115-moddasi va “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunning 10-moddasini oʻzaro uygʻunlashtirish, advokat bilan bir qatorda stajyor va yordamchini ham aniq qamrab olish hamda “jinoyat ishi yuzasidan” degan cheklovni olib tashlash lozim.

TEST TOPSHIRIQLARI

Quyida har bir bob boʻyicha test topshiriqlari keltirilgan. Toʻgʻri javoblar kaliti test topshiriqlaridan keyin berilgan.

1. Konstitutsiyaning qaysi moddasida advokatura jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam koʻrsatish uchun faoliyat yuritishi belgilangan?

a) 29-modda
b) 141-modda
c) 65-modda
d) 44-modda

2. Malakali yuridik yordam olish huquqi huquqlarning qaysi turiga kiradi?

a) faqat negativ
b) faqat pozitiv
c) negativ va pozitiv jihatlarni birlashtiradi
d) protsessual

3. "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida"gi Qonunning qaysi moddasi "Davlat bilan advokatura oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar" deb nomlangan?

a) 5-modda
b) 7-modda
c) 10-modda
d) 12-modda

4. Adliya organlarining vakolatlari necha guruhga ajratildi?

a) uch
b) toʻrt
c) besh
d) olti

5. Advokatlar palatasi qaysi qonun bilan taʼsis etilgan?

a) 349-I
b) 721-I
c) OʻRQ-198
d) OʻRQ-497

6. Advokat soʻrovini koʻrib chiqish tartibi va muddatlari qaysi qonun bilan belgilangan?

a) OʻRQ-198
b) OʻRQ-497
c) OʻRQ-848
d) OʻRQ-915

7. Advokatlik guvohnomasini berish arizasi necha ish kuni ichida koʻrib chiqiladi?

a) bir
b) ikki
c) besh
d) oʻn

8. Advokatlar hayʼati tarkibidagi aʼzolar soni kamida nechta boʻlishi kerak?

a) uch
b) besh
c) yetti
d) oʻn

9. Stajirovkaning minimal muddati qancha?

a) bir oy
b) uch oy
c) olti oy
d) bir yil

10. Alohida boʻlinma ochishda adliya organi:

a) ruxsat beradi
b) oldindan xabardor qilinadi
c) rozilik beradi
d) roʻyxatdan oʻtkazadi

11. Davlat hisobidan yuridik yordam sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi qaysi?

a) Oliy sud
b) Bosh prokuratura
c) Adliya vazirligi
d) Advokatlar palatasi

12. Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokat qanday mezonlar boʻyicha avtomatik tanlanadi?

a) faqat hudud
b) ixtisoslik, ish yuritish tili va hudud
c) ish staji va yoshi
d) mijozning tanlovi

13. Davlat hisobidan yuridik yordam uchun haq miqdorlarini kim belgilaydi?

a) Adliya vazirligi
b) Advokatlar palatasi
c) Vazirlar Mahkamasi
d) Oliy sud

14. Yordam olish huquqini aniqlashda qaysi axborot tizimi maʼlumotlaridan foydalaniladi?

a) “Yuridik yordam”
b) “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”
c) “Elektron hukumat”
d) “Raqamli institut”

15. Advokatura sohasi boʻyicha kredit-modul mexanizmiga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) tizimi qachondan joriy etildi?

a) 2025-yil 1-yanvardan
b) 2025-yil 1-apreldan
c) 2025-yil 1-iyundan
d) 2026-yil 1-yanvardan

16. Oʻquv jarayonida amaliy mashgʻulotlarga kamida qancha ulush ajratilishi belgilangan?

a) 20–30 foiz
b) 30–40 foiz
c) 40–50 foiz
d) 50–60 foiz

17. Angliya va Uelsda bepul yuridik yordamni boshqaruvchi tuzilma qanday nomlanadi?

a) Solicitors Regulation Authority
b) Legal Aid Agency
c) Bar Council
d) Law Society

18. Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatuvchi advokatning reyestrga kirish haqidagi arizasi qancha muddatda koʻrib chiqiladi?

a) bir ish kuni
b) uch ish kuni
c) besh ish kuni
d) oʻn ish kuni

19. Muallif taklifiga koʻra, himoyachining iltimosnomasi qancha muddatda koʻrib chiqilishi lozim?

a) uch kun
b) besh kun
c) oʻn kun
d) oʻn besh kun

20. Muallif taklifiga koʻra, advokat daxlsizligiga oid harakatlar qanday asosda amalga oshirilishi lozim?

a) prokuror sanksiyasi bilan
b) sud ajrimi bilan
c) adliya organi roziligi bilan
d) Advokatlar palatasi xulosasi bilan

Javoblar kaliti:

Savol	Javob	Savol	Javob	Savol	Javob	Savol	Javob
1	**b**	6	**b**	11	**c**	16	**c**
2	**c**	7	**b**	12	**b**	17	**b**
3	**d**	8	**d**	13	**c**	18	**b**
4	**b**	9	**b**	14	**b**	19	**b**
5	**c**	10	**b**	15	**b**	20	**b**

MUSTAQIL TA’LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR VA REFERAT MAVZULARI

Topshiriqlar

1. Konstitutsiyaning 29- va 141-moddalarini tahlil qilib, ulardan kelib chiquvchi davlat majburiyatlarining roʻyxatini tuzing.

2. “Advokatura toʻgʻrisida”gi va “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida”gi qonunlar normalarini qiyoslang va takrorlanuvchi yoki ziddiyatli normalarni aniqlang.

3. Vazirlar Mahkamasining 226-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida advokatlik guvohnomasini olish jarayonining blok-sxemasini tuzing.

4. Vazirlar Mahkamasining 171-son qarorini oʻrganib, undagi advokatura sohasiga bevosita tegishli normalarni ajratib chiqing.

5. Oʻz hududingizdagi advokatlik tuzilmalari soni va turlari boʻyicha maʼlumot toʻplang va uni aholi soni bilan taqqoslang.

6. Xorijiy davlatlardan birini tanlab, uning adliya vazirligi advokaturani taʼminlash sohasidagi vakolatlari boʻyicha qisqa tahliliy maʼlumotnoma tayyorlang.

Referat mavzulari

1. Malakali yuridik yordam olish huquqi davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida.

2. Advokatura mustaqilligi va davlat taʼminoti: nazariy muammolar.

3. Advokatlik kasbiga kirish tartibining evolyutsiyasi: 1996–2025-yillar.

4. Davlat hisobidan yuridik yordam tizimida advokatni avtomatik tanlash mexanizmining huquqiy ahamiyati.

5. Advokat soʻrovi instituti: muammolar va takomillashtirish yoʻllari.

6. Adliya organlari va advokatura hamkorligining raqamli shakllari.

7. Uzluksiz kasbiy taʼlim advokatura sifatining kafolati sifatida.

8. Yuridik yordamga erishish imkoniyatining hududiy jihatlari.

9. Advokatlik faoliyati kafolatlarining xalqaro standartlari va milliy qonunchilik.

10. Xorijiy davlatlar adliya vazirliklarining advokaturani taʼminlashdagi roli: qiyosiy tahlil.

FOYDALANILGAN MANBALAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri 2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan) // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi. – https://lex.uz/docs/6445145
2. Oʻzbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi 349-I-son "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonuni (amaldagi tahrir) // https://lex.uz/docs/54503
3. Oʻzbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi 721-I-son "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida"gi Qonuni (amaldagi tahrir) // https://lex.uz/docs/29626
4. Oʻzbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrdagi OʻRQ-198-son Qonuni // https://lex.uz/docs/1419978
5. Oʻzbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktyabrdagi OʻRQ-497-son Qonuni // https://lex.uz/docs/3969848
6. Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi OʻRQ-848-son "Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida"gi Qonuni // https://lex.uz/docs/6502543
7. Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 27-fevraldagi OʻRQ-915-son Qonuni // https://lex.uz/docs/6819721
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son Farmoni // https://lex.uz/docs/3731060
9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 maydagi PF-5997-son Farmoni // lex.uz
10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son qarori // lex.uz
11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 yanvardagi PF-11-son Farmoni // https://lex.uz/docs/6358976
12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 24 maydagi PF-80-son Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/6937312
13. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-iyundagi 226-son qarori // https://lex.uz/docs/6478021
14. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi 774-son "Davlat hisobidan yuridik yordam koʻrsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq toʻlash tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori // https://lex.uz/docs/7228726

15. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son qarori // https://lex.uz/uz/docs/7437170

16. Advokat tomonidan ishni olib borishga order shaklini tasdiqlash toʻgʻrisidagi idoraviy normativ-huquqiy hujjat (roʻyxat raqami 3417, 31.01.2023) // https://lex.uz/docs/6374846

17. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF-6269-son "Davlat xizmatlari koʻrsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Farmoni // lex.uz

18. Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari toʻgʻrisidagi nizom (roʻyxat raqami 3637, 07.07.2025) // https://lex.uz/docs/7619714

II. Ilmiy va oʻquv adabiyotlar

19. Davlyatov V.X. Advokatura institutini takomillashtirishda advokatlik tuzilmalari va oʻzini oʻzi boshqarish organining huquqiy maqomi masalalari: yurid. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: TDYUU. OAK himoya eʼloni: https://oak.uz/pages/5245

20. Mamayeva M.N. Qozogʻiston Respublikasi va Oʻzbekiston Respublikasida advokatura institutining mustaqilligini taʼminlash mexanizmi: qonunchilik va amaliyotning qiyosiy tahlili: yurid. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: TDYUU, 2024. OAK himoya eʼloni: https://oak.uz/pages/17205

21. Mamayeva M.N., Bijanova A.R., Osmanova G.J., Ismailov A.A. Garantii nezavisimosti advokatskoy deyatelnosti v stranax sentralnoy Azii na primere Kazaxstana i Uzbekistana // Xabarshы. Zaң seriyasы. – 2024. – T. 112, № 4. DOI: 10.26577/japj2024.112.i4.a7

22. 12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura ixtisosligi boʻyicha malakaviy imtihon dasturi. – Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi // https://proacademy.uz

III. Xalqaro hujjatlar va xorijiy manbalar

23. Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt (1966 yil 16 dekabr; Oʻzbekiston Respublikasi 1995 yilda qoʻshilgan), 14-modda.

24. Basic Principles on the Role of Lawyers. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga munosabat boʻyicha VIII Kongressi, Gavana, 1990 // https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-role-lawyers

25. Charter of Core Principles of the European Legal Profession. CCBE, 2006 // https://www.ccbe.eu
26. Bundesrechtsanwaltsordnung (BRAO), 1959 // https://www.gesetze-im-internet.de/brao/
27. Loi n° 71-1130 du 31 décembre 1971 portant réforme de certaines professions judiciaires et juridiques // https://www.legifrance.gouv.fr
28. Federalnыy zakon ot 31.05.2002 № 63-FZ "Ob advokatskoy deyatelnosti i advokature v Rossiyskoy Federasii" // http://pravo.gov.ru
29. Qozogʻiston Respublikasining 2018 yil 5 iyuldagi "Advokatlik faoliyati va yuridik yordam toʻgʻrisida"gi Qonuni // https://adilet.zan.kz

IV. Elektron resurslar

30. Oʻzbekiston Respublikasi Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi – https://lex.uz
31. "Yuridik yordam" axborot tizimi – https://e-advokat.uz
32. Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – https://adliya.uz
33. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti – https://uzmarkaz.uz
34. "Advokatura institutining takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi va unga ilova qilingan taqqoslash jadvali // Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali. – https://regulation.adliya.uz

QAYDLAR UCHUN

MIRZAYEV ISLOMJON XUSHNAZAR O‘G‘LI

ADLIYA ORGANLARINING ADVOKATURANING SAMARALI FAOLIYAT KO‘RSATISHINI TA’MINLASHDAGI ROLI

O‘quv-uslubiy qo‘llanma

Muharrir: I.Abdusalomov
Kompyuterda sahifalovchi: I.Mirzayev

Bosishga ruxsat etildi 23.09.2026-yil.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “DejaVu Sans” garniturasi. Hisob nashr tabog‘i. 7,75.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 09-12.

“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri Olmazor tumani Ziyo MFY
Talabalar ko‘chasi, 96-1-uy.